



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

NOORGANIK, ANALITIK, FIZIK VA KOLLOID KIMYO KAFEDRASI

“NOORGANIK KIMYO”

FANI BO'YICHA MA'RUZALAR MATNI



TOSHKENT-2018

Tuzuvchilar: Toshkent farmatsevtika instituti umumiy va noorganik kimyo kafedrası farmatsevtika fanlari doktori, dotsent H.R, To`xtayev

Taqrizchilar: Toshkent kimyo-texnologiya instituti umumiy va noorganik kimyo kafedrası mudiri, kimyo fanlari doktori, professor A.S. Sidiqov,

Toshkent farmatsevtika instituti organik va biologik kimyo kafedrası mudiri, kimyo fanlari doktori professor A. Karimov

Ma`ruzalar matni kimyo fanlari soha uslubiy kengashining 2018 yil 28 avgustdagi 2- sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Soha uslubiy kengashi raisi

S.N. Aminov

Ma`ruzalar matni institut markaziy uslubiy kengashida ko`rib chiqildi
“_____” _____ yil va institut kengashiga ko`rib chiqish uchun
tavsiya etildi

Markaziy uslubiy kengash raisi

T.A. Nabiev

Institut kengashida tasdiqlandi va chop etishga tavsiya etildi.

Institut kengash kotibi

F.X. To`xtayev

1-ma'ruza

3.1.KIMYOVIY REAKSIYALARNING ENERGETIKASI. ICHKI ENERGIYA.ENTALPIYA. KALORIMETRIYA. REAKSIYALAR ENTALPIYASINI ANIQLASH. GESS QONUNI. ENTROPIYA VA IZOBARIK-IZOTERMİK POTENTIAL.

Reja:

1. Termokimyo. Asosiy termodinamik tushunchalar.
2. Termokimyoviy tenglamalar. Gess qonuni. Ichki energiya. Entalpiya. Gazlarning kengayish ishi.
3. Entropiya. Jarayonlarning yo'nalishi.
4. Termokimyoviy hisoblashlar.
5. Izobar-izotermik va izoxor-izotermik potensial. Kimyoviy reaksiyalarning yo'nalishini belgilash.

Ajratilgan vaqt - 2 soat.

Ma'ruzaning maqsadi: Talabalarni termokimyoning asosiy qonunlari bilan tanishtirish. Olingan bilimlar asosida kimyoviy reaksiyalarning borish yo'nalishini to'g'ri aniqlay bilish. Eng sodda termokimyoviy hisoblarni amalga oshirish.

Tayanch iboralar: Ichki energiya. Entalpiya. Izobarik va izoxorik jarayonlarda gazning kengayish ishi. Gess qonuni. Tajribada entalpiyani aniqlash. Kalorimetriya. Termokimyoviy hisoblashlar. Entropiya. Izobar –izotermik potensialb va izoxor –izotermik potensial. Kimyoviy reaksiylarning o'z-o'zidan borish shartlari. Kimyoviy potensial.

Thermodynamics: Entropy, Free Energy, and the Direction of Chemical Reactions





Kimyoviy reaksiyalarning energetikasi. Ichki energiya. Entalpiya. Kalorimetriya. Gess qonuni. Entropiya. Izobar–izotermik potensial va izoxor izotermik potensial. Kimyoviy potensial.

Barcha kimyoviy jarayonlar issiqlik chiqishi¹ yoki yutilishi bilan ro'y beradi. Kimyoviy reaksiyalarda ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori reaksiyaning issiqlik effekti deyiladi. Issiqlik chiqishi bilan boradigan reaksiyalar ekzotermik, issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalar endotermik reaksiyalar deyiladi.

Reaksiyalarning issiqlik effektlarini o'rganadigan bo'lim termokimyo deyiladi. Issiqlik effektlari ko'rsatilgan reaksiyalar termokimyoviy tenglamalar deb ataladi. Reaksiyaning issiqlik effekti moddalarning fazoviy holatiga,

¹Silberberg Martin S., Principles of general chemistry/ Martin S.Silberberg-3-ed.Published McGraw Hill, New York, 2013. P.654-676.

sharoitga bog'liq. Reaksiyalarning issiqlik effektlari bir xil standart sharoitda o'rganiladi. Standart sharoit deganda 298 K(25°C) harorat va 101,325 kPa bosim tushuniladi. Termokimyoviy tenglamalarda moddalarning agregat holatlari ko'rsatiladi, bunda kasrli koeffitsientlar ham ishlatish mumkin.



1.1-rasm. Turli jarayonlarda entalpiyaning o'zgarishi.

Termokimyoning asosi G.I.Gess qonunidan iborat bo'lib, u quyidagicha ta'riflanadi:

Reaksiyaning issiqlik effekti reaksiyada ishtirok etuvchi moddalarning boshlang'ich va oxirgi holatlarigagina bog'liq bo'lib, jarayonning qaysi usulda (soni va tabiatiga) olib borishga bog'liq emas.

Reaksiyaning issiqlik effekti sistema ichki energiyasi va entalpiyasi o'zgarishi natijasidir. Sistemaning ichki energiyasi uni barcha energiyalari yig'indisi bo'lib unga moddani tashkil etgan atom va molekulalarning ilgarilanma, aylanma harakatlari hamda yadro va elektronlarning energiyalari va hokazo barcha energiyalar yig'indisidan iborat. Ichki energiyaning mutloq qiymatini o'lchab bo'lmaydi, faqat uning o'zgarishi (ΔU) ni o'lchash mumkin. Termodinamikaning I qonuniga muvofiq sistemaning ichki energiyasi atrof muhit bilan issiqlik almashinuvi bo'lguniga qadar o'zgarmas bo'ladi. Agar sistemaga tashqaridan qo'shimcha issiqlik energiyasi (Q) berilsa, sistema bir holatdan ikkinchi holatga o'tadi. Yutilgan issiqlik miqdori sistema ichki energiyasining o'zgarishiga va tashqi kuchlarga qarshi bajarilgan ishning yig'indisiga teng bo'ladi:

$$Q = (Q_2 - Q_1) = \Delta U + A \quad \Delta U = U_2 - U_1$$



4.2 – rasm. Issiqlikni ishga o'tish jarayoni.

Bajarilgan ish esa, sistema bosimi doimiyligida $p = \text{const}$

$$A = P\Delta V = P(V_2 - V_1)$$

$$Q_p = \Delta U + P(V_2 - V_1) = U_2 - U_1 + P(V_2 - V_1) = \\ = (U_2 + PV_2) - (U_1 + PV_1) = H_2 - H_1$$

$$Q_p = H_2 - H_1 = \Delta H$$

$$U + PV = \Delta H$$

ΔH - kattalik entalpiya deb ataladi.

Entalpiyani kengaygan sistemaning energiyasi deyish mumkin. O'zgarmas bosimda boradigan kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti sistema entalpiyasining o'zgarishiga teng².

O'zgarmas hajmda boradigan jarayonlar uchun jismga beriladigan issiqlik miqdori uning ichki energiyasini o'zgarishiga sarf bo'ladi:

$$Q_v = H_2 - H_1 = \Delta H$$

$$Q_p = \Delta H$$

Ekzotermik jarayonlarda sistemaning ichki energiyasi va entalpiyasi kamayadi, shu sababli

$$\Delta U < 0; \quad \Delta H < 0 \text{ bo'ladi.}$$

Endotermik jarayonlarda esa sistemaning ichki energiyasi ortadi, shu sababli

$$\Delta U > 0; \quad \Delta H > 0.$$


CALCULATING THE CHANGE IN ENTROPY OF A REACTION

TERMOKIMYOVIY HISOBLASHLAR

Termokimyoviy hisoblashlarda moddalarning standart hosil bo'lish issiqligi (entalpiyasi) tushunchasi ishlatiladi. Standart sharoitda 1 mol murakkab

² H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.


moddaning oddiy moddalardan hosil bo'lish reaksiyasining issiqlik effekti shu moddaning hosil bo'lish issiqligi ($\Delta H^{\circ}_{h/b \text{ issiqligi}}$) deyiladi. Bunda moddaning agregat holatini ko'rsatishi zarur.



Oddiy moddalarning h/b issiqliklari nolga teng. Yuqorida ta'rifi keltirilgan Gess qonunidan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1) reaksiyaning issiqlik effekti reaksiya mahsulotlari h/b issiqliklari yig'indisidan dastlabki moddalarning h/b issiqliklari yig'indisining ayirmasiga teng.

$$\Delta H^{\circ}_{\text{reaksya}} = \Delta H^{\circ}_{h/b \text{ issiqligi.mah.}} - \Delta H^{\circ}_{h/b \text{ issiqligi dast.moddalar}}$$



Reaksiyaning issiqlik effektini hisoblang.

$$\Delta H^{\circ}_{x/b \text{ issiqligi}} \text{Al}_2\text{O}_{3(k)} = -1675,1 \text{ kJ/mol}$$

$$\Delta H^{\circ}_{x/b \text{ issiqligi}} \text{SO}_{3 \text{ gaz}} = -396,1 \text{ kJ/mol}$$

$$\Delta H^{\circ}_{x/b \text{ issiqligi}} \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 = -3434,0 \text{ kJ/mol}$$

$$\Delta H^{\circ}_{\text{reaksya}} = (\Delta H^{\circ}_{h/b \text{ issiqligi}} \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3) - (\Delta H^{\circ}_{x/b \text{ issiqligi}} \text{Al}_2\text{O}_3 + 3\Delta H^{\circ}_{x/b \text{ issiqligi}} \text{SO}_3) = -3434 - [-1675,1 + 3(-396,1)] = -570,6 \text{ kJ/mol}$$

2) Kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti reaksiyaga kirishuvchi moddalar yonish issiqlik effektlari yig'indisidan reaksiya mahsulotlari yonish issiqlik effektlari yig'indisini ayirmasiga teng.

Yonish issiqligi deb 1 mol moddani oddiy oksidlarga yonishida ajraladigan issiqlik miqdori tushuniladi.


$$\Delta H^{\circ}_{\text{reaksya}} = \Delta H^{\circ}_{\text{yonish is.dastl.moddalar}} - \Delta H^{\circ}_{\text{yonish iss.maxsulotlar}}$$

Kislota va asos reaksiyaga kirishib, 1 mol suv hosil bo'lishida ajralib chiqqan issiqlik miqdori neytrallanish issiqligi deyiladi. Kuchli kislota va kuchli asoslarning suyultirilgan eritmaları reaksiyaga kirishganda neytrallanish issiqligi standart sharoitda o'zgarmas qiymatga ega.




Ko'pdan ko'p moddalarning standart sharoitdagi hosil bo'lish va yonish issiqliklari jadvallarda berilgan bo'ladi. Shu qiymatlar asosida juda ko'p jara'yonlarning issiqlik effektlarini hisoblash mumkin.

1) erish jarayoni




$$\Delta H^{\circ} = |(-46,37 + 3(-166,81))| - (-339,5) = -147,30 \text{ kJ/mol}$$

2) fazaviy o'zgarishlar jara'yoni uchun




$$\Delta H^{\circ} = 108,3 - 0 = 108,3 \text{ kJ/mol}$$

3) Ikki atomli molekulalarning atomlarga parchalanish jarayoni uchun



$$\Delta H_{\text{dissotsilanish}} = 2(121,3) - 0 = 242,6 \text{ kJ/mol}$$

4) ionlanish jarayoni uchun



$$\Delta H_{\text{ionlanish}} = 1536,2 - 217,98 = 1318,22 \text{ kJ/mol}$$

Kalorimetriya. Kimyoviy va fizik jarayonlarning issiqlik effektini aniqlash.

Kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti $V=\text{const}$ yoki $p=\text{const}$ bo'lgan holatda dastlabki va oxirgi mahsulotlar harorati bir xil bo'lganda kengayish ishidan boshqa ish amalga oshmaganda kimyoviy reaksiyada ajralgan yoki yutilgan maksimal ish tushuniladi.

Reaksiyaning yoki jarayonning issiqlik effekti(erish, neytrallanish va b.) va'lum massadagi tuzning erish issiqligini o'lchas orqali aniqlanishi mumkin. Buning uchun kalorimetr yordamida (rasm 1) aniq massaga ega bo'lgan tuzning erishidagi temperature o'zgarishi topib olinadi. Bunda:

$$\Delta h_i = C_k \cdot \Delta T_i$$

C_k kalorimetrik sistemaning issiqlik sig'imi.


$$C_k = \sum C_{p_i} \cdot m_i$$

C_{p_i} -kalorimetrik sistemani tashkil etgan materiallar: aralashtirgich, termometr, stakan, erituvchi va b. larning solishtirma issiqlik sig'implari.

$\cdot m_i$ -texnik tarozida o'lchanadigan sistemaning qismlari. Tuzning molyar issiqlik sig'imi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta H_m = \frac{\Delta h_i}{m_1 \cdot M_1}$$


m_1 -tizning massasi, M_1 - tuzning molyar massasi, g/ mol.



4.3-rasm.Kalorimetrning tuzilishi.

Hisoblarda ΔH_m isorasi etiborga olinadi. Issiqlik effekti aniqlanuvchi modda kalorimetrga solinadi. Keyin erish jarayinida temperatura ozgarishi topiladi. Uning aralastirgan holatda harorati o'lchanadi. So'ngra tuz eritilib harorati o'lchanadi. Temperaturalar ozgarishi asosida issiqlik sig'imi va issiqlik effekti hisoblanadi.

Kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti³ maxsus kalorimetrik bombalar yordamida aniqlanadi (2-rasm).



4.4-rasm. Kalorimetrik bomba.

ENTROPIYA. IZOBARIK-IZOTERMİK POTENSIAL³


Mikrozarrachalarga betartib harakat xosdir. Faraz qilaylik, biriga azot ikkinchisiga kislorod to'latilgan ikki idish bir-biri bilan tutashtirilgan bo'lsin. Kran ochilsa, gazlar bir-biri bilan aralasha boshlaydi. Aralashish azot va kislorod ikkala idishda bir tekis taqsimlanguncha davom etadi. Bu jarayon hech qanday energiya o'zgarishisiz o'z o'zidan sodir bo'ladi. Lekin teskari jarayon ya'ni gazlarning qaytatdan kislorod va azotga ajralishi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Chunki gazlar aralashib ketganda ularning betartibligi katta bo'ladi, ajralgan holat esa tartibli holatdir.

Har qanday sistema o'zining betartibligini oshirishga intiladi. Tartibsizlikning miqdor o'lchovini belgilaydigan holat funktsiyasi entropiya deyiladi va S bilan belgilanadi. Moddaning entropiyasi moddaning shu holatda turish ehtimolligining logarifmiga to'g'ri proporsionaldir.

$$\Delta S = k \ln W$$

Bu tenglama Bolsman tenglamasi deyiladi. k - Bolsman doimiysi. W - shu holatning ehtimolligi.

³ H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.



4.5-rasm. Kimyoviy muvozanatni namoyish etuvchi jarayonlar.

Entropiyaning mutloq qiymatini o'lchab bo'lmaydi. Faqat sistema bir holatdan ikkinchi holatga o'tgandagi entropiya o'zgarishini o'lchash mumkin. Izolirlangan sistemada entropiyaning o'zgarishi ΔS quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$\Delta S = R \ln \frac{\text{2 holatdagi tartibsizlik}}{\text{1 holatdagi tartibsizlik}} \quad \Delta S_{\text{sur}} = -\frac{q_{\text{sys}}}{T}$$

Entropiyaning o'lchov birligi - j/mol*K.


Modda qattiq holatdan suyuq holatga, suyuq holatdan gaz holatga o'tganda uning entropiyasi ortadi. Bunda entropiya o'zgarishini:

$$\Delta S = \Delta Q/T \quad \text{formula bilan hisoblanadi.}$$

ΔQ –issiqlik miqdori o'zgarishi;

T-absolyut temperatura.

	Na	H ₂ O	C(graphite)
$S^\circ(s \text{ or } l)$:	51.4(s)	69.9(l)	5.7(s)
$S^\circ(g)$:	153.6	188.7	158.0




4.6-rasm. Haroratga qarab turli holatlarda entropiyaning o'garishi.

Misol: 1 mol muzning erishida entropiya o'zgarishini aniqlang. Q - muzning erish issiqligi, 6016,432 j/mol

$$\Delta S = 6016,432/273,15 = 22 \text{ j/mol}$$

$$T = 273,15$$

Sistema hajmi ortsa, uning entropiyasi ortadi.




$$\Delta S_1 \Delta S_2 \Delta S_2 > \Delta S_1 \text{ demak, } \Delta S > 0$$



$$\underset{4v}{1v} = \underset{2v}{2v}$$



Sistemaning hajmikamayyapti, ya'nientropiyasikamayayapti $\Delta S < 0$

3) Agar reaksiyada sistemaning hajmi o'zgarmasa, uning entropiyasi ham o'zgarmaydi.





$$\underset{1v}{1v} \underset{1v}{1v} \underset{2v}{2v} \quad \Delta S = 0$$


Kimyoviy jarayonlarning o'z-o'zidan sodir bo'lishiga ikki narsa ta'sir qiladi. 1-dan sistema o'zining energiyasini kamaytirishga intiladi. Zarrachalar o'zaro birikib yirik zarrachalar hosil qilishga intiladi. Chunki ko'p birikish reaksiyalari ekzotermik reaksiyalardir.



Bu reaksiyalar to'g'ri yo'nalishda boradi, chunki bunda sistemaning entalpiyasi kamayadi $\Delta S < 0$.

2-dan yirik zarrachalar parchalanishga intiladi, chunki bunda ularning entropiyasi ortadi.





Calculating Standard Free Energy Changes


Har ikkala faktorni reaksiya yo'nalishiga ta'sirini o'zida mujassamlashtirgan holat funksiyasi Gibbs energiyasi deb ataladi va ΔG harfi bilan belgilanadi. U entalpiya va entropiya bilan quyidagicha bog'langan:

$$\Delta G = \Delta H - T \Delta S$$

Izobar-izotermik jarayonlarda Gibbs energiyasining o'zgarishi ΔG (izobar-izotermik potentsial)


$$\Delta G = \Delta H - T \Delta S \quad G = H - T S$$

formula bilan aniqlanadi.



The Free Energy Change and the Work a System Can Do

$$\Delta G = w_{\max}$$



$P = \text{const}$, $T = \text{const}$ bo'lganda kimyoviy reaksiyalar Gibbs energiyasi kamayadigan tarafdin o'z-o'zidan boradi.

- 1) $\Delta G < 0$ bo'lsa, reaksiya to'g'ri yo'nalishda boradi.
- 2) $\Delta G > 0$ bo'lsa, reaksiya to'g'ri yo'nalishda o'z-o'zidan bormaydi.
- 3) $\Delta G = 0$ bo'lsa, reaksiya kimyoviy muvozanat holatida bo'ladi.

Kimyoviy jarayonlarning o'z-o'zicha borishi quyidagi holatlarda sodir bo'lishi mumkin: a) agar jarayon ekzotermik bo'lsa


$\Delta H < 0$ bunda $\Delta G = -\Delta H - T \Delta S < 0$ chunki $T \Delta S$ doim 0 dan katta bo'ladi.

b) agar jarayon endotermik bo'lsa $\Delta H > 0$, lekin $|\Delta H| < T \Delta S$ bo'lganda $\Delta G = \Delta H - T \Delta S < 0$ Entalpiyaning ortishi temperatura o'zgarishi bilan boshqariladi. Odatda bu jarayon gazlar ishtirokida amalga oshadi.

Agar $\Delta H > 0$, lekin $|\Delta H| > T \Delta S$ $\Delta G = -\Delta H - T \Delta S > 0$ izobar – izotermik potensial qiymati noldan katta bunda jarayon o'z-o'zicha amalga oshmaydi.

Standart sharoitda 1 mol moddani oddiy moddalardan hosil bo'lish standart Gibbs energiyasi $\Delta G_{h/b}^0$ bilan belgilanadi. Ayni jarayon uchun standart Gibbs energiyasini o'zgarishi mahsulotlarning standart Gibbs energiyalari yig'indisidan dastlabki moddalarning Gibbs energiyalari yig'indisini ayirmasiga teng bo'ladi.

$\Delta G_{h/b}^0 = \Delta G_{oh/b}$ mahsulotlar yig'indi - $\Delta G_{h/b}^0$ dastlabki moddalar yig'indi



$$\Delta G_{h/b}^0 = |(-394,47 + 0) - (-137,16 + (-228,66))| = -28,634 \text{ kJ/mol}$$

$\Delta G_{h/b}^0$ ning qiymati jarayonning o'z-o'zicha borish ehtimolligini ko'rsatadi. Lekin jarayonning tez yoki sekin borishini baholashga imkon bermaydi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Silberberg Martin S., Principles of general chemistry/ Martin S.Silberberg-3-ed.Published McGraw Hill, New York, 2013. P.792.
2. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/
P.W.Atkins, T.L.Owerton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
4. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
5. H.R.To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganikkimyo ("Farmasiya" -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520b.
6. H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
7. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

Jonlantirish uchun savollar:

- 1. Termokimyo.**
- 2. Termokimyoviy tenglamalar.**
- 3. Gess qonuni.**
- 4. Termokimyoviy hisoblashlar.**
- 5. Izobar-izotermik potentsial.**
- 6. Kalorimetrning tuzilishi.**

2-ma'ruza

3.2. Kimyoviy reaksiyalar tezligi va mexanizmi. Kataliz. Kimyoviy muvozanat.

Noorganik reaksiyalarning borish shartlari. Nanotexnologiya, nanofan va nanozarrachalar

Ma'ruzaning maqsadi: talabalarni kimyoviy reaksiyalarning borish shartlari u nanozarrachalarning hosil bo'lish shartlari bilan tanishtirish.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. Reaksiyaning tezlik tushunchasi, tezlik birligi va unga ta'sir etuvchi faktorlar;
2. Reaksiya tezligiga konsentratsiyani ta'siri. Massalar ta'sir qonuni.
3. Reaksiya tezligig a haroratni ta'siri. Vant –goff qoidasi. Arrenius tenglamasi. Aktivlanish energiyasini aniqlash.
4. Oddiy va murakkab reaksiyalar. Reaksiyalarning molekulyarligi va tartibi. Reaksiya teribini aniqlash. Reaksiya taribi va molekulyarligini mos kelmaslik holatlari.
5. Noorganik reaksiyalarning boorish shartlari.
6. Nanofan, nanotexnologiya va nanozarrachalar.
7. Nanozarrachalar olishda noorganik kimyo usullari.
8. Mavzunung farmatsiyadagi ahamiyati.

Tayanch so'zlar: kimyoviy reaksiyalarning tezligi, haqiqiy tezlik, gomogen va geterogen reaksiyalrning tezligi, reksiya tezligining moddalar konsentratsiyasi, haroratga, katalizatorga bo'liqligi, oddiy va murakkab reaktsiyalar, reaksiyalarning tartibi, Arrenius tenglamasi, faollanish energiyasi, kataliz, katalizatorlar, fermentlar, katalizatorning ta'sir qilish mexanizmi. Nanjtexnologiya, nanofan, nanozarrachalar.


Kimyoviy reaksiyalarning tezligi va mexanizmi. Kimyoviy muvozanat

Kimyoviy reaksiyalar gomogen va geterogen reaksiyalarga bo'linadi. Gomogen reaksiyalar bir jinsli muhitda boradi (masalan gaz fazada yoki eritmada). Geterogen reaksiyalar har xil fazalarda boradi (masalan qattiq va suyuq, qattiq va gaz, suyuq va gaz).

Kimyoviy reaksiyalarning tezligi deganda hajm birligida vaqt birligi ichida sodir bo'ladigan to'qnashishlar soniga aytiladi. Reaksiya tezligi odatda reaksiyaga kirishayotgan yoki hosil bo'layotgan moddalardan birortasining kontsentrasiyasini vaqt birligi ichida o'zgarishi bilan xarakterlanadi.

Reaksiyaning tezligi to'g'risida sistemaning biror-bir xossasi o'zgarishi (elektr o'tkazuvchanligi, rangi, bosimi, spektri) bilan fikr yuritish mumkin. Agar t_1 vaqtdan t_2 vaqtgacha reaksiyaga kirishuvchi moddalardan birortasining kontsentrasiyasi S_1 dan S_2 ga o'zgarsa, t_1 dan t_2 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida reaksiyaning o'rtacha tezligi :

$$V = \pm$$




to'qnashadi. Lekin to'qnashishlarning hammasi ham kimyoviy reaksiyaga olib kelavermaydi, barcha to'qnashishlarning oz qismigina reaksiyaga olib keladi.

Vaqt birligi ichida ro'y beradigan to'qnashishlarning soni o'zaro to'qnashayotgan zarrachalarning kontsentrasiyalariga proporsional bo'ladi.

Bu son qanchalik katta bo'lsa, moddalar orasidagi o'zaro ta'sir shunchalik kuchli bo'ladi, ya'ni kimyoviy reaksiya shunchalik tez boradi. Reaksiya tezligiga kontsentrasiyaning ta'siri massalar ta'siri qonunida o'z ifodasini topgan.

Massalar ta'siri qonuni. 1867 yilda norvegiyalik olimlar Guldberg va Vaagelar tomonidan ta'riflangan: "Kimyoviy reaksiya tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalar kontsentrasiyalari ko'paytmasiga to'g'ri proporsional".



reaksiya uchun

$$V = k [A]^a [B]^b$$

V -reaksiya tezligi; $[A]$; $[B]$ - reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiyasi; k -proporsionallik ko'effitsientlar bo'lib, tezlik konstantasi deb ataladi.

Tezlik konstantasi reaksiyaga kirishuvchi moddalar kontsenrasiyalari 1 gatengbo'lgan paytdagi reaksiyaning tezligini ko'rsatadi. Tezlik konstantasining qiymati moddalarning tabiatiga, haroratga, katalizatorga bog'liq bo'lib, ularning kontsentrasiyalariga bog'liq emas.

Reaksiya tezligiga haroratning ta'siri. Kimyoviy reaksiya sodir bo'lishi uchun molekulalar bir-biri bilan to'qnashishlari kerak. Lekin har bir to'qnashish ham reaksiyaga olib kelavermaydi. Masalan, vodorod va kislorod aralashmasi uzoq vaqt saqlanganda ham ular orasida sezilarli reaksiya sodir bo'lmaydi. Reaksiya sodir bo'lishi uchun dastlabki moddalar molekulalaridagi atomlar orasidagi bog' bo'shashishi yoki uzilishi darkor. Buning uchun molekulalar ma'lum energiyaga egabo'lishlari lozim.

Molekulaning reaksiya sodir bo'lishi uchun zarur bo'lgan energiya qiymatiga faollanish energiyasi E_a deyiladi. Bunday energiyaga ega bo'lgan molekulalar faol molekulalar deyiladi. Harorat ortishi bilan faol molekulalar soni ortadi, shu sababli reaksiya tezlashadi. Reaksiya tezligining haroratga bog'liqligi Vant-Goff qoidasi bilan ifodalanadi: "Harorat har 10°C ga oshirilganda reaksiya tezligi 2-4 marta tezlashadi".

E_a - faollanish energiyasi;

A - doimiy son;

e - natural logarifm asosi (2,31);

R - universal gaz doimiysi (8,31 j/mol K);

T - mutloq harorat, K.

Kimyoviy reaksiyalar tezligining temperaturaga bog'liqligi tajribalar asosida Arrenius tomonidan topilgan bo'lib quyidagicha ifodalanadi

$$\ln k = -B/T + C$$

B va C - temperaturaga bog'liq bo'lmagan doimiy sonlar, ular reaksiyaga kirishuvchi moddalarning tabiiati bilan aniqlanadi.


Bu tenglama quyidagi ko'rinishga ega(rasm 2.2)

$$\ln k = -E_a/RT + C$$


tenglama to'g'ri chiziq tenglamasi bo'lib grafik echimga ega.

Faollanish energiyasi qancha kichik, harorat qancha yuqori bo'lsa, reaksiya shuncha tezlashadi. Faollanish energiyasi kichik bo'lgan reaksiyalarning ($E_0 < 40$ kJ/mol) tezligi juda katta bo'ladi. Bunga misol qilib eritmalarda ionlar orasida boradigan reaksiyalarni keltirish mumkin.


Faollanish energiyasi katta ($E_0 > 120$ kJ/mol) bo'lgan reaksiyalarning tezligi⁵ juda kichik bo'ladi. Masalan, oddiy sharoitda azot va vodorod o'rtasidagi reaksiya:



Agar faollanish energiyasining qiymati o'rtacha ($40 < E < 120$ kJ/mol) bo'lsa, bu reaksiyalar o'rtacha tezlikda borib, ularning tezliklarini o'lchash mumkin.




2.2-rasm. $\ln K$ ni $1/T$ orasidagi bo'g'liq



⁵H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.73-83 b.

Reaksiya modda molekulasidagi atomlar orasidagi bog'ning bo'shashishi yoki uzilishi hisobiga boshlanadi. Bunda oraliq faollangan kompleks hosil bo'ladi. Bu oraliq kompleks faollanish energiyasini yutish hisobiga boshlanadi. Faollashgan kompleks beqaror bo'lib, tezda parchalanadi va reaksiya mahsulotlari hosil bo'ladi. Bunda energiya ajralib chiqadi. Buni quyidagicha tasvirlash mumkin.




Faollanish energiyasining ahamiyati katta bo'lib, u o'z-o'zidan borishi mumkin bo'lgan ($\Delta G < 0$) reaksiyalarni to'xtatishi mumkin, ya'ni ular yo'lida to'siq bo'ladi.

Reaksiyalarning molekulyarligi va tartibi


Kimyoviy reaksiyada ishtirok etayotgan molekulalar soni reaksiyaning molekulyarligini belgilaydi. Kimyoviy reaksiyalar molekulyarligi bo'yicha monomolekulyar, bimolekulyar va tri molekulyar reaksiyalarga bo'linadi. Uchtadan ortiq zarrachalarning bir paytni o'zida to'qnashishi deyarli sodir bo'lmaydi.

Massalar ta'sir qonunini qo'llaganda reaksiya konsentrasiyaning nechanchi darajasiga bog'liqligini ko'rsatuvchi son reaksiyaning tartibini ko'rsatadi.

Bir molekulyarli reaksiyalar:



A First-order reaction



B Second-order reaction

2.3-rasm. Reaksiya tartibini aniqlash.

Ikki molekulyarli reaksiyalar:




Uch molekulyarli reaksiyalar:



Reaksiyaning molekulyarligi va tartibi o'zaro, agar reaksiyaga kirishuvchi moddalardan biri juda ko'p miqdorda olinsa (masalan saxarozaning gidrolizi) va faqat bir moddaning konsentrasiyasi o'zgarsa molekulyarlik va tartib mos kelmaydi. Hatto nolinchii tartibli reaksiyalar ham uchraydi. Ularda kimyoviy reaksiya

konsentrasiyaga bog'liq bo'lmaydi. Moddalar konsentratsiyasini vaqtga bog'liqlik grafigi ham tartibni aniqlashga imkon beradi (2.3-2.4 rasmlar).


Kimyoviy reaksiyalarni oddiy va murakkab reaksiyalarga bo'lish mumkin. Agar reaksiya faqat bir bosqichda borsa, oddiy reaksiya deyiladi. Parchalanish reaksiyalari oddiy reaksiyalarga misol bo'ladi.





2.4- rasm. nolinch tartibli reaksiyalar grafigi

Ko'pchilik reaksiyalar murakkab reaksiyalar bo'lib, ular bir necha bosqichda sodir bo'ladi. Murakkab reaksiyalar parallel, ketma-ket, tutash, zanjir reaksiyalarga bo'linadi.

Parallel reaksiyalar bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda boradi.




Ketma-ket reaksiyalar bosqichma-bosqich boradi:




Tutash reaksiyalarda ikki reaksiyadan biri ikkinchisining borishini ta'minlaydi. Masalan: HJ bilan H_2CrO_4 o'zaro reaksiyaga kirishmaydi. Lekin ularga ozroq FeO

qo'shilsa, FeO oksidlanishi bilan birga HJ ham oson oksidlanadi.



Zanjir reaksiyalar bir-biri bilan ulangan ketma-ket, parallel, tutash reaksiyalar tizimidan tashkil topgan hamda erkin radikallar ishtirokida boradigan bosqichlardan iborat reaksiyalardir.


Vodorod va xloridan vodorod xlorid hosil bo'lish reaksiyasi eng oddiy zanjir reaksiyaga misol bo'ladi.




KATALIZ


Kimyoviy reaksiyalarning tezligi na faqat kontsentrasiya va haroratning ortishi bilan emas balki katalizator qo'shish bilan ham ortadi. Kimyoviy reaksiyaning tezligini oshirib, o'zi reaksiya mahsulotlari tarkibiga kirmaydigan moddalar katalizatorlar deyiladi. Katalizator ishtirokida reaksiyaning tezligini ortishi kataliz deyiladi. Kataliz 3 xil bo'ladi: 1) gomogen, 2) geterogen, 3) fermentativ.

Gomogen katalizda katalizator va reaksiyaga kirishuvchi moddalar bitta fazada (gaz yoki suyuq) bo'ladi. Masalan:



Agar faqat gazlar ishtorokida ham amalga oshadi:








2.5-rasm. Aktivlanish energiyasini ifoda etuvchi grafik


Katalizator reaksiyaning issiqlik effektini o'zgartirmaydi. To'g'ri va teskari reaksiyalarni bir xilda tezlashtirib kimyoviy muvozanat hosil bo'lishini tezlashtiradi.

KIMYOVIY MUVOZANAT. QAYTAR VA QAYTMAS REAKTSIYALAR. LE-SHATELE PRINSIPI


Barcha kimyoviy reaksiyalarni ikkiga qaytar va qaytmaz reaksiyalarga bo'lish mumkin. Faqat bir yo'nalishda boradigan reaksiyalar qaytmaz reaksiyalar deyiladi. Reaksiya natijasida ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiqsa, gaz modda, cho'kma yoki oz dissotsilanadigan moddalar hosil bo'lsa, bunday reaksiyalar amalda qaytmaz bo'ladi:



Birvaqtning o'zida ikki qarama-qarshi yo'nalishda boradigan reaksiyalar qaytar reaksiyalar deyiladi. Misol:



Reaksiya boshlangan paytda to'g'ri reaksiyaning tezligi katta, teskari reaksiyaning tezligi kichik bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan to'g'ri reaksiyaning tezligi kamayib teskari reaksiyaning tezligi ortib boradi. Ma'lum vaqtdan so'ng har ikkala reaksiya tezliklari tezlashadi.




reaksiya uchun tezlikning o'zgarishi grafigi

$$V_1 = k_1[A]^a[B]^b \quad V_2 = k_2[C]^c[D]^d \quad V_1 = V_2$$

$$K = \frac{[C]^c[D]^d}{[A]^a[B]^b}$$

To'g'ri va teskari reaksiyalar tezliklari tenglashgan holat kimyoviy muvozanat deyiladi. Moddalarning muvozanat vaqtidagi konsentrasiyalari

muvozanat kontsentrasiyasi deyiladi. Yuqoridagi ammiak hosil bo'lishi reaksiyasi uchun to'g'ri va teskari reaksiyalar




K - muvozanat konstantasi.

Muvozanat holatida reaksiya mahsulotlari kontsentrasiyalari ko'paytmasining dastlabki moddalar kontsentrasiyalari ko'paytmasiga nisbati doimiy son bo'lib, muvozanat konstantasi deyiladi.

Muvozanat konstantasi moddalarning tabiatiga, haroratga bog'liq bo'lib, kontsentratsiyaga, bosimga va katalizatorga bo'liq emas.

Geterogen reaksiyalarda qattiq moddalar kontsentrasiyasi muvozanat konstantasi ifodasiga kirmaydi.




Kimyoviy reaksiyalarning muvozanat konstantasi asosida izobarik izotermik potensial hisoblanishi mumkin.

$$\Delta G^\circ = -RT \ln K$$

Ko'rinib turibdiki, ΔG° qiymati kichik bo'lishi uchun K katta qiymatga ega bo'lishi kerak. Demak, muvozanat jarayonida mahsulotlarning muvozanat konsentrasiyalari ko'p bo'lsa izobar izotermik potensial kichik qiymatga ega bo'ladi. ΔG° ning musbat qiymatlariga muvozanat holatining dastlabki moddalarning konsentrasiyalari yuqori bo'lgan holati mos keladi. Muvozanat konstantasi haroratga boglangan. Endotermik jarayonlarda temperaturani ortishi muvozanat konstantasi qiymati ortishiga olib keladi. Ekzotermik jarayonlarda temperature ortsa muvosanat konstantasi kamayadi.

Le-Shatele printsipi. Muvozanatda turgan sistemaga biror bir ta'sir ko'rsatilsa, muvozanat buziladi va ma'lum vaqtdan so'ng yangi muvozanat qaror topadi. Bu jarayon muvozanatning siljishi deyiladi.

Muvozanatni qay tarafga siljishini Le-Shatele printsipi aniqlab beradi: Muvozanatda turgan sistemaga biron-bir tashqi ta'sir ko'rsatilsa, muvozanat shu ta'sirni kamaytiruvchi reaksiyaning borishi tarafga siljiydi.



Ushbu reaksiyada azot, vodorod kontsentrasiyalarining oshishi hamda ammiak kontsentrasiyasini kamayishi muvozanatni o'ngga ammiak hosil bo'lishi tarafga siljishiga olib keladi. Aksincha azot yoki vodorod kontsenrasiyasini kamaytirish hamda ammiak kontsentrasiyasini oshirish muvozanatni chap tarafga siljitadi.

Harorat oshganda muvozanat endotermik reaksiyaning borishi tarafga ya'ni ammiakning parchalanishi tarafga siljiydi. Bosim oshganda esa, muvozanat gaz

modda molekulari son kamayadigan tarafga ya'ni ammiak hosil bo'lishi tarafga siljiydi.

Kimyoviy reaksiyalarning mexanizmi

Ta'sirlashuvchi moddalarning tabiatiga va sharoitga ko'ra kimyoviy reaksiyalarda **atomlar, molekular, radikallar va ionlar** ishtirok etadi.

Erkin radikallar molekularning parchalanishidan hosil bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi. Masalan, $\cdot\text{OH}$ (H_2O molekulasining qismi), $\cdot\text{NH}_2$ (NH_3 molekulasining qismi), $\cdot\text{HS}$ (H_2S dan hosil bo'lgan), Erkin radikallarga erkin atomlar ham kiradi.

Erkin radikallarning reaksiya qobiliyati juda yuqori, lekin ular ishtirok etadigan reaksiyalarning aktivlanish energiyasi kichik ($0-40 \text{ kJ/mol}$).

Erkin radikallar hosil bo'lishi qizdirish, yoritish, yadroviy nurlanish, mexanik ta'sirlar hamda elektr razryadlari ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Ionlar ishtirokida ketadigan reaksiyalarning aktivlanish energiyasi **$0-80 \text{ kJ/mol}$** ni tashkil etadi.

Molekularlar ishtirokida ketadigan reaksiyalarning faollanish energiyasi juda yuqori bo'ladi. Masalan, H_2 hosil bo'lish reaksiyasining aktivlanish energiyasi **150 kJ/mol** ga teng.

Nanofan, nanotexnologiya va nanozarrachalar⁶

Odatdagi kimyoviy materiallar 100 nm katta bo'lgan holatda nanokimyo $0,1$ dan 10 nm gacha bo'lgan o'lcham orasida ishlaydi. Shunday o'lchamdagi moddalarda alohida fiziko-kimyoviy xossalar paydo boladiki, nanomateriallarga bolgan qiziqish, ularning texnologiyasi va shunday moddalarning yaratilishi va xossalarining ozgarishi hamda qo'llanilishi istiqbolga ega.

Moddaning elementar tarkibi atomlar, molekular, elementar tuzilmalar - elektron tuzulish moddaning real xossalarini (masalan hajmi, massasi) belgilashda qanchalik ahamiyatga egaligini kimyogarlar yaxhi biladilar. Moddaning struktura tuzilishi uning hajmiy xossalariga ta'sir etib o'tazgich va yarim o'tkazgichlarning asosiy xossalarini belgilaydi. Olimlarni mikrozarrachalar (10^{-6} m , 1 mkm , 1 nm) juda qiziqtirgan. Bu moddalarning ko'p xossalari kutilganidan boshqacaha bo'lib qolishi orgnilgan. Asosiy strukturadan chetlanish qattiq moddada chetlanish chiziqlari, jismda ozgarishlar bo'lishiga olib keladi. Masalan, kristallarning qismlarida bir-biriga nisbatan surilgan, qochgan qismlari ko'p uchraydi. Bunday ozgarishlar moddaning mustahkamligi, kristallarning o'sishi, elektr o'tkazuvchanligi va boshqa fizik xossalarida ozgarishga olib keladi.

⁶Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.

Nanomodda 1 dan 100 nm gacha bo'lgan molekulyar va sochiluvchan moddalardagi xossalardan keskin farq qiluvchi har qanday jism tushuniladi. Nanofan 1 dan 100 nm gacha bo'lgan jismlarning xossalarini o'rganuvchi fandır.

Nanotexnologiya bo'lsa kerakli maqsadlarda nanoo'lchamdagi jismlarning olinishini ta'minlaydigan materillarni ishlash va olish majmualari texnologiyasidir.

Shunday qilib, «nanomaterial» 1 dan 100 nm gacha o'lchamdagi o'lchamiga bogliq yangi xossalarga ega qattiq jism hisoblanadi. Shunigdek, nanofan nano chegaradi jismlarda paydo bo'ladigan yangi effektlarni orgnib, nanotexnologiya bo'lsa nanometrlilik chegaradi moddalarni olish texnologiyalari bilan chagaralanadi.

Uzida bir-biridan 0,3 nm uzoqlikda joylashgan va o'zida asos juftlarning ketma-ket kelish tartibi orqali ma'lumot to'plash xossasiga ega bo'lgan DNK eng mukammal nanojismlardan biri hisoblanadi. Bitilgan DNK molekulasi ma'lumotlar zichligi 1 Tb sm^{-2} ($1 \text{ tb } 10^{12} \text{ bit}$)ga teng ma'lumot beradi.

Quyosh energiyasini biologik foydali kimyoviy energiyaga aylantiradigan, alohida olingan elektrik zaryadni amalga oshiradigan fotosintez ham yana biologik nanotexnologiyaga misol bo'la oladi. Fotogalvanik materiallarr yordamida quyosh energiyasini elektrik energiyaga aylantirish jarayonida nanokatalizatorlar ishlatilishi quyosh energiyasini nanochegerada o'zgartirish mumkinligini ko'rsatadi.

Insonlar 100 yillar mobaynida bunday fan elementlaridan sanatkorlik bilan foydalanganlar.

Masalan, rangli shisha olishda, agar shishaga oltin tuzlari qo'shilca shishaning rangi qizil bo'ladi, agar kumush tuzlari qo'shilsa shishaning rangi sariq bo'lishi qadimdan ma'lum.

Rangli shishada metal atomlari nanozarrachalar (oldin kolloid zarrachalar deyilar edi) hosil qilib, eritmaning optik xossalari ularning o'lchamlariga bog'liq bo'ladi. Metall holatdagi nanopigmentlar medisina biotexnologiyasi markazi bo'lib, ular DNK va boshqa nanozarrachalarning belgilashda ishlatiladi. Boshqa ananaviy nanotexnologiyaga misol sifatida yorug'likka sezgir kumush galogenid emulsiyalarini olish mumkin. Ular nanozarracha holatdagi uglerod granulari bol'b fotografiyada, avtomobil shinalari va tipografik bo'yoqlar ilish maqsadida ishlatiladi.

Nanotexnologiya fan va texnologiya sifatida XX asrning 2-yarmida shakllana boshladi. Gerda Binning va Genrix Porer nusxa ko'chiruvchi tunnel mikroskopi yaratgandan so'ng bu sohada katta o'zgarish ro'y berdi. Keynchalik nusxa ko'chirish zondi(uchi yoki ignasi) sirtida atomlarning qayta guruhlashga imkon berdi. Bu esa nanoo'lchamdagi tuzilmalarni tavsiflash imkonini va nanozarrachalar qurish va namoyish etish imkoniyatini yaratdi. Nanofan va nanotexnologiya ko'pdan ko'p mutaxassislikka bog'liq va keng chegarani qamrab oladi. Bizni maqsadimiz bu maydonda nanojismlarni tushunish uchun noorganik kimyoning muhim fan ekanligini bayon etishdir. Chegarali effektlar (конфайнмента эффекты) nanofanlagi eng asosiy narsa bo'lib u nano holatni ko'rsatishda poydevor bo'ladi. Nanozarrachalarning yangi optik xossalari xossalari

ma'lumot olish, biologik tahlilda energetik texnologiyalar ishlab chiqishda kerak bo'ladi.

Kvant nuqtalardagi ranglar zarralarning o'ralardagi ochilishida yangi optik xossalar paydo bolishi hamda kvantlanishdagi turlicha va ichki o'tishlarda yuzaga keladi.

Yarim o'tkazgich nanozarrachalarning optik xossalari batafsil tekshirildi. Bunday zarrachalar kvant nuqtalar deyiladi, bunday effect uch o'lchamli yopiq nuqtalar sifatida muhim ahamiyatga ega. Yarim o'tkazgichlarda elektronlar juda kichik joylarda ushlanib ikkita muhim effekt yuz beradi. Birinchidan, energetik tirqish hajmiy kristallarda kuzatish jarayonida keskin ortadi. Bu maydondagi zarrachalar kabi, ikkinchidan, elektronlarning energiya qatlami Lumos (va bo'sh teshiklar Homos) kvantlanadi. Ikkala effect ham kvant nuqtalarning optik xossalarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Juda kichik sohada elektronlarning ushlanishi va teshiklarning bo'lishi materiallarni yopiq joyga tikish imkoniyatini beradi.

Buni o'zga xos tarafi ayni materialning kritik o'lchami kamayib, yopiq zonaning o'lchami ortib boradi. Elektronlarning valent holati va o'tkazuvchanlik holatida o'tishlar sodir bo'ladi. Zonalar orasidagi o'tishdagi optik to'lqin uzunligi nuqtalar o'lchamiga bog'liq va zarralarning nurlanishi ularning o'lchamini aniqlash yordamida o'lchanadi. Kvant nuqtalarga misol CdSe materillarini olish mumkin. Cd-Se nanozarrachalarning o'lchamini o'zgartirib ko'zga ko'rinadigan nurlar sohasini yopish mumkin. Bu ulardan yorug'lik diodlari va lyumunitsent texnologiyalarda tasvir olish uchun ideal imkoniyat beradi.

Kvant nuqtalar xromofor sifatida ishlatilishi har xil biologik ob'ektlardagi tahlillarda (biotags) turli o'lchamdagi nuqtalar sifatida aniqlanadi. Bioaplikasiyalarning o'ziga xos tarafi optik nurlanish tufayli bir nechta QD (quantum dots) xromoforlarning keng polosadagi qo'zg'lishi tufayli bir paytni o'zida bir qancha biologik analitlarni turlicha optik nurlanishi orqali aniqlash mumkin. Ushbu holatlar ko'krak suti bezi to'qimalari saratonida va asab toqimalari kichik molekulaaniq organellarga qarab qilgan harakatida foydalanilgan. Infra – qizil fotopriyomniklar, datchiklar, lazerlarning ishlashida infra-qizil

Dielektrik muhitda dispergatsiyalangan metallik nanozarrachalarning rangi metal-dielektrikdan sirtdagi lokallashgan plazmon umumiy elektronlar tebraishidan farq qiladi. Sirtdagi oltin va kumushning yunilish spektrlarining ravshanligi spektrning optic sohasida o'zgarishga olib keladi, shu tariqa metallik nanozarrachalar pigmentlar sifatida ishlatilishi mumkin. Oltinning metallik nanozarrachalari biologik va kimyoviy datchikla, xafli saratonda "aqlli bombalar", fluorescent display materiallar va optic kalitlar tayorlashda ishlatiladi. Bunday tavsiyalarning ishlab chiqilishi fotosezgir xromofor guruhlar paydo bolishiga asoslangan. Kadmiy selenidi (CdSe) nanokristallari fotodiodlar? Qyuosh btareyalari, fluorescent displeyalar tayorlash va tabiiy usulda saratjn saraton to'qimalarini ko'rish uchun ishlatiladi. To'la qonli displeylar tayorlash uchun nanokristallar o'lchamlari asosida yuqori sifatli fotoluyminesensiyalaninshi asos bo'lai. Zichlashtirilgan QD monoqavatlar nanolitografiya yordamida yorug'lik

tarqatadigan qurilmalarda foydalanishi mumkin. Uymshoq nanolitografiya, fotolitografiya va elektron nur litografiyada shablon qilish uchun kremniyli sirti fotosezgir qavat tayyorlanadi.


Oltinning nanozarralari biomolekulalar bilan birgalikda toqimalarga etib borish xususiyatiga ega bo'lib kasallikni oldindan topib olish (immunoprobes) imkoniyatini beradi. Nanomateriallar yangi avlod quyosh meteriallari sifatida, fotosezgir π -konyugirlangan molekulalar, yani sirtida oltin nanozarralarning tarqalishi oqibatida hosil bo'ladi. Tarkibida oltin nanozarrachalari tutgan xromofor zarrachalar asosida kovalent bog'langan tok otkazuvchi shisha sirtida birgalikda elektrodlar sifatida fotosamarali zaryad o'tkazuvchi moddalar hisoblanadi.

400-300 nm olchamli kumush nanoplastinkalari olingan. Kumush tuzlaridan setiltrimetilammoniy bromid ishtirokida (CTAB, $(C_{16}H_{33})(CH_3)_3NBr$). Bular monokristallar, poydevor sifatida kumushning yon sirtida GSK kristallari olingan. Setiltrimetilammoniy bromid sirtida qanchalik adsorbsiya kuchli bo'lsa nanoplastinkaning anizotropiyasi kuchli bo'ladi. Metallarning nanozarrachalari ularning sirtida plazmonlarning qo'zg'lishi oqibatida juda qiziq optik xossalarga ega.

Yaqin infra-qizil diapazonda plazmonlarning optik rezonans chiziqlari 1000 nm uzunlikda surilishi mumkin. Bunday surilish oddiy matallarda uzoqdan analiz olishga imkon beradi.

Tunnel mikroskopidagi tunnel toki uchi o'tkir ignadek tok o'tkazadigan sathni tasvirlaydi va tok o'tkazadigan sathni tavsiflash imkoniyatini beradi; atom-kuchi mikroskopiya sirtidagi molekularo kuchlarni tasvirlaydi.

Nusxa ko'chiruvchi tunnel mikroskopida (СТМ-сканирующей туннельной микроскопия) va atom kuchi mikroskopiya (АСМ- атомно-силовоймикроскопии) tasvir oluvchi zond mikroskoplari (сканирующейзондовоймикроскопии (СЗМ)) oilasiga kirib ular materiallarning sirtini uch o'lchamli sathini tasvirlay oladi. Mikroskop zondining o'tkir uchi sirtning yaqinida yoki sirtning o'zini tasvirlaydi va fazoviy shakllarda fizik parametrlarni : potentsiallar farqi, elektr toki, magnit maydoni, va mexanik




kuchlarni oz nazoratiga oladi. Nusxa ko'chiruvchi tunnel mikroskopiya o'tkir ignasi 0,3-10 nm srti nusxasini oladi. Mikroskopdagi o'tkir uch elektrokimyoviy ishlov berish bilan hosil qilinadi. Juda uypqa volframli o'tkazgich KOH eritmasiga tushurilib elektr toki o'tkaziladi. Nusxa ko'chiruvchi tunnel mikroskopi zondlari alohida atomlarni harakatlantirish va atomlarni jamlashi mumkin.

2.6. rasm. Nusxa ko'chiruvchi tunnel mikroskopiya bilan trimezin kislotasni (TMA) grafit yostiqchada adsorбилanishi o'rganilgan.

TMA C_{60} ni molekulyar mezbон sifatida kutib olgan. Nusxa ko'chiruvchi tunnel mikroskopining uchi adsorбилangan molekulalrni (C_{60}) mezbonga yo'naltirish uchun xizmat qiladi(2.6-rasm).

Atom-kuchi mikroskopi sirtning kimyoviy xossalarini shakllantirib, sirtida o'zgarishlar amalga oshirish imkoniyatini beradi. Nanolitografning perosi ta'sirida molekullar tutgan(2.7-rasm), o'z-o'zidan shakllanadigan monoqavat(Sams) hosil qilinib u molekulyar harakat yordamida qattiq sathning sirti hosil qilinadi. Monoqavat organik tiollatdagi S atomlarining maxsus kovalent ta'siri va sirtidagi Au bilan boglanishi uyzaga kelishi mumkin.




2.7- rasm. Nanolitografning ruchkasini ishlash mohiyati.

Atom-kuchi mikroskopi maxsus uchi organotiollning suv yordamida Au substrati monoqavati shakllaninsi uyzaga keltiradi.

Transmission va nusxa oluvchi electron mikroskoplaroptik mikroskoplarga o'xshash ishlaydi, lekin elektronlardan

foydalanadi.


Pastga- tepaga usuli fizik usullar yordamida nanoo'lchamgacha maydalash yoki yiriklashga asoslangan. Pastdan tepaga usulida atom va molekullardan bo'laklab nanomaterillar yasashdir(2.8-rasm).



2.8- rasm. Nanoo'lchamdagi moddalarning tuzulishiga ko'ra ikki xil usul bor. Kata ob'ektlar maydalansa uyqoridan pastga tushiladi. Pastdan tepaga kichik o, 'ektlar nanoo'lchamgacha yiriklashtiriladi.

1857 y. Maykl Faradey AuCl_4 ni P bilan qaytarishda CS_2 eritmasida qizil rangda oltinning nanozarralari hosil bo'lishini ko'rsatdi. S oltin bilan kimyoviy bog' hosil qilgani uchun tiollar barqarorlovchi moddalar hisoblanadi. Hosil bo'lgan nanozarrachalar o'lchami 1,5- 5,2 nm o'lchamda hosil bo'ladi. Brest-Shifrin usulida AuCl_4 suvdan

Transfer:





Precipitation (of the $[\text{Au}_m(\text{C}_{12}\text{H}_{25}\text{SH})_n]$ nanoparticle):



Kolloid eritmada metilbenzol zoli hosil bo'ladi. Stabilizatorning $(\text{C}_{12}\text{H}_{25}\text{SH})$ metallga nisbati zarrachalar o'lchamini belgilaydi. Bu usul bosha metallarning nanozarralari olishda ham qo'l keladi.

GaN, GaP, GaAs, InP, InAs, ZnO, ZnS, ZnSe, CdS va CdSe larning nanozarralari, ularning kristallarini o'stirish orqali olinishi mumkin. Masalan CdSe ni olinishi. Trioktilfosfin va selen tutgan manbada dimetilkadmiy eritiladi. Eritma reagent turadigan idishga quyuladi va qattiq chayqatiladi. Xona harorati pasaytirilganda CdSe kvant nuqtalari paydo bo'la boshlaydi. Keyin harorat isitiladi, asta sekin kristal o'sa boshlaydi. Zarrachalar o'lchami 2-12 nm ni tashkil etadi.

CdS kristallarini polifosfatlar ishtirokida pH bilan boshqariladigan o'stirish mumkin. pH 10,3 bo'lganda S manbasi Na_2S qo'shish orqali CdS ni oson cho'ktirish mumkin. SiO_2 , TiO_2 bo'yoqlar, pastalar, yog'li laklar tayyorlashda ishlatiladi. Ularning zarralari o'lchami 1 nm dan 1 mrmgacha boradi.




Nano

zarrachalar
qilganda
missellalar
suvli yadrogga ega, shu muhitda reaksiya olib boriladi. Moy va suvdan iborat aralashmaydigan suyqliklarda reaksiya olib borib nanozarrachalar (rasm 2.10), olish mumkin. Shunday usulda Cu, Fe, Au, Co, CdS, CdSe, ZrO_2 va ferritlar olingan.


SiO_2 , Si_3N_4 , $\text{SiC}_x\text{O}_y\text{N}_z$, TiO_2 , TiN , ZrO_2 va ZrN nanozarralari paro fazaviy usulda olinadi. bu usulda plazmali sintez amalga oshiriladi. Qattiq faza plazmaga tushganda u bug'lanadi zaryadli zarrachalarga o'tadi. Plazma ichida harorat 10 kk gacha ko'tariladi. Nkel ferritini hosil bolishi 2.9-rasmda ko'rsatilgan.

2.9-rasm. Bug' faz usulda nikel ferritning plazmada olinishi. Tarkib $\text{Ni}_{0.5}\text{Zn}_{0.5}\text{Fe}_2\text{O}_4$.




2.10-rasm. Misellalar ichida ham nanozarrachalarni sintez qilish mumkin. o'lchamdagi reaksiya idishlar

Nano o'lchamdagi reaksiya idishlarda ham olish mumkin. Masalan, teskari misellalar hosil idishning hajmi chegaralanadi. Bunday



2.11 - rasmda nusxa ko'chiruvchi elektron mikroskop yordamida nano o'lchamdagi o'ralarni ko'rish mumkin.

Bunday o'ralarga CdS kristallarini o'stirib nanozarrachalar olinadi (2.11-rasm). Chuqurdan CdS ni chiqarish Oq strelkalar chuqurni yonlarida kristallar hosil bo'lishini ko'rsatadi. uchun ultratovush bilan ishlov beriladi. (J.E. Barton и T.W. Одом, Nano Lett., 2004, 4, 1525. Nanozarrachalar o'lchami 100 nm dan 400 nm ga yitishi aniqlangan.




Poliakrilat natriy strukturani boshqaruvchi madda sifatida ishlatilgan. Haroratni, pH va reagentlar konsentrasiyasini o'zgartirish orqali nanozarracha o'lchamlarini o'zgartirish mumkin. Sda BaSO_4 nanozarrachalari olingan. (rasm- 2.12.).

2.12-rasm. BaSO_4 nanozarrachalarining strukturasi.

(Reproduced with permission from S.-H. Yu, et al., Nano Lett., 2003, 3, 379.) $\text{Cu}(\text{Asas})_2$ (asetilaseton) va

elementar oltingugurt ta'sirida (2.13-rasm) nanjzarrachalar hosil bo'ladi.

Zarralar o'lchami $\text{Cu}(\text{Asas})_2$ konsentrasiyasiga bog'liqdir. $\text{Cu}(\text{Asas})_2$ konsentrasiyasi ortishi bilan Nanozarrachalar o'lchami 8 ± 1 nmgacha ortadi.




2-13-rasm. Cu_2S (a, b) nanozarrachalarning ko'rinishi. (H. Lee, et al. Nano Lett., 2007, 7, 778.

Shunaqa nanostrukturalar biomolekulalar va fermentlarda electron nashish fuksiyasiga ega bo'lib, ular sensorlar sifatida amaliy ahamiytga ega (2.10-rasm). Cu_2S nanjzarralar elektr o'tkazuvchi ko'priklar bo'lib oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida harakatdagi elektronlarga ega va o'tkazuvchi sifatida ishlatiladi. Amperometrik titrlash orqali glukozaning miqdorini aniqlash mumkin.

Supramolekular kimyo


Supramolekular kimyo nanoob'ektlarni loyihalash va yig'ishda kelajagi bor usullardan hisoblanadi. Ko'pdan ko'p biologic sistemalar kuchsiz vodorod bog'lari va vander-vals ta'sir kuchlari asosida hosil bo'lgan. D-metallarning geometrik koordinatsiyasi orqali bir-biri bilan donor-akseptor bog'i orqali bog'langan zarrachalar nanozarralar hosil qilishda ishtirok etishi mumkin. Bu usul rubooktaedr hosil qilishda oqilona foydalanilgan.

2.14-rasmda **Supramolekular kimyo mahsulotlaridan nanozarrachalar olish ko'rsatilgan.**



Tayyor supramolekular reaksiya mahsulotlari asosida nanozarrachalar olish. 2.11-rasm. (Adapted from S. Leininger, et al., Chem. Rev., 2000, 100, 853.

Oldindan tayyorlab olingan turli obektlar o'zaro ta'sir tufayli nanjsistemalarni hosil qilishini ko'rish mumkin.




2-14- rasm. Tayor nanozarrachalardan nanoobektlarning yasalihi.
(Adapted from Z. Zhang, et al., Nano Lett., 2003, 3, 1341.)

Ipsimon nanolentalar, nanonaychalar, ipli nanonaylar keng o'rganilgan, ular eng kichik fazoviy strukturalar bo'lib, elektronlarni ko'chirish va optik qo'zgatish uchun ishlatilishi mumkin(2.14-rasm). Bunday zarrachalar oddiy bir sistemalar bo'lib, ular hali to'la o'ganilmagan. Bunday sistemalar molekulyar sistemalariga o'xshash kata masofalarni qamrash hamda elektronning spini va zaryadini taqsimlanish hodisalari kuzatiladi.

Bir o'lchamli nanostrukturalar kuchli va juda qattiq kompozitlar, funksional nanotuzilma materiallar va butunlay yangi nusxa ko'chiruvchi mikroskoplarda o'z o'rnini topishi mumkin.

Bu sinf materillariga tegishli uglerodli nanonaylar ancha keng o'rgailgan. Bunday nanonaylar turli kimyoviy usullar yo'rdamida sintez qilinishi mumkin. Ular juda oddiy kimyoviy tarkibga ega va oddiy yopishtirish usullari ishlatiladi. Lekin bu materiallar hayratli darajadagi turli strukturalar va takrorlanmaydigan fizik xossalarga ega. Bu yangi materiallar kimyoviy sensorlar, yoqilgi elementlar, juda kichik tranzistorlar, elektrik bog'lagichlar va mexanik mustahkamlagichlar tayyorlashda o'z o'rnini topgan. C_{60} tutgan birikmalar nuzulishi va xossalari keng o'rganilgan, ular yangi materiallar yaratish va materialshunoslikda ahamiyatga ega. Uglerod nanonaychalari 1990 y. boshlarida elektron mikroskop yordamida aniqlangan. Uglerod nanonaychalari sharsimon evas, balki nay tuzilishga(2.15-rasm) ega.

2.15-rasm. Oddiy nanonaychalarning tuzilishi. (J. Hu, et al., Acc. Chem. Res., 1999, 32, 435.) (Reproduced with permission from the American Chemical Society.)



Uglerodli nanonaychalar silindrlik qavatga ega bo'lib, naysimon nanoo'lchamdagi C_{60} ni(05 nm) grafen pardalarini nayga o'rab mikrometr o'lcahamgacha olib kelish orqali olingan. Bir qavatli nanonaylarsilindr ichida grafen pardasi yotqizib (2.16-rasm) olinadi, uning diametri va xirallik orqali nanomaterialning fizik xossalarini belgilash mumkin.


2.16-rasm (a) grafenning uyali tuzilishi. Bir devorli uglerodli nanonaychalar graef listlarini burab nayga

o'tkazish orqali yasaladi, ulardan ikkitasi a1 va a2 ko'rsatilgan. Upqa pardani o'rab (8,8), (8,0), va (10, -2) kreslo (a), zigzag (c), va xiral naylar (d) hosil bo'ladi. H. Dai, *akk. Chem. Res.*, 2002, 35, 1035).

O'z-o'zidan nanostrukturalarni hosil qilish lazer bilan ishlov berish, katalitik o'sishni lazer yordamida jadallashtirish, uglevodorod gazlarni bug' fazadan kimyoviy choktirish, uglerod yoyi asosida hosil qilinadi. Masalan CH_4 ni uyqori haroratda parchalab, uglerodni kondensatsiya qilganda, katalizator Fe ishlatilsa va sirt naydan iborat bo'lganda nanonaylar hosil boladi. Bo jarayon uzluksiz davom etadi va sanoat miqyosida amalga oshiriladi. Bu nay ochiq bo'lgani uchun undan nanonaylar olisda andoza sifatida foydalanish mumkin.

Elektr yoyi razryadi yordamida ikkita uglerod sterjeni bi-biriga tegizilib uyqori harorat hosil qilinadi va plazma yoyi hosil qiladi, uglerod bug'lana boshlaydi. Bunda potentsiallar kichik, tok kuchi uyqori bo'lishi shart.


2-17-rasm. Uglerodli nanonaylarning to'g'ridan to'g'ri gaz fazasidan sintez



qilinishi. a- o'zaro-bir-biriga yo'lagan nanonaylar; b) chiziqli kremniy ustiga yo'naltirilgan naylar; c) kvadratga osilgan bir qavatli strukturalar. D) kremniyga osilgan naysimon nanotrubkalar; e) elektrik maydonda to'g'rilangan strukturalar.. (H. Dai, Acc.

Uglerodli nanonaylar integral sxema tayyorlashda kerak bo'ladi. Ular juda yqori issiq o'tkazish xossasiga ega (xuddi olmos va grafitga o'lish).

Ular ikkita muhim vazifani bajaradi : issiqni tarqatish va qayta ishlash tezligini oshirish. Uglerod nanonaylarni ochilishi mikrosxemalarda aniq payvand qilish (tochechnaya svarka) imkoniyatini beradi (2.17- rasm).



2.18-rasm Cu to'ldirilgan uglerodli nanonaylarning tuzilishi. Har biri o'tkir uchli metall dan iborat ninaga ega. Ularning uzunligi 5 mkm va diametric 40-80 nm. X. Dong, *idr., Nano Lett.*, 2007, 7, 58.)


Uglerodli nanonaylardan boshqa yarim o'tkazgich va metal oksidlaridan ham nanonaylar tayyorlangan(2.18-rasm). Ularga BN, ZnO, ZnSe, ZnS, InP, GaAs, InAs va GaN kirib, ular nanonaylarga aylantirilgan. Bu nanozarrachalar

Kichik o'lchamga va yangi elektrik xossalarga ega. Ularni olish usullaridan biri kolloid-kimyoviy bo'lib, unda polielektrolit qavatiga noorganik nanozarracha yotqiziladi. TiO_2 yadrosiga oltin nanosimi o'tkazilgan (2.19- rasm).


2.19- rasm. (a) $\text{Au}|\text{TiO}_2$ qisqa nanonaylar va uzun nanonaylar(b). (Y.-G. Guo, et al., J. Phys. Chem. B, 2003, 1070

Kvant o'ralar va juda qattiqligi uyqori panjaralar

Kvant o'ralar juda uypqa qavat bolib ikki moddaning orasiga olinganva boshqa materialdan yasalgan. Ularning o'lchami 0,3-2,0 nm arofida bo'lib atomlar qavatuga yaqinlashadi. Bu materiallar qattiq disklarni o'qiydin bosh tayyorlasda ishlatiladi.




2.20-rasm.(a)Qattiqligi uyqori panjaralarga misol AlN/TiN va (b) qattiqligi uyqori panjaraga misollar. (S.A.Барнетта и А. Мадан, Мир Физики, 1998, 11, 45.)



2.21-rasm. (a) suniy olingan qattiqligi uyqori panjarali kristallar AB va AB ; SrO kristallarning tartibli kelishi. (b)

Sr_2TiO_4 strukturasi qavatli tuzulishga ega oksid. Ko'p qirraning markazida titan turadi.Qattiqligi uyqori nitridlar eng ko'p tarqalgan materiallard(2.20 va 2.21 rasmlar). BaTiO_3 qattiqligi



uyqori kristallarga kirib bu ularning segnetoelektrik, frestik, electron, magnetic, optic va boshqa xossalarnin aniqlaydi. Bu nanostrukturalar turlicha qattiqligi uyqoti juda nozik pardalar SrTiO_3 holatida olingan (2.22-rasm).



2-22-rasm. Qattiqligi uyqori kristallar SrTiO_3 / BaTiO_3 misolida. (Reprinted from D. G.Schlom,et

al., Oxide nano-engineering using MBE. Mater. Sci. Eng. B, 2001, 87, 282, with permission from Elsevier.)

Mezag'ovakli jismlar getgerogen katalizdan yaxshi ma'lum. Govaklar o'lchami 1,5 nm dan 10 nm ozgartirilsa va sirt-faol moddalar va blok polimerlardan foydalalanib bosqichli sintazda mega givaklar o'z -o'zich' silindgik, sferik, plastinkasimon melikulyar strukturalar hosil qilishi aniqlangan. Noorganik moddalar sifatida kremniy dioksidi va titnan oksidi qo'llaniladi. Avval mavjud struktura atrofida (kremniy dioksidi) 2.22-rasm olti halqali sterjenlar hosil qilinadi. Bunday g'ovakli jismlar kataliz jaraionlari va qo'shilib qoladigan moddalar kimyosida ahamiyatga ega bo'ladi.

2.23-rasm. a geksagonal mezag'ovakli jismlar uchun andoza va govaklarni to'lgan nanostrukturalar (b).

Andozani turlicha olinishi va reaksiya sharoiti har xil bo'lishi tufayli keng ko'lamda mezastrukturalar va mezagovakli noorganik moddalar oilasi olingan (2.23-rasm). Misol uchun, Kremniy dioksidi va noorganik aluymosilikatlar ishtirokida geksagonal plastinkasimon (MC50), kubsimon (MC48) va oltiburchakli (MC41) nanostrukturalar olingan. Bu nanostrukturalar 2.23 va 2.24 rasmda ko'rsatilgan.




2-24 -rasm. Blok sopolimerlar andozasida olingan kataliz sohasida va qo'shilib qoladigan moddalar kimyosida katta ahamiyatga ega nanostrukturalar tuzilishi. (Adapted from M.E. Davis, Chem. Rev., 2002, 102, 3601.)

2.25-

rasm. Mezag'ovakli uch xil turdagi tartibli strukturalari. (a) Lamellar kubik tuzilishli va (c) geksagonal mezagovakli Kristal nanostrukturalarning hosil bo'lishi from A. Mueller and D.F. O'Brien, 2002, 102, 729.)

Sirt fao-moddalar strukturalarni shakllanishida kata orinni egallaydi. Masalan, setiltrimetilammoniy (C16MAS) shu ishlatilgan. Shunda kemnezem asosida nantola hosil qilingan. Bo tola ortishi, katalitik faollikni uyqori




tuzlarning tuzilishli), (b) tuzilishga ega

(Adapted Chem. Rev.,

boshlanib

strukturalarda olti g'ovakli govaklikni bo'lishi


hamda tanlab ta'sir etishda juda muhim omildir. Ko'pdan ko'p mehmon –mezbon taqlid metallokomplekslar ana shu tariqa olingan. Ular optik bo'yoqlar va makromolekulalar sifatida amaliy ahamiyatga ega. 2.25- rasmda kremniy oksidiasosidagi nanotolaning tuzilishi berilgan.



2-26-rasm. (a) SFM ishtirikida olingan nanotolaning tuzilishi. (b) turli olchamlarda. (c) juda kichik o'lchamdagi nanotolalar (J. Wang, et al., Chem. Mater., 2004, 16, 5169.)

Metall organik karkaslar va ko'p qirralar


Metall organik karkaslar va ko'p qirralar katalitik sirtlarda uyza chegaralarda ishlatiladi va supramolekulyar kimyoning usullari yordamida yig'iladi. Bu karkaslar metal ionini alohida tanlab, unga mos organic ligandlar topib hamda metal-organik ko'p qirrali strukturani uyzaga keltirish oqibatida yig'iladi. Bu moddalar hozirgi paytda «yangi seolitlar» deyilib, supra molekulyar kimyo asosida govakli jismlar sintezidan foydalaniladi. Nanog'ovakni uyzaga kelishida supramolekulyar kimyo nanog'ovaklikni yig'ladi. G'ovaklik 1nm dan 100 nmgacha bo'lishi mumkin. $\text{Cu}_2(\text{CO}_2)_4$ (1,3 benzoldikarbon kislota)ning (2.26- rasm) oktaedr ichidagi qattia kvadrat molekulaning bog'lanishidan uyzaga kelgan.



2.27.-rasm aCC-1 kristallik tuzilishi CC-1 (koordinat sistemada), (a) 12 tatarafibor tomonlarko'rsatilgan (Cu, qizil; O, ko'k; C, kulrang; metallokompleks

to'qilgan oktaedr (b) unio'lchami 1,5 nmgachaboradi (sariqshar); kulrangsharchalar (uglerodatamlari) ko'p qirrani tashkil etib faqat karboksilationlari bilan bog'langan (M. Eddaoudi, idr., J. Am. Chem. Soc., 2001, 123, 4368)

Bu holatdagi supramolekulyar moddaning umumiy formulasi $\text{Cu}_{25}(\text{M-HMT})_{24}(\text{DMF})_{14}(\text{H}_2\text{O})_{10}(\text{H}_2\text{O})_{50}(\text{DMFA})_6(\text{C}_2\text{H}_5\text{OH})_6$ va u oddiy qilib CC-1 deb uyritiladi. Bu nanozarraning tuzilishi 2.27-rasmda ko'rsatilgan. Bunday kubkaedrda metal-organik ko'p qirraning ahamiyati 2.28- rasmda metal Fe(III) yoki Ga naftalinning oltita bis-kateholamidi (L_4) qirra tetraedrdan iborat. Bunday strukturalar fermentlarda ko'p uchraydi.




2.28-rasm. (a) M-416 strukturasi yig'ilish sxemasi. Qirralarda metallogrganikaning yigilishi ko'rsatilgan metal mehmon sifatida (b) (D. H. Leung idr., J. Am. Chem. Soc., 2007, 129, 2746.)

G'ovaklarning shakli va o'lchamini nazorati mezag'vakli

sistemalarda eng muammoli masalardan biridir. Katalitik faollk mezag'ovakli sistemalarda mehmon strukturaning va asosiy karkas xo'jayinning termik barqarorligiga bog'liqdir. Ko'p hollarda erituvchi molekulasikerakli uch o'lchamli strukturani uyzaga keltirishda muhim erinn egallaydi(2.28-rasm).

$[Ln_2(PDC)_3(DMF)_2]_\infty$ lantanoid katindan va anion ko'prik liganddan iborat(piridin-1,3 dikarbon kislota) dimetilformamidda ta'sir ettirilgan. Ramraga keltirilgan polimer qattiq holatda bolgan. 2.29-rasmda barcha strukturalarning markazida turadi. Govakli holatni uyzaga kelishida bir butun strukturagina ega bo'ladi.




2.29-rasm. Mezag'ovakli strukturalarning sxemasi $[Er_2(PDC)_3(DMF)_2]_\infty$: (a) markazda Erbiy atomlari orasida zig-zagli bog'lanish uyzaga kelgan; (b) Dimetil formamidning rombli kristallar orasida joylashivini ko'rsatilishi.

Erituvchi chiqazib uyborilsa Erbiyning bir-biriga bog'lanishi va qayta guruhlanishi (c) : (D) ochiq geksagonal strukturalar (J. Цзя, и др., Inorg. Chem., 2006, 45, 88).

Noorganik-organik nanokompozitlar


Nanokompozitlar quyoshdan saqllovchi, olovdan saqllovchi, kirdan narida? Termoplastmoddalar, suvuchunfiltrlar, avtomobil qismlari tayyorlashda ahamiyatga ega va shu maqsadlarda qo'llanilmoqda. Masalan, naylon-6 va montmorillint nanokompozitlar televizorekranlari(yig'iladigan) unga indigo bo'yog'Iy otqizilishi mumkin.

Bu modddalar ikki [il bo'ladi: ularda noorganik va organic faza orasida ion va kovalent bog'lar mavjud emas. Komponentlar orasida vodorod bog'lanish, van-der-vaals bog'lari va elektrostatik ta'sir mavjud. Ikkinchi xil birikmalar noorganik va organic modda ozaro kuchli kimyoviy bog'lar bilan bog'langan(kovalent, ion, Luyisning kislota asos bog'i). Bu moddalarga kelish yollari keltirilgan (2.30-rasm).




2.30-rasm. Gibrid nanomateriallar olish usullari. (a) zol- gel gibrid nanomateriallar olishning yolidar.(b) va (d)nanmeza strukturalar konstruksiya qilishga asoslangan

Andozada sodir bo'ladigan molekulyar va supramolikulyar reaksiyalar(sitr-faol moddalar, blok sopolimerlar,organiligandlar va b.) bunday xil moddalar olish uchun kerak bo'ladi. 2.31 rasm nanokompozitlar olishning ikki yoli ko'rsatilgan.



2.31-rasm. Nanokompozitlar olishning ikki usuli: a) noorganik va organik moddalarning kovalent boglanishi orqali bog'ning uyzaga kelishi; b) andoza darovalent va Van-der-vaals ta'sir kuchlari uyzaga kelishi u(gidrofob kontaktlar).⁷

Nanonaylarga ba'zi funksional guruhlarni kovalent boglar orqali kiritilishi ularni kimyoviy kirishuvchiligini oshirishda ishlatilgan (2.30-rasm).



2.32-rasm. Dodesil kislotaning nanonayga ulanish sxemasi (SWNT-COO(CH₂)₁₁CH₃, EST-SWNTs). (Based on R. Sen et al., Nano Lett., 2004, 4, 459.

Qiziq misol sifatida Aluyminiy polimetilmetakrilat kompozitlariga nano miqdorda toldiruvchi gilmoya(glinozem) kiritilishi mikrosingan joylarni yo'qotishi, polimer matrisada dispergasiya roy berishi va kompozit xossalarida keskin ozgarish ro'y berishini ko'rsatd(2.32-rasm)i.

Bionoorganik nanomateriallar

Bilologik hodisalar DNK ning kondensatsiyasi,toqimalarning yig'ilishi, to'qimalaro tashilish , nafas olish, fotosintez, ko'payish jarayoni nanoholatlarida amalga oshadi. Nanomateriallarni tushunish uchun olimlar tabiatdagi kerakli

⁷ C. Sanchez, и др., Chem. Mater., 2001, 13, 3061


nanozarralardan andoza olishga harakat qiladilar. Bu qarashlar biomimitika asos bo'ldiki, unga ko'ra biologin sistemalardan asos olinadi. Bu sohada qattiq noorganik materiallar va tirik to'qimalar, biologik materiallar kata ahamiyatga ega. Bunday materiallar inson hayotida kata ahamiyatga ega. Ana shu holatlardan dori moddani etkazib berish, medisina jihatidan tahlil qilish, saratonni davolash, atrof muhitning ekologik muammolari, kimyoviy va bilologik datchiklar yasash kabi qo'llanishga ega. Bazi yirik biologic sistemalar, masalan odam, o'z-opidan juda murakkab qurilmadir va uning barcha a'zolari murakkab arxitektura qurulishidir.

DNK va nanozarrachalar

Oltinning va DNK ta'sirida olingan nanozarrachalar biologic sensorlar sifaida ahamiyatga ega. DNK polielektrolit bo'lib manfiy zaryadga ega bo'lgan, o'z-o'zidan hosil bo'luvchi sistemadir. U musbat zaryadli ionlar, molekulalar va modifikatsiyalangan nanozarrachalar bilan ta'sir etib tartibli strukturalar hosil qilishi mumkin va u juda ixchan m shaklda organizmning tuli joylariga etib boradi. Ana shu ixcham struktura kondensat deyiladi va DNK xromatinida genlarning asosiy komponentida kata ahamiyatqilib ga ega.


DNK kondansatsiyasini organib yoki kondensatsiya jarayonini boshqarishni bilish uchun saratonni davolash, dori moddalarning joyiga etkazib berishda va biodatchiklar yaratishda ahamiyatga ega. DNK kondensatsiyasini probirkada tekshirish kompleks katinlar ishlatish, masalan geksaammin kobalt yoki poliaminlarni kondensat markazida bolishi yaxshi natijalar beradi. Bunday sistemalarda kompleks hosil qilish tirik toqimalarda zaryadlangan zarrachalar atrofida oqsillarning musbat zaryadlangan gistonlari hosil bo'lishi bilan bunday reaksiyalarning modellashtirish mumkinligini ta'minlaydi. Oltinning nanozarralari DNK ning ntqimalarga kirishini ta'minlovchi agent sifatida naklif etilgan.

Nanozarracha bilan DNK nisbati 10:1 (a), 20:1 (b), 50:1 (c), 100:1 (d) bo'lganida, o'ralgan molekulalar 'rkin nanozarralar bilan birga bo'lib, keyinchalik nisbat ortganda to'rga aylanadi (2.33-rasm).



2.33-rasm. Oltin nanozarrasi lizin –modifikatsiyalangan DNK bilan turli nsbatlarda olinganda ko'rinishi:(a), 10: 1, (б) 20: 1, (в) 50: 1, и (г) 100: 1.

Ushmu materiallar faol nanotuzilmalar yaratishda kerak bo'lishi mumkin. LNK bu holatda, bionanomateriallar yaratishda qo'llanilishi mumkin rasm 2.32).



2.34-rasm. Nanoqurilmalar yaratishda DNK makromolekulalarining qo'llanilishi⁸.(N.L. Rosi and C.A. Mirkin, Chem. Rev., 2005, 105, 1547.)


Birinchi dan nanozarralar DNK iplariga bog'langan. DNK ning komplementar zanjiri tahlil qilinadigan modda bilan yoki bioagent bilan bog'lanadi. Shunday o'zgarishlar tsrtibli va tartibsiz harakatlarda optic xossalarning o'zgarishiga va rang o'zgarishiga olib keladi. Ushbu holat murakkab optic biosensorlar yaratishga olib keldi, ular uyqori sezgirlikka va tanlovchanlikka ega bo'lishi topilgan.

Tabiiy va suniy nanomateriallar: biomimetiklar

Biologik materiallar andoza sifatida nanomateriallarni loyihalashda ishlatilishi mumkin. Tabiiy materiallar yog'och va tuxum po'chog'I yirik g'ovakli matrisalar tayorlashda ishlatilgan.

Tabiiy materiallarni ishlatish orqali oqsil injeneriyasi tittan oksidi tutgan suniy qog'oz yaratilgan. Qog'ozga titan oksidi tutgan gel yotqizilgn. Buning uchun odatdagi sotuvda bo'ladigan filtr qog'oziga butilat titan 2 minut filtrlangan. Realsiyaga kirishmagan alkoksi titanni eritish uchun 20 sm³ etanol darhol qo'shilgan. 20 sm³ suvni qo'shilishi TiO₂ hosil qiladi, gidroliz tufayli. Bu qog'oz havoda qurutuladi. Selluloza tolasini usti TiO₂ ning gel qavati bilan qoplangan. Bu qog'oz 723 K da 6 soat qurutilsa, filtr qog'oz yo'qoladi. Shunday filtr qog'oz 2.34- rasmda keltirilgan.

⁸ N.L. Rosi and C.A. Mirkin, Chem. Rev., 2005, 105, 1547.



2.35-rasm. (a) nusxa ko'chiruvch iavto electron emissiyali mikroskopda TiO₂ li qog'ozni ko'rinishi.

Hozirgi paytda suyaklarni og'ir sinishi va uni almashtirish biomaterialni doimiy korrozivasi, biomateriallarni tez eyilishi, oxirida infeksiyalar tushihiga olib keladi. Bunday suyaklarni almashtirish uchun biomateriallar juda kerak. Ikki xil suyak bor: g'ovaksimon va juda qattiq suyakni tashqi tarafdin qoplash uchun ishlatiladigani bor.


Polipropilen fumarat diakrilat infeksiyon va biologik emiriladigan polimerdir. Bu polimer xossalarni yaxshilash uchun unga kalsiy fosfat qo'shiladi. Polimerning mexanik

xossalarni noorganik modda zarralari qo'shganda xossalari bu zarralarning dispersligi, o'lchami, shakliga bog'liq. Kimoviy modifikatsiya qilingan polimerlar kata amaliy ahamiyatga ega (2.36-rasm).


Nyklein kislotalariga nanozarrachalarni biriktirish ancha mufafaqiyatli bo'ldi. Noorganik va biologik materiallarni bog'lash uchun turlich noorganik materiallar, yarim o'tkazgichlar, fullerene, metallar, oksidlar ishlatib ko'rildi. Muhim o'ziga xos qadamlardan biri nanozarrachalar sirtiga polimerlarni molekular biriktirishdir. Bu materiallar biosensorlar, nanozondlar, narkotiklarni chiqaruvchi moddalar va boshqa narsalar yuvaratilishiga olib keldi.

Quloq materiali 95 % aragonitdan (polimorfizm CaCO₃) ozgina organik polimer. Tarkibiy qismlarga nisbatan biopolimer juda chiroyli, nanostruktura bilan birga maxanik mustahkamlik ikki baravar ortgan. (2.36-rasm)


2.36-rasm Bionoorganik polimer togay suyak o'rnida ishlatilishga taklif etilgan⁹.



⁹ X.Li, et al., Nano Lett., 2004, 4, 613.




2-37-rasm. Aluymosiloksanlar bilan modifikatsiyalangan polimerler: (a) diacryloyl lysinaluymosiloksan (faollangan), (b) stealinkislota-aluymosiloksan (sirt-faol modda), и (c) akrilolil-undekan kislota aluymosiloksan. (R.A.Horch, и др., Biomacromolecules, 2004, 5, 1990) .



Gilmoya narxi arzon, universal hissalariga ega, keng chegarada hossalarni o'zgartirish mumkin. Gilmoya ikki xil bo'lishi mumkin: kation gilmoya manfiy zaryadlangan anion zaryadlangan aluymosilikarlar bilan birga va anion holatida mavjud.

Organogilmoya quyidagicha tarkibga ega: $[H_2N(CH_3)_2]_8[Si_8Mg_6O_{16}(OH)_4]$, Organogilmoya jqsilning barqarorligunu oshirish uchun ishlatilgan. Nanokompozit tarkibiga kirgan gilmoya DNKning dori moddaning o'z joyiga etib borishiga va gen terapeyaning uyzaga kelishiga sababchi bo'lgan.



Yana muhim misol, oqsilning fullerenlarga bog'lab qo'yilishi. Oqsil va fullerenning kovalent bog'lanishiga misol bo'la oladi. Nanoo'lchamdagi bo'langan fullerenlar VICH proteazasinig ingibitori sifatida kata ahamiyatga ega. Ular asosida fotosezgir zondlar va saratonning fotoddinamikasini kuzatish imkoniyatiga ega boladigan agentlar(2.37-rasm).

2.38-rasm . (a) N-amidopropionil)-3,4-fullero pirrilidin strukturasi; (b)-N-(3- malein imido propionil)-3,4-fullero pirrolidinning oqsil bilan bog'langan strukturasi¹⁰

Suvni tozalash maqsadida zeriyy oksidi asosida nanokompozit tayyorlangan. Buning uchun seriy (III)

¹⁰ П. Недноор и др., Биокон.Chem., 2004, 15, 12.

xlorid HCl, mochevina, tetrabutylammoniy etiltnglikolda 30 minet davomida 180 oS qizdirilgan. Bunda seriy oksidi hosil bo'la (CeO_2) qoladi. Har xil vaqtda nanokompozitning hosil bo'lishi va uning olchami 2.38- rasmda ko'rsatilgan.

Asosiy adabiyotlar:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. H.R.To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya" -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520b.
5. H.R. To'xtayev, «Anorganik kimyo» ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
6. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

3-ma'ruza

3.6.Atom tuzilishi. Atomning yadroviy tuzilishi. Kvant mexanikasining nazariy asoslari. Atom orbitallar. Atomning elektron tuzilishi

Ma'ruzaning maqsadi: talabalarga atom tuzilishi to'g'risida tassavur berish.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. Atom tuzilishi. Atomning yadro modeli.
2. Izotop, izobar, izotonlar. Nurning kvant nazariyasi.
3. Bor nazariyasi bo'yicha atomdagi elektron qavatlarini tuzilishi.
4. De-broyl tenglamasi. To'lqin tenglamasi.
5. Elektronlarning atomdagi kvant sonlari (n, l, m, s).
6. Pauli prinsipi.
7. Hozirgi zamon atom tuzilishi nuqtai nazaridan D.I.Mendeleyevning davriy sistemasi va davriy qonuni.

Tayanch so'zlar: atom, elektron, proton, neytron, radoaktivlik, yadro, izotop, izoton, izobarlar, kvant mexanikasi, electron orbital, kvant yacheyka, electron tuzilish.



Atom tuzilishi. Atomning yadroviy tuzilishi¹¹

Kimyoda muhim ahamiyatga ega elementar zarrachalar ro'yxati 1.1 jadvalda keltirilgan. Bu zarrachalardan 100 dan ortiq kimyoviy elementlar (hozirgacha 109 ta) hosil bo'lgan. Har bir element o'z nomeriga ega u esa atomning yadro zaryadini va protonlar va elektronlar sonini ko'rsatadi.

6.1-jadval. Kimyodagi elementar zarrachalar

Zarracha	Simvoli	Massa soni	M.a.b.	Zaryad	Spini
Elektron	${}_{-1}^0\text{e}^-$	0	$5,486 \cdot 10^{-4}$	-1	1/2
Proton	${}_{1}^1\text{P}$	1	1,0073	+1	1/2
Neytron	${}_{0}^1\text{n}$	1	1,0087	0	1/2
Foton	γ	0	0	0	1
Neytrino	ν	0	0	0	1/2
pozitron	e^+	4	$5,486 \cdot 10^{-4}$	+1	1/2
α -zarracha	${}_{2}^4\alpha$	0	${}_{2}^4\text{He}^{2+}$ yadrosi	+2	0

¹¹ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P.3-35.

β -zarracha	β	0	e^- yadroda chiqadi	-1	1/2
γ -zarracha	γ	0	yadro tomonidan chiqadigan lektromagnit nurlanish	0	1/2

M.a.b. massaning atom birligi;
elektronning zaryadini absolut qiymati $e=1,602 \cdot 10^{-19}$ Kl

Kimyoviy elementlarning kelib chiqishi

Buyk portlashdan 2 soat o'tgandan song temperature ancha tushgan barcha materiy ikki xil element H (89%) va Ge atomlaridan iborat bo'lgan (11%). Shuning uchun ham koinotda eng ko'p tarqalgan elementlar H va Ge hisoblanadi. Yer sharida elementlarning tarqalishi 1.1 rasmda keltirilgan.





Рис. 6.1. Koinotda kimyoviy elementlarning tarqalishi. O'zkarini juft atom massaga ega qo'shnilariga nisbatan toq atom massaga ega elementlar ancha barqaror bo'ladi. Bu erda elementlar tarqalishi kremniyga nisbatan olgan (har bir atom 10^6 Si ga).

1.1. Engil elementlar yadroviy sintezi

Lastlabki uylduzlarning paydo bo'lishi vodorod va geliy atomlarining «bulutlar» holatida kondensatsiyaga uchrashi hisoblanadi. Gravitatsiya tufayli bu «bulutlar» ning siqilishi temperaturaning ortishi va ichki zichlikniham ortishiga olib keldi, u esa yadrolarni qo'shilishiga olib keldi. Eng dastlabki yadro reaksiyalari hozirgi halqaro boshqariladigan yadro reaksiyalarida o'rganiladigan reaksiyalarga o'xshab ketadi.

Atomning tuzilishi

Engil yadrolarni qo'shilishidan tartib nomeri kata elementlar hoil bo'ladi va energiya ajralib chiqadi. Masalan, α -zarrachalar (geliy adrolri ikkita proton va ikkita neytrondan iborat) va uglerod-12 yadrosi ta'siridan kislorod-16 yadrosi va γ -kvant hosil bo'ladi.



Bunda 7,12 MeV energiya ajraladi. Yadro reaksiyalarida kimyoviy reaksiyalarga qaraganda ancha ko'p energiya ejraladi, chunki yadro ta'sirlari

elektron va protonlarni ushlab turadigan odatdagi kuchlarga nisbeten juda kuchli bo'ladi. Odatdagi kimyoviy reaksiyalarda 10^3 kJ/mol issiqlik chiqishi mumkin. Yadro reaksiyalarida 10^9 kJ/mol issiqlik chiqadi, bu esa odatdagi kimyoviy reaksiyalardan million marta ko'pdir.


Atom massasi 26 gacha bo'lgan elementlaryulduzlarning ichida sintezga uchragan.

1.2. Og'ir elementlar yadro sintezi



Temir va tartib nomeri unga yaqin elementlar ancha barqaror bo'lgani uchun og'ir yadrolar energiya ajralishi bilan borishi kerak. Bu jarayonlar erkin neytronlarning ushlab qolinishi hisobiga amalga oshiribulduzlarning dastlabki evolusiyasida sodir bo'lgan:



Yangi portlagan uylduzda juda kuchli neytronlar oqimi uyzaga keladi va yadrolar uni ushlashi og'ir yadrolar sinteziga olib keladi



Borgan sari og'ir elementlar hosil bo'la boshlaydi. Og'ir elementlar neytronni ushlab qolish prosessida hosil bo'ladi va atrofga β -zarrachalar tarqaladi(6.2-rasm).



6.2-rasm. Elementlarning massa % va atomlar soni jihatidan tarqalishi.

Vodorodsimon atomlarning tuzilishi

Barcha elementlar metallar va metallmaslar deb, ularning fizik va kimyoviy xossalari asosida, ikkiga bo'linishi mumkin. D.I. Mendeleev birinchi marta elementlarni sistematik guruhlariga bo'lishini taklif etdi va hozirgi zamon davriy jadvalga mos keladi.

1.8. Atomning asosiy tavsiflari

Atomning nomeri o'zgarishi bilan uning elektron berishi va olishiga bog'liq ravishda atomning asosiy xossalari, ayniqsa uning o'lchami, energiyasi davriy o'zgara boradi. Elementlarning kimyoviy xossalarini o'rganishda bu xossalar juda muhim. Bu xossalar to'g'risidagi bilimlar kimyogarga jadvallardan foydalanmasdan har qanday elementning kimyoviy xossalari strukturaviy o'ziga xoslikni bashorat qilish imkoniyatini beradi.


a) atom va ionlarning radiusi

Element atominig eng ko'p ishlatiladigan xossalardan biri unning atomi va ioninig radiusidir.

Qattiq moddalar va alohida molekullarning tuzilishi bayon etishda geometrik yondoshish, shuningdek elektronning yadrogacha bo'lgan masofasi ion hosil bo'lish uchun sarflangan energiya bilan korresalyangan b'ladi.

Atom tuzilishining kvant nazariyasi atom va ionlar radiusi to'g'risida aniq qiymatlar bermaydi, sababi katta masofalarda yadrodan uzoqlasgan sari elektronning to'liq funksiyasi exponensial kamayadi. Albatta bir nechta elektronga ega atomdan ko'ra ko'p miqdordagi elektronlarga ega atomning radiusi katta bo'lishi kutiladigan holat. Shu nuqtai nazardan kimyogarlarga empirik ma'lumotlar asosida atom radiusini o'lchashi bir qancha usullari taklif etiladi.

Metall radiusi ikkita yadro orasidagi qattiq metallardagi (1) qo'shni atomlarning masofasini yarmi orqali aniqlanadi. Kovalent radius bo'lsa metallmas elementning yadrolar orasidagi masofani ikkiga bo'lish orqali (2) aniqlanadi. Qo'sh bog'lar oddiy bog'larga qaraganda qisqa bo'ladi. 6.3-6.5-rasmda davriy jadvalda metallik va kovalent radiusning davriy o'zgarishi keltirilgan.



6.3-rasm. Atomlar radiusining atom nomerga qarab o'zgarishi.

6.4-rasm. Metallar uchun metallik radiusi, metallmaslar uchun kovalentlik radiusi ishlatilgan.

6.5-rasm. Atom radiuslarni aniqlash sxemasi.


Endi metallik va kovalent radiuslarni, oddiy qilib atom radiuslar deymiz. Elementning ion radiusi qo'shni kation va anion yadrosi orasidagi masofani o'lchash orqali aniqlanadi (3). Bu erda ozgina aniqsizlik bor, bu ikkita ion orasidagi radius, ya'ni kation va anionlar orasidagi masofani qanday aniqlash kerak. Odatda ion radiusi O^{2-} 1,40 Å deb olinadi. Masalan, Mg^{2+} Ioni radiusi Mg^{2+} va O^{2-} ionlarining yadrolararo masofasidan 1,40 Å olib tashlab hisoblasa bo'ladi. Ba'zi ionlarning radiuslari 1.5 jadvalda keltirilgan.

1.4 jadvaldan ko'rinib turibdiki, guruh ichida atom radiusi uyqoridan pastga qarab ortadi. Shuningdek, atom radius s- va p- blok elementlar uchun chapdan o'ngga qarab kamayadi.

1.4 jadval. Elementlar atom radiusi (Å larda)

1.6. jadval. Elementlarning 1 va 2 (ba'zan yana ham uyqori) ionlanish energiyasi (eV)qiymatlari

He 13,60							He 24,59 54,51
Li 5,32 75,63 122,40	Be 9,32 18,21 153,85	B 8,30 25,15 37,93 259,30	C 11,26 24,38 47,88	N 14,53 29,60 47,44	O 13,62 35,11 54,93	F 17,42 34,97 62,70	Ne 21,56 40,96 63,45
Na 5,14 47,28 71,63	Mg 7,64 15,03 80,14	Al 5,98 18,83 28,44 119,96	Si 8,15 16,34 33,49	P 10,48 19,72 30,18	S 10,36 23,33 34,83	Cl 12,97 23,80 39,65	Ar 15,76 27,62 40,71
K 4,34 31,62 45,71	Ca 6,11 11,87 50,89	Ga 6,00 20,51 30,71	Ge 7,90 15,93 34,22	As 9,81 18,63 28,34	Se 9,75 21,18 30,82	Br 11,81 21,80 36,27	Kr 14,00 24,35 36,95
Rb 4,18 27,28 40,42	Sr 5,69 11,03 43,63	In 5,79 18,87 28,02	Sn 7,34 14,63 30,50	Sb 8,64 18,59 25,32	Te 9,01 18,60 27,96	I 10,45 19,13 33,16	Xe 12,13 21,20 32,10
Cs 3,89 25,08 35,24	Ba 5,21 10,00 37,51	Tl 6,11 20,43 29,83	Pb 7,42 15,03 31,94	Bi 7,29 16,69 25,56	Po 8,42 18,66 27,98	At 9,64 16,58 30,06	Rn 10,74
	Ra 5,28 10,15 34,20						




6.6- rasm. Element atom nomeriga mos ravishda birinchi ionlanish energiyasining o'zgarishi.

b) elektronga moyillik energiyasi

Atomga elektron biriktirganda ajraladigan energiya elektronga moyillik energiyasi deyiladi.

Elektronning birikish entalpiyasi gaz fazasida 1 ta elektron birikkanda standart molyar entalpiyaning o'zgarishidir




Elektron birikishi ekzotermik yoki endotermik bo'lishi mumkin. Davriy jadvalda ftor bilan yonma-yon turgan elementlar uchun ularning atomlari eng uyori elektronga moyillik energiyasiga ega.

1.7 jadval. Asosiy guruh elementlarida elektronga moyillik energiyasining o'zgarishi(eV larda)

H 0,754							He -0,5
Li 0,618	Be ≤ 0	B 0,277	C 1,263	N -0,07	O 1,461 -8,75	F 3,399	Ne -1,2
Na 0,548	Mg ≤ 0	Al 0,441	Si 1,385	P 0,747	S 2,077 -5,51	Cl 3,617	Ar -1,0
K 0,502	Ca +0,02	Ga 0,30	Ge 1,2	As 0,81	Se 2,021	Br 3,365	Kr -1,0
Rb 0,486	Sr +0,05	In 0,3	Sn 1,2	Sb 1,07	Te 1,971	I 3,059	Xe -0,8

g) elektromanfiylik

Kimyoviy birikma tarkibiga kirganda element atomining o'ziga elektron tortish xususiyati elektromanfiylik deyiladi. Agar element o'ziga elektron tortsa u elektromanfiy deyiladi(masalan fluor atomi). Agar atom elektron bersa, u elektromusbat (masalan ishqoriy metallar) deyiladi. Poling bo'yicha elektromanfiylikni o'zgarishi 6.7 rasmda keltirilgan.



6.7-rasm. Poling bo'yicha element atom nomeriga bog'liq ravishda elektromanfiylikni o'zgarishi.

Elementning elektromanfiyligi - kimyoviy birikmalarda atomning o'ziga elektron tortish xususiyatidir. Malliken ta'rifiga ko'ra elektromanfiylik ionlanish energiyasi va elektronga moyillik energiyalarining o'rtachaarifmetik qiymatidir.

d) qutblanuvchanlik

Atomlarning qo'shni ionlarning elektrik maydoni t'sirida egilishi qutblanuvchanlikdir(α).

1.8 jadval. Poling (X_p) va Malliken bo'yicha elektromanfiylikni o'zgarishi (X_M)

H 2,20 3,06							He 5,5
Li 0,98 1,28	Be 1,57 1,99	B 2,04 1,83	C 2,55 2,67	N 3,04 3,08	O 3,44 3,22	F 3,98 4,43	Ne 4,60
Na 0,93 1,21	Mg 1,31 1,63	Al 1,61 1,37	Si 1,90 2,03	P 2,19 2,39	S 2,58 2,65	Cl 3,16 3,54	Ar 3,36
K 0,82 1,03	Ca 1,00 1,30	Ga 1,81 1,34	Ge 2,01 1,95	As 2,18 2,26	Se 2,55 2,51	Br 2,96 3,24	Kr 3,0 2,98
Rb 0,82 0,99	Sr 0,95 1,21	In 1,78 1,30	Sn 1,96 1,83	Sb 2,05 2,06	Te 2,10 2,34	I 2,66 2,88	Xe 2,6 2,59
Cs 0,79	Ba 0,89	Tl 2,04	Pb 2,33	Bi 2,02			

Kursiv yozuvlarda Malliken bo'yicha o'zgarishlar berilgan. Atom yoki ion (ko'pincha anion) agar uni buluti oson deformasiyalansa u uyqori qutblanuvchanlikka ega, shunaqa holat erkin orbitallar uyqori to'ldirilgan orbitallarga yaqin turganida amalga oshadi. Og'ir ishqoriy metallar va galoganlar uyqori polyarizasiyalanish xossaiga ega.

Atom tuzilishi¹²

Fanga uzoq vaqt atomlar bo'linmasdir degan fikr uzoq vaqt hukm surgan. Atomlar mayda qismlarga bo'linmaydi deb hisoblangan. Ayni element boshqa elementlarga aylanmaydi deb qaralgan.

Lekin XIX asr boshlarida ingliz fizigi Dj. Tomson atomning eng kichik bo'lagi elektronni topdi. Elektron atomning eng kichik zarrachasi bo'lib u manfiy zaryadga ega. uning massasi $9,1095 \cdot 10^{-28}$ g ga teng. Uning atom massasi vodorod atomining massasidan 1843 marta kichik. Elektronning zaryadi -1.

Elektronlar manfiy zaryadlangan atomlar esa elektroneytral. Demak atomlarda musbat zaryadlangan zarrachalar ham bor. Atomlar yana ham kichik zarrachalardan iborat ekanligi radioaktivlik hodisasi ochilgandan so'ng aniqlandi/ Radioaktivlik hodisasi 1896 y. Fransus olimi Anri Bekkerel tomonidan ochildi. U uran va uning birikmalarini ko'zga ko'rinmas nurlar tarqatishini aniqladi.

Hozirgi paytda uch xil radioaktiv nurlar borligi aniqlangan. Bular α , β va γ nurlardir. bu nurlar magnit maydoni ta'sirida 3 qismga ajraladi.

α - nurlar magnit maydonida manfiy plastinkaga qarab og'adi, demak ular musbat zaryadlangan. Har qausi α - zarracha gelyi atomlaridan 2 ta elektron yoqolishidan hosil bo'lishi aniqlangan. Shuning uchun ularning zaryadi +2 atom massa gelyning atom massasiga tengdir.

¹² H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.

α –zarrachalar havodagi elektronlarni biriktirib geliy atomlariga aylanadi. β - nurlar elektronlar oqimidan iboratdir. Ular magnit maydonida musbat qutbga qarab og'adi.ularning harakat tezligi 200000 km| sek/ni tashkil etadi.

γ - nurlar qisqa elektromagnit to'lqinlaridan iborat.Ular zaryadga ega emas.Radioaktiv bo'linish o'z o'zidan katta miqdorda energiya chiqishi bilan boradi.

Atomning yadroviy tuzilishi

Birinchi atom tuzilishi to'g'risidagi nazariya 1903 y. ingliz olimi Tomson tomonidan yaratildi.Bu nazariya ion-elektron yoki statik nazariya deyiladi.Tomson nazariyasiga ko'ra atom musbat zaryadlangan doira bo'lib, bu zaryadni ichida doimo elektronlar tebranib turadi.Ana shu atomning musbat zaryadlangan qismi atomning butun qismini egallab turadi.

Lekin 1911 yilda ingliz fizigi Ernest Rezerford dinamik yoki atom tuzilishini yadroviy nazariyasini yaratdi.

Rezerford yupqa metall plastinkadan α - zarrachalarni o'tishini o'rgandi, bunda α -zarrachalarni bir qismini o'z-o'zidan ma'lum burchakka og'ishini topdi.Bu hodisa α - zarrachalarni tarqalishi hodisasi sifatida dunyoga mashhur.Bunday jarayonni Tomson nazariyasi yordamida tushuntirib bo'lmaydi.Chunki o'rtada musbat zaryadni toplanishi musbat zarrachalarni yo'nalishini o'zgartirishga qodir emas.Shu tufayli Tomson nazariyasidan voz kechishga to'g'ri keldi.

E.Rezerford α - zarrachalarni og'ishini tushuntirish uchun atomning planetar modelini yaratdi.Bu nazariyaga ko'ra atom juda kichik o'lchamga ega bo'lgan yadroga ega.Yadroda atomning butun massasi toplanagan.Yadro atrofida manfiy zaryadlangan elektronlar aylanadi.Markazdan qochma kuchlar elektronlarning yadroga tortilishiga qarshilik ko'rsatadi.

Atomning o'lchami 10^{-11} m, yadroning o'lchami bo'lsa 10^{-16} m atrofida.Ko'rinib turibdiki yadro atomga nisbatan 100000 marta kichik.Shuning uchun ham α -zarrachalar yupqa metall plastinkadagi yadrolar orasidagi masofadan o'tib ketadi va u o'z yo'nalishini o'zgartirmaydi.Agar α -zarrachalar yadrolarni yaqinidan o'tsa ular og'adi. α -zarrachalar yadrolar mavjudligini isbot etmay ularning zaryadini aniqlashga imkon beradi. Elementlarning davriy jadvaldagi tartib nomeri yadrodagi protonlar sonini hamda yadro atrofida aylanuvchi elektronlar sonini ko'rsatadi.

1913 y. Rezerfordning o'quvchisi ingliz olimi Mozli rentgen nurlarining spektrini tekshirib,element tartib nomeri bilan rentgen nurlarini to'lqin uzunliklari orasida bo'g'lanish borligini aniqladi:

$$\nu = A(z-b)$$

Bu yerda z elementning tartib nomeri; A , b o'zgarmas sonlar; ν - rentgen nurining to'lqin uzunligi.

Mozli formulasi asosida rentgen nurining to'lqin uzunligini o'lchab elementning tartib nomerini topish mumkin.

Mozli qonuni D.I.Mendeleev elementlarni davriy jadvalga to'g'ri joylashtirganini ko'rsatadi.

Rentgen nurlari spektrini o'rganish asosida $z=72$ Re elementi ochilgan.

Mozli qonuniga ko'ra elementning tartib nomeri bu oddiy nomerlash emas balki atomning musbat zaryadini qiymatini ko'rsatar ekan, atomning asosiy xossalari uning yadro zaryadiga bo'g'liqdir.

Masalan, ${}_{11}\text{Na}^{23}$ natriy atomida elektronlar 11 va protonlar 11. Protonlar va neytronlar bir zarracha nuklonlarning ikki holatini ko'rsatadi.

Protonning massasi 1,0073 u.b. ga teng bo'lib, uning zaryadi +1 ga teng. Neytronning massasi 1,0087 u.b.ga teng, uning zaryadi nolga teng.

Neytron ochilgandan so'ng 1932 y. sovet olimlari Gapon va Ivanchenko yadro tuzilishini proton-neutron nazariyasini yaratdilar. Bu nazariyaga ko'ra yadroda protonlar va neytronlar turadi.

$$N = A - Z$$

N- atomdagi neytronlar soni. A-elementning atom massasi. Z-elementning tartib nomeri.

Yadroda protonlar va neytronlarni ushlab turuvchi kuchlar yadro kuchlari deyiladi. Ular juda qisqa masofada tasir etadi (10^{-16} m).


Yadroga protonlar neytronlarga yoki teskari jarayon sodir bo'lishi mumkin.




${}_{-1}^0\text{e}$ va ${}_{+1}^0\text{e}$ elektron va pozitron

Izotoplar, izobarlar va izotonlar


Yadro zaryadi bir xil lekin atom massasi turlicha bo'lgan atomlar to'plami izotoplar deyiladi. Bu zarrachalar tarkibida neytronlar soni har xil bo'ladi.



Har xil sondagi protonlar va neytronlarga, lekin bir xil sondagi nuklonlarga (atom massasiga) ega bo'lgan zarrachalar izobarlar deyiladi.



Bir xil sondagi neytronlarga ega bo'lgan zarrachalar izotonlar deyiladi.



Atomlar spektri

Atomning yadroviy tuzilishi modda tuzilishini bilishda muhim qadam hisoblanadi. Rezerford nazariyasi ikki qarama-qarshilikka ega:

- bu nazariya atomning barqarorligini tushuntura olmadi. Musbat zaryadlangan yadro atrofida aylanayotgan elektron elektromagnit to'lqinlari tarqata borib o'z energiyasini yo'qota borishi buning natijasida elektron borgan sari yadroga yaqinlasha boradi. U hamma energiyani yo'qotgandan so'ng yadroga qulashi kerak. Ammo atomlar cheksiz uzoq vaqt barqaror va buzilmasdan tura oladi.
- atomni Rezerford bo'yicha tuzilishi atom spektrlari to'g'risida noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib keladi. Yadro atrofida aylanayotgan elektron yadroga yaqinlashib o'zining harakat tezligini doim o'zgartirib borishi kerak. Elektron tarqatayotgan nurning to'lqin chastotasi uning aylanish chastotasiga bog'liq va uzluksiz o'zgarib

borishi kerak. Demak, atomlar tomonidan tarqatilayotgan nur uzluksiz spektrga ega bo'ladi.

Shunday qilib, Rezerford nazariyasi atomlarning barqarorligi va atomlar spektrini uzlukli tabiatini tushuntirib bera olmadi.

Ma'lumki qattiq modda yoki suyuqlik tomonidan tarqatilgan nur uzluksiz tabiatga ega. Cho'g'lantirilgan gazlar va bug'larning spektri aniq to'lqin uzunligiga ega bo'ladi, bular qora chiziqli bilan bir-biridan ajralgan bo'ladi. Masalan kaliyning atom spektrida uchta chiziqli bor: 2 qizil va 1 binafsha. Bunday spektrlar chiziqli spektrlar deyiladi va ular har bir element uchun xarakterli bo'ladi.

Nurning kvant nazariyasi

Nemis fizigi Maks Plank 1920 y. da qizdirilgan moddaning nur chiqarish xossasini, moddalar tomonidan nur chiqarilishi va yutilishi uzun – uzun, y'ani diskret holda sodir bo'ladi deb baholadi.

Bunday holda nur energiyasi (E) nur chastotasi (ν) bilan quyidagicha bog'langan:

$$E = h \cdot \nu$$

Bu formula Plank formulasi deyiladi. h -proporsionallik koeffisienti yoki Plank doimiysi uning qiymati $6,626 \cdot 10^{-34}$ J/Sek.

1905 y. da Albert Eynshteyn fotoelektrik effektini o'rganish jarayonida elektromagnit to'lqinlari (nuri) kvantlar holida, nurlanish bu fotonlar holatida tarqalishini aniqladi. Bundan yorug'lik to'lqinlari zarrachalar oqimi ekan degan muhim xulosaga keldi. Fotonlarning energiyasi Plank formulasi orqali aniqlanadi. Nurning kvant nazariyasidan fotonlar bo'linmaydi degan xulosa chiqadi. Ular fotografik qog'ozda iz qoldiradi va zarra xossasini namoyon etadi. Foton korpuskulyar va to'lqin xossasiga ega bo'lib bu holat yorug'lik nurining interferensiyalanishi va difraksiyalanishida o'z aksini topadi. Demak, fotonga ham korpuskulyar ham to'lqin xossasi tegishlidir.

Elektron qavatlarining Bor nazariyasi bo'yicha tuzilishi

Daniyalik fizik Nils Bor o'z nazariyasida atomning yadro modelidan, nurlanishning kvant nazariyasi va nurlanishning uzluksizlik tabiatini hisobga olgan holda quyidagi xulosani chiqardi.

Atomdagi elektronlarning energiyasi uzluksiz o'zgarishi mumkin emas, ularning energiyasi uzlukli o'zgaradi. Shuning uchun atomda har qanday energetik holatlarda elektronlar bo'lmasdan, faqat "ruxsat etilgan" energetik holatlarda bo'ladi. Atomdagi elektronlarning energetik holatlari kvantlangan. Bir "ruxsat etilgan" orbitaldan ikkinchisiga sakrash bilan o'tiladi.

Bor nazariyasi quyidagi postulatlardan iborat:

1. Elektronlar yadro atrofida har qanday orbitalar bilan emas, ma'lum aylanma orbitalar bilan aylanadi. Bu orbitalar "ruxsat etilgan" orbitalar deyiladi.
2. "Ruxsat etilgan" orbitalar bo'yicha harakatlanishda elektronlar nur tarqatmaydi.
3. Elektronlar bir "ruxsat etilgan" orbitaldan ikkinchisiga o'tishda nur tarqatadi. Bu elektromagnit kvanti energiyasi atomning oxirgi holatdan boshlang'ich holatga o'tgandagi energiyalari farqidan topiladi.

$$h\nu = E_2 - E_1$$

E_2 va E_1 atomdagi turli energetik holatlardagi energiyalar farqi.

Bor nazariyasini ko'p yutiqlari bilan bir qatorda o'ziga xos kamchiliklari ham bor edi. Masalan bir "ruxsat etilgan" orbitaldan ikkinchisiga o'tishda qayerda bo'ladi. Shuningdek, Bor nazariyasi hatto vodorod spektrini ravshanlik sababini tushuntirib bera olmadi.

Kvant mexanikasining nazariy asoslari

1924 y.da fransuz fizigi de- Broyl korpuskulyar to'liq dualizmi nafaqat fotonlar uchun, balki elektron uchun ham o'rinli degan fikrni ilgari surdi. Ma'lum massa va tezlikka ega elektron uchun u quyidagi formulani taklif etdi.

$$\lambda = h/m \cdot v$$

m – elektronning massasi va v – harakat tezligi.

Mikrojismlarning ikki yoqlama xossalarini 1927 y.da Verner Geyzenberg tomonidan ta'riflangan noaniqsizlik prinsipi tushuntiradi.

Mikrojismlarning tezligi (yoki impulsi $p=m \cdot v$) va fazoviy holatini (koordinatlarini) bir paytni o'zida aniqlash mumkin emas. Bu noaniqsizlik prinsipi quyidagicha formulaga ega:


$$\Delta q \Delta v \geq h/m$$

Holat noaniqsizligi (Δq) va tezlik noaniqsizligi ko'paytmasi h/m dan kichik bo'lishi mumkin emas. Noaniqsizlik prinsipi mikrojismlar uchun butunlay boshqacha qonunlar qo'llanishini ko'rsatadi.


Elektron bulut

Kvant mexanikasida elektronning atomdagi holati elektron bulut orqali ko'rsatiladi. Bunday bulut yadro atrofidagi elektron bulut zichligiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Atomdagi elektronning harakati to'liq tabiatiga ega bo'lgani uchun, kvant mexanikasida u to'liq funksiyasi bilan tasniflanadi. Bu to'liq funksiyasi elektronga tegishli fazoviy koordinatlarini ko'rsatadi. To'liq funksiyasini qiymati $\psi=f(x,y,z)$ ga teng, bu yerda x,y,z koordinata nuqtalari.

To'liq funksiyasini kvadrati (ψ^2) atomlararo fazoda elektronning bo'lish ehtimolligini ko'rsatadi. Yadro atrofida 90% elektronning bo'lish ehtimoli bo'lgan fazo orbital deyiladi. Atomdagi elektronnin bo'lish ehtimolligini hisoblash va uni energiyasi bilan bog'lanishni topish ancha murakkab vazifa bo'lib u Shredinger tenglamasi orqali yechiladi. Elektron bulutlarning shakllari 6.9-6.10 rasmlarda keltirilgan.



6.9- rasm. S- va p- orbitallarning chegara sirti.



6.10-rasm. d- va f-orbitallarning chegara sirtlarini ko'rinishi.

Shredinger tenglamasi

1926 y.da Ervin Shredinger kvant mexanikasida katta ahamiyatga ega bo'lgan tenglamani yaratdi. Tenglama to'liq funksiyasi bilan elektronning fazoviy koordinatalari ,potensial energiyasi va umumiy energiya orasidagi bog'lanishni ko'rsatadi. E. Sredinger tenglamasi quyidagicha:

$$\nabla^2 \psi + 8\pi^2 m/h^2 (E-U) \psi = 0$$

Bu yerda $\nabla^2 \psi = \partial^2 \psi / \partial x^2 + \partial^2 \psi / \partial y^2 + \partial^2 \psi / \partial z^2$ to'liq funksiyasini x,y,z koordinatalar bo'yicha ikkinchi tartibli hosilasi. m-elektronning massasi; E- umumiy energiya zahirasi; h-Plank doimiysi.

Kvant sonlar

Atom orbitalarni to'la tasniflash uchun kvant sonlar to'plami qabul qilingan. Kvant sonlarga: **n** –bosh kvant son; **l**-orbital kvant son; **m_l** -magnit kvant son: **S**- spin kvant son kiradi.

1. Bosh kvant son (n) harfi bilan belgilanadi. elektronning umumiy energiya zahirasi va energetik pog'onaning nomerini ko'rsatadi. Odatda bosh kvant son butun sonlar to'plamidan iborat. Haqiqatda bosh kvant son 1 dan 7 gacha bo'lgan sonlar to'plamidan iborat. Bosh kvant son qiymati ortgan sari elektronning umumiy energiya zahirasi ortib boradi.

2. Orbital kvant son l harfi bilan belgilanadi. Orbital kvant sonining qiymati 0 dan boshlanib bosh kvant sonidan bir qiymat kam qabul qiladi. $l = n-1$

n 1 2 3 4 5 6

l 0 1 2 3 4 5

Belgisi s p d f g h

Orbital kvant soni elektron bulut shaklini elektron bulut o'lchamini ko'rsatadi. n=1 va l=0 yozuv elektron bulut shakli shar holatda ekanligini va elektron pog'onalar soni 1 tengligini ko'rsatadi.

3. Magnit kvant soni m harfi bilan belgilanadi. Elektron bulutlarni fazodagi vaziyatini ko'rsatadi. Magnit kvant soni qiymati orbital kvant soniga bog'liq. $m = 2l+1$

Elektronlar	Orbital Kvant Soni	Magnit kvant soni	Orbitallar Soni (ayni uchun) l
s	0	0	1

p	1	+1,0,-1	3
d	2	+2,+1,0,-1,-2,	5
f	3	+3,+2,+1,0,-1,-2,-3	7

Magnit kvant soni qiymati 0 ni qabul qilgan holda butun sonlar to'plamidan iborat. Uni qiymati $\pm$ qiymatlar to'plamidan iborat bo'ladi ($m=0,\pm 1,\pm 2,\pm 3,\pm \dots$).

4. Spin kvant soni s harfi bilan belgilanadi (spin- urchug'). Elektronning o'z o'qi atrofida aylanish yo'nalishini tasniflaydi. Uni qabul qiladigan qiymatlari ikkita $+\frac{1}{2}$ va $-\frac{1}{2}$.

Pauli prinsipi

Atomdagi elektronlarni holati ana shu 4 la kvant son bilan tasniflanadi. Wolfgang Pauli (1925 y.) prinsipiga ko'ra to'rttala kvant soni bir xil bo'lgan ikkita elektron bo'lishi mumkin emas.

Atomdagi elektronlarning holati to'rttala kvant soni bilan tasniflanishi mumkin (s, p, d, f). Ular elektronning spini, energiyasi, fazodagi elektron bulutning hajmi va shakli hamda yadro atrofida bo'lish ehtimolligini ko'rsatadi.

Atomning bir kvant holatdan ikkinchisiga o'tishida kvant son o'zgarib, elektron bulut o'z tuzilishini o'zgartiradi. Bunda atom energiya kvantlarini yutadi yoki chiqaradi.


Masalan, birinchi energetik pog'onadagi vodorod atomida mavjud elektronlarning kvant sonlarini topamiz. Birinchi pog'onada eng ko'pi bilan 2 ta elektron bo'lishi mumkin. Bu holat uchun bosh kvant son $n=1$, $l=0$, $m=0$ va spin kvant soni $s=+\frac{1}{2}$ ga teng.

Shuning uchun ham vodorod atomi elektron formulasi $1s^1$.

Geliy atomi uchun yadro atrofida ikkita elektron aylanadi. $n=1$, $l=0$, $m=0$ elektrolardan biri uchun spin kvant soni $+\frac{1}{2}$ ga va ikkinchisi uchun $-\frac{1}{2}$ ga teng. Geliyning elektron formulasi $1s^2$.

Ikkinchi davr elementlari uchun bosh kvant son qiymati 2 ga teng. Bu davrda elementlar litiydan boshlanib neongacha davom etadi. Litiy uchun elektron formula $1s^2 2s^1$. Bu elementdagi tashqi qavatdagi elektron uchun $n=2$, $l=0$, $m=0$, $s=+\frac{1}{2}$ ga teng.


Berilliyning elektron formulasi $1s^2 2s^2$. Bor p-elementlar qatoriga kirgani uchun uning elektron formulasi $1s^2 2s^2 p^1$. Tashqi qavatdagi p-elektron uchun $n=2$, $l=1$, $m=0$, $s=+\frac{1}{2}$ ga teng. Uglerodning elektron formulasi $1s^2 2s^2 2p^2$. Uglerodning p-pog'nachasidagi elektronlar 2 ta:




Bu elektronlar uchun $n=2$, $l=1$, $m=0$ yoki $m=-1$ va $s=+\frac{1}{2}$. Uglerodning toq elektronlari soni 2 ta. Shuning uchun ham uning valentligi 2ga teng.

Gund qoidasi. Yadro zaryadi ortishi bilan elektronlarning kvant yacheykalarga to'ldirish spin kvant sonining qiymati maksimal bo'lish tartibida amalga oshiriladi. Shu qoida 2p holatda elektronlarning joylanishida o'z aksini topgan.

Uglerodga ma'lum energiya berilsa u qo'zg'algan holatga o'tib uning valentligi 4 ga teng bo'ladi.




Azotning elektron formulasiga ko'ra $1s^2 2s^2 2p^3$.




Tashqi qavatdagi elektronlar uchun $n=2$, $l=1$, $m=0, -1, +1$ uchta qiymatga ega. Gund qoidasiga ko'ra uchala elektron uchun ham $S = +1/2$. Chunki elektron bulutlarning fazoviy holatlari uchta.


Azotdagi toq elektronlar soni 3 ta. Agar 2s va 2p –pog'onachalar hisobga olinsa eng ko'p valentlik imkoniyati 4 ga teng bo'ladi. Shuning uchun azotning valentligi 5 bo'lishi mumkin emas.



Kislorod quyidagicha elektron formulaga ega bo'lib $1s^2 2s^2 2p^4$. Kisloroddagi to'rtinchi elektron faqat spin kvant soni bilan farq qiladi. Kislorodda toq elektronlar soni ikkita, shuning uchun uning valentligi doimiy bo'lib ukkiga teng.



Ftorning elektron formulasi $1s^2 2s^2 2p^5$. Ftor atomining tashqi pog'onasidagi toq elektronlar soni bitta. Ftor doimiy 1 valentli. Ikkinchi davrning oxirgi elementi neon. Uning elektron formulasi $1s^2 2s^2 2p^6$.



2 davrda 8 ta element bor. Ulardan 2 tasi s- element. 5 –element B dan 10- element Ne gacha p-pog'onacha to'lgani uchun ular p-elementlar qatoriga kiradi.

Atomning elektron pog'onasida joylashgan elektronlar soni quyidagicha topilishi mumkin:

$$N_n = 2 \cdot n^2$$

Birinchi energetik pog'onada $N_n = 2 \cdot 1^2 = 2$ 2 ta elektron bor. Ikkinchi energetik pog'onada elektronlar soni 8 ta, ulardan 2 tasi s elektronlar 6 tasi p elektronlarga tegishli bo'ladi.

$$N_2 = 8 = 2 \cdot 2^2 = 8$$

3-energetik pog'onada $n=3$, $l=0,1,2$ $m = -3,-2,-1,0,+1,+2,+3$ bo'lgan holatda va $s = +1/2$ yoki $-1/2$ bo'lgan 18 ta elektron bor. Jami elektronlar soni :

$$N_3 = 2 \cdot 3^2 = 2 \cdot 9 = 18$$

$$N_4 = 2 \cdot 4^2 = 2 \cdot 16 = 32$$

Bir pog'onachada joylashgan elektronlar soni:

$$N_l = 2(2l+1)$$

s	2
p	6
d	10

f 14

1- pog'onachada $n=1$ $l=0$ shuning uchun va hokazo:

s- pog'onachada $N_0=2(2\cdot 0+1) = 2$

p- pog'onachada $N_1=2(2\cdot 1+1) = 6$

d- pog'onachada $N_2=2(2\cdot 2+1) = 10$

f- pog'onachada $N_3=2(2\cdot 3+1) = 14$

uchinchi davr Na ($z=11$) boshlanadi. Na va Mg($z=12$) s-elementlar.

$_{11}\text{Na } 1s^2 2s^2 2p^6 3s^1$

$_{12}\text{Mg } 1s^2 2s^2 2p^6 3s^2$

Al dan boshlab p-pog'onacha to'la boshlaydi.

p-pog'onachaning to'lishi inert gaz Ar(18) gacha davom etadi.

$_{13}\text{Al } 1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^1$

$_{18}\text{Ar } 1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6$

Agar 2 va 3 davr elementlarining bir xil guruh elementlari solishtirilsa ularning elektron tuzilishlari o'xshash bo'ladi. Demak, elementlarning davriy jadvalda joylanishi ularning atomlarini elektron tuzilishiga mos keladi.

Argonda 3s va 3p energetik pog'onalar elektronlarga to'lgan, lekin 3d pog'ona bo'sh. To'rtinchi davr elementlari argondan keyin keladigan $_{19}\text{K}$ va $_{20}\text{Ca}$ da 3 energetik pog'onaning to'lishi vaqtinchalik to'xtaydi. d pog'onacha o'rniga 4s qavatcha to'la boshlaydi.

$_{19}\text{K } 1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^1$

$_{20}\text{Ca } 1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^2$

4s pog'onadagi elektronlar 3d pog'onadagiga qaraganda kamroq energiya zahirasi ega. Shuning uchun ham K va Ca da tashqi elektron qavatlarining to'lishi atomning barqaror holatiga mos keladi.

4s pog'onadaga elektronlarni to'ldirish V.M.Klechkovskiy(1900-1972) qoidasiga asoslanib amalga oshirilishi mumkin. Bunda eng asosiy ko'rsatkich bosh(n) va orbital(l) kvant son hisobga olinadi.

Klechkovskiyning I qoidasi. Atomning yadro zaryadi ortishi bilan elektronlarni pog'onachalarga to'ldirish ketma-ketligi bosh va orbital kvant sonlar yig'indisi ($n+l$) ortib borish tartibida amalga oshiriladi. Masalan, kaliy uchun 3d 4s 4p holatlar uchun shu qoida hisobga olinsa 3d holat uchun $n=3$ $l=2$ $n+l=5$. Agar 4s holat amalga oshirilsa $n=4$ $l=0$ $n+l=4$.


Agar 4p holat to'ldirilsa edi $n=4$ $l=1$ $n+l=5$. Klechkovskiy qoidasiga ko'ra 4s holat uchun $n+l$ qiymati eng kichikligi ko'rinib turibdi.

21 element Scandiy atomining tuzilishi qaralsa, bunda 3d4s4p pog'onachalar to'ldirilishi hisobga olinsa 3d uchun $n=3$ $l=2$ $n+l=5$. 4s pog'onachaning to'lishi hisobga olindi. 4p pog'onachada bo'lsa $n=4$ $l=1$ $n+l=5$. Demak, $n+l$ 3d holatda ham va 4p holatda ham bir xil qiymatga ega bo'lib qoldi.


Elektron orbitalarda n qiymati qancha katta bo'lsa elektronning energiyasi shuncha yuqori bo'ladi. Kvant yacheykalarni elektronlar bilan to'ldirish Klechkovskiyning ikkinchi qoidasiga ko'ra olib boriladi.

Klechkovskiyning II qoidasi. Atomning yadro zaryadi ortishi bilan bosh va orbital kvant sonlari bir xil bo'lganda ($n+l$) elektronlarni



pog'onachalarga to'ldirish bosh kvant sonining qiymati ortib borish tartibida amalga oshiriladi. Sc atomida shu qoida amalga oshirilgan va elektronlarni d-pog'onachaga joylashtirish kerak.



Keyingi keladigan elementlarda elektronlarni to'ldirish yuqoridagi qoida asosida olib borilgan.




Sc-Zn orasida keladigan elementlar d-elementlar jumlasiga kirib, ularda elektronlarni to'lishi tashqaridan ikkinchi qobiqni joylanishi bilan amalga oshadi. Lekin 24 element Cr va 29 element Cu da bu qoidadan chetlanish ro'y beradi. Xrom va mis atomlarida elektronlarning 4s holatdan 3d holatga sakrashi ro'y beradi.




Xrom va misning bunday holati pog'onachalardagi elektronlarning s-dan d-ga o'tishida yuqori energetik barqaror holatga o'tishi bilan tushuntiriladi. Atomning ayni holatga o'tishida kamroq energiyali holatga o'tish kuzatiladi.






31 element Galliy p-elementlar qatoriga kiradi. Shu tufayli galliyda p-pog'onacha elektronlarga to'ladi:



p- pog'onachani to'lishi Kr gacha davom etadi.



Beshinchi davr elementlari ${}_{37}\text{Rb}$ va ${}_{38}\text{Sr}$ s-elementlar qatoriga kiradi. Ularning atomlari quyidagi tashqi elektron konfiguratsiyaga ega: $5s^1$ va $5s^2$. Keyingi elementlar ${}_{39}\text{Y}$ (ittriy) dan ${}_{48}\text{Cd}$ gacha davom etadi.




Oltinchi davr elementlari Cs va Bariydan boshlanib ular s-elementlarga kiradi.


6 davr elementlari $2s^1$ (Cs, Ba) boshlanadi. Bularda orbitallar $n+1$ ortib borish tartibida to'lib boradi. Bu elementlar tashqi elektron konfiguratsiyasi: $6s^1$ va $6s^2$. 6 davrning 3 guruh elementi qatoriga La kiradi. Bu element lantanoidlar qatorini hosil qiladi.





Lantanda 4f pog'onacha to'lishi kerak edi. Bu chetlanish vaqtinchalik sodir bo'ladi. Keyingi element seriydan boshlab 4f pog'onacha to'la boshlaydi:



Ushbu tartib Lu gacha davom etadi:




72 element Gafniy d-element qatoriga kiradi. Hf dan Hg gacha d-pog'onani elektronlarga to'lishi amalga oshadi:






Tl dan boshlab 6p-pog'onani elektronlarga to'lishi ro'y beradi.

${}_{81}\text{Tl} \quad 1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10} 4s^2 4p^6 4d^{10} 4f^{14} 5s^2 5p^6 5d^{10} 6s^2 6p^1$ Bu pog'onachani to'lishi Rn gacha davom etadi.



Yettinchi davr elementlari Fr va Ra s-elementlar hisoblanadi. Bu elementlar eng tashqi elektron konfiguratsiyalari $7s^1$ va $7s^2$. 89 element Ac da lantanga o'xshash vaqtinchalik d- pog'onachani elektronlarga to'lishi sodir bo'ladi. Toriy f-element jumlasiga kirib uning elektron formulasi:



Shunday qilib 10 ta elementda elektronlar ko'chishi kuzatiladi (${}_{24}\text{Cr}$, ${}_{29}\text{Cu}$, ${}_{41}\text{Nb}$, ${}_{42}\text{Mo}$, ${}_{45}\text{Rh}$, ${}_{47}\text{Ag}$, ${}_{78}\text{Pt}$, ${}_{79}\text{Au}$), 1 ta elementning tashqi qavatida elektron qolmagan (${}_{46}\text{Pd}$). 104 elementdan 109 elementgacha hozirgi paytda o'rganilgan. Ular d-elementlar qatoriga kirib radioaktiv elementlardir.

Atomlar davriy xossalari

Elektronlar ham to'lqin ham zarra xossaga ega bo'lgani uchun atomning aniq o'lchamini topish qiyin. Atomning absolyut chegarasini topib bo'lmaydi. Hisoblarda effektiv yoki ayni lahzadagi o'zgaruvchi atom radiusidan foydalaniladi. Atomning radiusi eng muhim kattaliklardan biridir. Atomning radiusi qancha katta bo'lsa uning tashqi elektroni shuncha bo'sh bog'langan. Davrda atomning radiusi chapdan o'ngga qarab kamayadi. Guruhlarda bo'lsa yuqoridan pastga qarab ortadi.

Ionlanish energiyasi(I). Atomdan 1 ta elektron uzib chiqarish uchun kerak bo'ladigan energiyaga ionlanish energiasi deyiladi. Davrda ionlanish energiasi chapdan o'ngga qarab ortib boradi. Guruhda yuqoridan pastga qarab ionlanish energiyasi kamayadi.

Elektonga moyillik energiyasi(E). Atomga 1 ta elektron biriktirganda ajraladigan energiyaga aytiladi. Elektonga moyillik energiyasining qiymati ionlanish energiyasiga o'xshash bo'ladi.

Elektromanfiylik(X=I+E). L. Poling taklifiga ko'ra atomning o'ziga elektron tortish xususiyatiga elektromanfiylik deyiladi. Li ning elektromanfiyligi 1 deb qabul qilingan. Ftorning nisbiy elektromanfiyligi 4,1 ga teng. Bu nisbiy elektromanfiylikni ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.

3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. N. A. Parpiyev, H. Rahimov, A. G. Muftaqov. Anorganik kimyoning nazariy asoslari. T., "Ozbekiston", 2002.
5. N.A.Parpiyev, A.G.Muftaxov, H.R.Rahimov, Anorganik kimyo. "O'zbekiston", 2003.
6. Д.А.Князев. Неорганическая химия: учеб. для ВУЗов /Д.А.Князев, С.Н.Смарыгин.-3-изд.испр.-М.:Дрофа, 2005.- С.591.
7. Общая химия. Биофизическая химия. Химия биогенных элементов: Учебник для ВУЗов/ Ю.А.Ершов, В.А.Попков, А.С.Берлянд и др.; под ред. Ю.А.Ершова- 4 изд.,-М.: Высш.шк.,2003.- 560 с. ил.
8. Е.Я.Левитин, А.Н.Бризицкая, Р.И.Клюева Общая и неорганическая химия: Учебник для студентов фармац. ВУЗов и фармац. Фак. медВУЗов.Х.:Изд-во НФАУ: Золотые страницы, 2002.- С. 536 .
9. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya "-5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.
10. H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
11. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

Jonlantirish uchun savollar:

- 1.Atom tuzilishi.Atomning yadro modeli.
- 2.Izotop,izobar, izotonlar. Nurning kvant nazariyasi.
- 3.Bor nazariyasi bo'yicha atomdagi elektron qavatlarini tuzilishi.
4. De-broyl tenglamasi.to'lqin tenglamasi.
5. Elektronlarning atomdagi kvant sonlari(n, l, m, s).
- 6.Pauli prinsipi.
- 7.Hozirgi zamon atom tuzilishi nuqtai nazaridan D.I.Mendeleyevning davriy sistemasi va davriy qonuni.

4- ma'ruza

3.7. Molekula tuzilishi va kimyoviy bog'lanish. Valent boglanishlar usuli. Molekulyar orbitallar nazariyasi. Molekulalar simmetriyasi to'g'risida tushuncha


Ma'ruzaning maqsadi: Kimyoviy bog'lanish kimyo fanining nazariy asoslarini tashkil etadi. Shuning uchun ham kimyoviy bog'lanishni bilish mutaxassislik bo'yicha fanlarni puxta egallashga yordam beradi. Ayniqsa dori moddalarning ta'sir qilish mexanizmini tushunish uchun molekuladagi atomlarning bog'lanish tartibini yaxshi tushunish kerak.

Ajratilgan vaqt - 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. Kimyoviy bog'lanish tabiati.
2. Kovalent bog'lanish. kovalent bog'lanish hosil qilish usullari.
3. Bog'ning yo'naluvchanligi va to'yinuvchanligi.
4. Gibridlanish nazariyasi.
5. Markaziy atomdagi bo'linmagan elektronlar juftining molekula tuzilishiga ta'siri.
6. Molekulyar orbitallar usuli.
7. Ikki atomli gomoyadroli birikmalar.
8. Ikki atomli geteroyadroli birikmalar.
9. Ion bog'lanish. Vodorod bog'lanish. Metall bog'lanish.
10. Molekuladagi o'zaro ta'sirlar.

Tayanch so'zlar: kimyoviy bog', valent bog'lanishlar usuli, molekulyar orbitallar usuli, ion bog'lanish, metal bog'lanish, molekularo ta'sirlar.



Molekula tuzilishi va kimyoviy bog'lanish. Valent boglanishlar usuli. Molekulyar orbitallar nazariyasi. Molekulalar simmetriyasi to'g'risida tushuncha¹³

¹³ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 34-57.

Kimyoviy birikmalar elektron tuzilishi va ularning kimyoviy xossalari orasidagi boglanishni bilish noorganik kiyoning ko'pdan ko'p muammolarini echishga yordam beradi. Kovalent bog' ning bo'lingan elektron juftlar bilan bog'lanishi 1916 y. G.N. Luyis tomonidan bayon etilgan.

Hozirgi paytda kimyoviy bog'lanish mohiyati ancha chuqurlashdi (nazariy va amaliy jihatdan), ayniqsa molekulyar orbitallar usulini keng tarqalishi oqibatida kimyoviy bog' yanada keng ishlatila boshlandi.

Luyis strukturalari **Lewis structures**

Luyis taxminicha kovalent bog' ikki atom electron juft hosil bo'lganida ular orasida bog' hosil bo'ladi. Bir juft elektron umumalshsa $A-B$, qo'sh bog'da ikki juft electron umulshsa $A=B$

va uch juft elektrondan $A\equiv B$ hosil bo'ladi. Bog' hosil qilishda qatnashmagan elektronlar bo'lmagan yoki erkin elektronlar deyiladi, Bo'linmagan elektronlar jufti atomlar bog'lanishida ishtirok etmasa ham molekulaning shakli va uning kimyoviy xossalari kuchli ta'sir etadi.

7.1. Oktet qoidasi **The octet rule**

Turli tuman molekulalarning hosil bo'lishini oktetlar qoidasi asosida tushuntirishni Luyis aniqladi. Har bir atom qo'shni atom bilan 8 elektronli valent qavat hosil qilishga intiladi.

Bu holat inert gazlar uchun yopiq electron qavat s- va p-orbitallar hisobiga inert gaz konfiguratsiyasiga yetishga asoslanadi. Faqat bitta vodorod atomida s- qavatcha to'lishi uchun 2 ta elektron talab qilinadi.

Oktetlar qoidasi Luyis strukturalari tuzishni eng oddiy usulini ifodalaydi, bunda bog'larning joylanishi va bo'linmagan elektronlar juftini aniq ko'rsatadi. Ko'p holatlarda Luyis strukturalari uch bosqichda yasalanadi:


1. Atom tomonidan beriladigan barcha elektronlar qo'shiladi. Har bir atom bog' hosil qilishda o'zining hamma elektronlarini beradi. (masalan. H- 1 ta electron beradi va kislorod bo'lsa $[\text{He}]2s^2 2p^4$ — konfiguratsiya bo'yicha 6 ta electron beradi). Ionning manfiy zaryadi undagi ortiqcha elektronni, har bir musbat zaryad I taga elektronlar kamayishiga mos keladi.
2. Kimyoviy simvollar shunday yozilishi kerakki, ularning joylanishi kimyoviy bog' hosil bo'lganlagani ko'rsatsin. Elektromanfiyligi kam atom molekulada markaziy atom bo'ladi lekin ((masalan, CO_2 yoki SO_4^{2-}), yaxshi ma'lum istisnalar ham bor (ularni ichida H_2O va NH_3).
3. Elektron juftlarni shunday taqsimlash kerakki, atomlar orasida I juft elektron bo'lsin, keyin electron juftlarni qo'shishni davom ettiriladi, agar bo'linmagan elektronlar jufti yoki karrali bog'lar bo'lsa, toki bunda oktet valent elektronlar hosil bo'lgunicha davom ettiriladi. Har bir electron juftni 1 ta bog'ga almashtirish mumkin.

BF_3 elektron tuzulishi(2) va PF_3 uchun Luyis strukturalari keltirilgan



7.1. jadval. Ba'zi oddiy molekullarning Luyis strukturalari

Table 2.1 Lewis structures of some simple molecules*




Oktetlar qoidasi 2 va 3 atomli molekullarning tuzilishini to'g'ri ko'rsatadi. Molekulaning geometric shaklini ko'rsata olmaydi. Masalan, BF_4^- ioni haqiqatda tetraedr (2), tekis kvadrat emas, PF_3 molekulasida trigonal piramida shaklda (2).

Kovalent bog' bo'lingan elektronlar jufti hisobiga hosil bo'ladi; atomlar valent qavatni oktetga to'lgunicha davom ettiradi.

NO_3^- ionining rezonans strukturalari (6) da keltirilgan.

Luyis strukturalari orasidagi rezonans molekulaning hisoblangan energiyasini kamayishga olib keladi va bog'larni xarakterini modellaydi hamda bji'ning molekula ichida taqsimlanishiga olib keladi. Bir xil energiyaga ega bo'lgan luyis strukturalari eng kata baqaror rezonans strukturani namoyon etadi.



7.2 Valent qavatchada elektron juftlarning itarilish modeli (VQEJIM) **Valence shell electron pair repulsion (VSEPR) model**

Valent qavatchada elektron juftlarning itarilish modeli (VQEJIM) yoki Модель отталкивания электронных пар валентной оболочки (ОЭПВО)] — Luyis fikrlaini kengaytirilgan shaklidir va u ko'p atomli molekullar tuzilishini baholasda juda kerakli bo'lib chiqdi. Bunay qarash 1940 y. N. Sidjbik va G. Payll tomonidan ishlab chiqilgan hamda keyinchalik R. Gillepsi va R. Nayxolm tomonidan hozirgi bosqichga ko'tarilgan.

a) Assosiy shakllar


Birinchi taxmin sifatida VQEJIM modelida elektron bulutlarning zichlangan sohada bo'lingan, bo'linmagan, karrali bog'lar bir-biridan ancha uzoqda turib, ularning o'zaro itarilishi juda kam bo'lishi kerak. Misol uchun, 4 ta shunday bulut to'g'ri tetraedrning qirralarida joylashgan, yoki 5 elektron bulut trigonal bipiramida qirralarini egallaaydi (3.6 jadval). Xullas, SF_6 molekulasida markaziy

atom S oltita oddiy bog'ga ega, markaziy atom taxminan (haqiqatda ham) oktaedr shakliga ega (13), PCl_5 melrkulasi bo'lsa 5 ta oddiy bog bilan trigonal bipiramida hosil qilib bog'langan(14)^{14, 15}.

7.2 - jadval. Elektron juftlarning VQEJIM modeli asosida joylanish geomenrik shakli

Elektron juftlar soni	Geometrik shakl
2	Chiziqli
3	Tekis uchburchak
4	Tetraedr
5	Trigonal bipiramida
6	Oktaedr

Elektron bulutlarning uyqori zichlikka ega sohasi(bo'linga va bo'linmagan elektronlar ham) molekulaning shaklini uyzaga kelishida muhim rol o'ynasa ham bunday shakllarning nomi atomlarning joylanish tartibi bilan aniqlanadi.(3.7-jadval).Masalan, NH_3 molekulasito'rtta elektron juftga ega , lekin ulardan bittasi bo'linmagan elektronlar jufti, molekulaning o'zi bo'lsa trigonal piramida shakliga ega. N atomi qirralaridan birida bo'linmagan elektronlar jufti joylashgan. Xuddi shunday suv molekulasi ham elektron juftlarning tetraedrik joylashuviga ega, lekin markaziy atom ikki juft elektronga ega bo'lgani uchun joylashuv burchakli bo'lib qolgan.



VQEJIM modeliga ko'ra karrali bog'lar juda oddiy elektron zichlik uyqori bo'lgan soha deb qaraladi. Ana shu tufayli, $\text{O}=\text{C}=\text{O}$ molekulasi chiziqli tuzilishga

¹⁴ Гиллеспи Р., Харгиттай И. Модель отталкивания электронных пар валентной оболочки и строение молекул. Пер. с англ.— М.: Мир, 1992

¹⁵ Bader R. F. ИЛ, Gillespie R. J., MacDougall P. J., J. Am. Chem. Soc., 110, 7329 (1998)

ega, chunki uglerod atomlari chiqli joylashgan ikki joyda electron zichligi uyqori bo'lgan sohaga ega. Bunday yondoshuv rezonans nazariyasi duch keladigan qiyinchiliklardan xolidir. SO_4^{2-} ga to'g'ri keladigan ikkita luyis kislotalari (S atomi octet elektronlarga ega va $\text{S}=\text{O}$ da ikkita qo'sh bog' va ikkita oddiy bog' mavjud) taxminan tetraedrik shaklda bo'ladi.

VQEJIM modelida aks etgan holatlar muvaffaqiyat bilan ishlatilsa ham, elektron juftlarning ana shunday joylanishi to'g'risida aniq isbotlar mavjud emas. Buning ustiga asosiy molekulalarning geometrik shakllaridagi holatlar bir munch kam itarilishga ega, atom va molekulalarning umumiy energiyaning kamayishiga olib keladigan boshqacha muqobil holatlari ham mavjud. Misol uchun, kvadrat-piramidal joylashuv trigonal-bipiramidal joylashuvdan ancha kattaroq energiyaga egaligini e'tiborga olamiz (15).

Uyqori elektron zichligini asosiy shaklini to'g'ri oldindan aytish juda oson emas, chunki juda ko'p konformasion holatlar energiyalari bir-biriga yaqin energiyaga ega bolladi. Agar p-blok og'ir elementlai olinsa, bo'linmagan elektronlar jufti mokekulaning shakli kamroq ta'sir etadi. Masalan, SeF_6^{2-} va TeF_6^{2-} ionlari Se va Te ham bo'linmagan elektronlar jufti bo'lishiga qaramasdan oktaedrik tuzilishga ega. Molekulaning geometric shakliga ta'sir etmaydigan bolinmagan elektronlar jufti steoxeometrik inert deb uyritiladi.

VQEJIM modeli elektron bulutlarning uyqori zichlikka ega bo'lgan sohasi bir-biridan imkoni boricha uzoqroq joylanishga intilishni taxminlaydi, molekulalarning geometrik shakli bo'lsa olingan strukturada atomlarning joylanish tartibi bilan belgilanadi.

7.3. Valent bog'lanishlar usuli Valence bond theory

Valent bog'lanishlar usuli (VBU) Luyis nazariyasini to'lqin mexanikasiga oid holatda qo'llangan birinchi bog'ning kvant-mexanik nazariya edi. Komputlar texnologiyasini rivojlanishi uni molekulyar orbitallar usuli bilan siqib chiqarilishiga olib keldi, lekin VBU terminlari, usulning mohiyati hali ham ishlatiladi.

Vodorod molekulasi

Izolirlangan ikkita vodorod atomi uchun ikki elektronli to'lqin funksiyasi quyidagicha yoziladi:

$$\psi = \psi_A(1)\psi_B(2),$$

Bu yerda ψ — ls orbital bo'lib, H atomi uchun J tang. Atomlar biriga yaqilashsa elektron qaysi atomga tegishli bilib bo'lmaydi. Bunda mana bu holat ham o'rinli:

$$\psi = \phi_A(2)\phi_B(1),$$

$\psi = \phi_A(2)\phi_B(1)$, ikkinchi elektron A atomda, birinchi elektron B atomda bo'ladi.

Kvant mexanikasida ikkita to'lqin funksiyasi teng ehtimollikka ega

$$\psi = \phi_A(1)\phi_B(2) + \phi_A(2)\phi_B(1)$$

VBU lida elektron juftning to'lqin funksiyasi molekula alohida fragmentlari tolqin funksiyalarining yig'indisiga teng. Molekulaning potensial energiyasi


yadrolar aro masofaga bo'liq ravishda molekulyar energiyaning o/zgarishini ko'rsatadi.

7.3. jadval. Molekulaning geometriyasini bayoni

Molekulaning shakli	Molekulalar	Zarrachalar
Chiziqli		HCN, CO ₂
Burchakli		H ₂ O, O ₃ , NO ₂ ⁻
Trigonal bipiramida		BF ₃ , SO ₃ , NO ₃ ⁻ , CO ₃ ²⁻
Tekis uchburchak		NH ₃ , SO ₃ ²⁻
Trigonal piramida		
Tetraedr		CH ₄ , SO ₄ ²⁻ , NSF ₂ ^{a)}
Tekis kvadrat		XeF ₄
Kvadrat piramida		Sb(Ph) ₅
		PCl ₅ (r.), SOF ₄ ^{a)}
Oktaedr		SF ₆ , PCl ₆ ⁻ , IO(OH) ₅ ^{a)}


Bir xil yadroli ikki atomli molekullar

Azot molekulasinig tuzilishi har bir atomning electron konfiguratsiyasi sosida qarab chiqiladi. Azot atomi electron konfiguratsiyasi : N 2s²2p_x2p_y2p_z. Bunda σ- va π- bog'lar hosil bo'ladi (3.4-3.5).



7.1- rasm. σ -bog' hosil bolishida ikkita p-orbitalning qoplanishi.


7.2- rasm π -bog'ning VBU hosil bo'lishida ikkita toq elektronlarning bir-birini qoplashi.



7.3- rasm. Azot molekulasining hosil bo'lishini valent bog'lanishlar usuli biln bayon etish: ikkita electron σ - bog' va ikki juft elektron bog' hosil qilgan. Chiziqli molekulalarda x va y ma'lum yo'nalishga ega emas, π bog' silindrik simmetriyaga ega bo'ladi.

a) gibridlanish (c) Hybridization

14(IV) guruh elementlarida AB_4 molekulasida uchta σ -bog' bir xil bo'lib(ular ψ_B u ψ_A 2p orbitallardan hosil bo'lgan va 4 σ -bog' boshqacha xarakterga ega. Eksperimental natijalar 4 la bog' bir xil qiymatga egaligini ko'rsatadi(3.4 rasm).







7.4-rasm. To'rtta sp^3 gibrid orbitallarning ko'rinishi. Bog'larning har biri tetraedr qirralariga yo'nalgan.

7.5.Koordinasion songa bog'liq holatda gibridlanish turlari

Table 2.4 Some hybridization schemes

Coordination number	Arrangement	Composition
2	Linear	sp, pd, sd
	Angular	sd
3	Trigonal planar	sp ² , p ² d
	Unsymmetrical planar	spd
	Trigonal pyramidal	pd ²
	Tetrahedral	sp ³ , sd ³
4	Irregular tetrahedral	sp ² d ² , p ³ d, pd ³
	Square planar	p ² d ² , sp ² d
	Trigonal bipyramidal	sp ³ d, spd ³
5	Tetragonal pyramidal	sp ² d ² , sd ⁴ , pd ⁴ , p ³ d ²
	Pentagonal planar	p ³ d ²
	Octahedral	sp ³ d ²
6	Trigonal prismatic	spd ⁴ , pd ⁵
	Trigonal antiprismatic	p ³ d ³



7.4. Molekulyar orbitallar usuli **Molecular orbital theory**

H₂ ning molekulyar orbitallari 1 s orbitallardan hosil bo'lgan:

$$\psi_+ = \phi_A + \phi_B$$

Ikkita 1 s orbitallarning hissalariteng bo'lib ($C_A^2 = C_B^2$), lekin koeffisientlar har xil ishoraga ega. ($C_A = 1$, $C_B = -1$):

$$\psi_- = \phi_A - \phi_B$$


6) bog'lovchi va bo'shashtiruvchi orbitallar

ψ_+ — orbital bog'lovchi orbitaldir. Bu orbital elektronlar bilan band bo'lsa, molekulaning energiyasi izolirlangan atomlardan kichik bo'ladi.

ψ_- — orbital bo'shashtiruvchi orbitaldir (3-11-3.13 rasmlar). Bu orbital elektronlar bilan band bo'lganida molekulaning energiyasi alohida atomlarga nisbatan ancha uyqori bo'ladi.

Pauli prinsipiga ko'ra har qanday molekulyar orbitallarda elektronlar ikkita va ular juftlashgan.

(11). Vodorod molekulasida kichik energiyaga ega, chunki ikkita elektron ψ_+ bog'lovchi orbitallarga joylasgan (3.11 rasm).




7.5-rasm. Vodorod molekulasining va boshqa o'xshash molekulalarning energetik pog'onalari

7.6-rasm. Bog'lovchi orbitallarning to'lqin funksiyalarini nqo'shilishi.

7.7-rasm. Bo'shashtiruvchi orbitallarning to'lqin funksiyalarini ayrilishi.

3.8. Gomoyadroli ikki atomli molekulalar

Fotoelektron spektroskopiya va kompyuterdagi hisoblar asosida Li_2 dan azotgacha molekulalarinig tuzilishi ko'rsatilgan (7.8- rasm).



7.8- rasm. Li dan azotgacha hisoblash asosida tuzilgan molekulyar orbitallar.





Рис. 7.9. Ikkinchi davr elementlari uchun gomoyadroli ikki atomli molekulalar uchun MO da elektronlarning taqsimlanishi.



Rasm 7.10. NH_3 molekulasi uchun molekulyar orbitallarda energetik pog'onalarining taqsimlanish diagrammasi

Rasm 7.11. SF_6 uchun energetik pog'onalarda molekulyar orbitallarning ko'rinishi.

7.6-jadval. Bog'lar entalpiyasi qiymatlari

Table 2.8 Mean bond enthalpies, $B/(\text{kJ mol}^{-1})^*$

	H	C	N	O	F	Cl	Br	I	S	P	Si
H	436										
C	412	348 (1) 612 (2) 837 (3) 518 (a)									
N	388	305 (1) 613 (2) 890 (3)	163 (1) 409 (2) 946 (3)								
O	463	360 (1) 743 (2)	157	146 (1) 497 (2)							
F	565	484	270	185	155						
Cl	431	338	200	203	254	242					
Br	366	276				219	193				
I	299	238				210	178	151			
S	338	259	464	523	343	250	212		264		
P	322 (1)									201 480 (3)	
Si	318			466							226

* Values are for single bonds except where otherwise stated (in parentheses); (a) denotes aromatic.

7.5. Molekulalarning simmetriyasi¹⁶

Simmetriya nazariyasi noorganik kimyoda juda katta rol o'ynaydi. Simmetriya molekulaning fizik xossalarini aniqlashga imkon beradi va reaksiyaning mexanizmi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Simmetriyaning sistematik tahlili guruhlar nazariyasiga asoslangan.

Simmetriya nazariyasi asosida molekula o'zi amalga oshiradigan(masalan ma'lum burchakka burilish) qanaqadir harakat tushuniladi. Bunga suv molekulasini HOH burchagi bissaktrissasi atrofida 180 °S burchakka burilish operatsiyasini olish mumkin . Har bir simmetriya operatsiyasi bilan simmetriya elementi bog'langan- nuqta,chiziq, tekislik va shularga nisbatan simmetriya operatsiyasi amalga oshiriladi. Eng muhim simmetriya operatsiyalari va ularga mos keluvchi elementlar 4.1 jadvalda keltirilgan. Bu operatsiyada molekulada hech bo'lmasa bitta nuqta o'zgarmay qolishi kerak, shuningdek molekulaning markazi ham o'zgarmay qolishi kerak, shuning uchun ham bu operatsiyalar nuqtalar guruhi simmetriyasi deyiladi.

Birlamchi simmetriya operatsiyasidabutun molrkula o'zgarmay qoladi.Har bir molekula hech bo'lmasa shu simmetriyaga ega bo'ladi(ba'zilar faqat shunga ega boladi), shuning uchun hamma molekulalarning simmetriya bo'yicha tasniflash kerak. Suv molekulasining 180 °S burchak bilan bissektressa burchagi HOH bo'yicha burish o'q bo'yicha ikkinchi tartibli simmetriya C_2 (7.7-jadval). Umuman olganda , aylanish simmetriya opersiyasi hisoblanib, 360 ° burilganida molekula o' holatiga kelishi kerak.

¹⁶ Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.


7.7- jadval. Ba'zi bipr operatsiya simmetriyalari va ularga mos keluchi simmetriya elementlari

Simmetriya elementlari	Simmetriya operatsiyalari	Simvol
n-tartibli aylanadigan simmetriya o'qi	Birlamchu operatsiya	E
Oynada aks etuvchi tekislik	Aylanish $2\pi/n$	C_n
Inversiya markazi	Aks etish	σ
Oynada aylanma o'q	Inversiya	i
n-tartibli simmetriya	Aylanish $2\pi/n$	S_n
	Aylanish oqiga perpendikulyar keyin aks etish bilan	

Simmetriya elementi fazo bir butun olinishi mumkin.

$S_1 = \sigma$, $S_2 = i$

Mos ravishda simmetriya elementi, C_n n-tartibli bo'lib, o'z atrofida burulishi mumkin. Trigonal piramida turdagi molekulaga ega bo'lgan NH_3 uchunchi tartibli simmetriyaga ega, bu simmetriya elementi bilan ikkita operatsiya bog'langan 120° soat strelkasi boyicha aylanishs va soat strelkasiga teskari aylanish (4.2 rasm).




7.12-rasm. H_2O molekulasini HOH bissektressasi asosida har qanday burchakka burish mumkin, lekin 180° S (C_2) burilsa u o'zi bilan qo'shilib ketadi.

7.13- rasm. NH_3 molekulasida aylanish o'qi 3- tartibli va unga mos keladigan element simmetriyalari. Bu o'q bilan ikkita simmetriya operatsiyasi bo'langan: 120° oS ga burish (C_3^+) va -120° oS ga burish (C_3^-).

Bu ikki operatsiya C_3^+ va C_3^- deb belgilanadi. C_2^+ va C_2^- bir xil, shuning uchun oq/simmetriyasi C_2 faqat bitta simmetriya operatsiyasi uyzaga keladi (H_2O ga o'xshash). 7.13-rasmda ko'rinib turibdiki, ikkita tekislikda suv molekyulasining ko'rinishi bu simmetriya operatsiyasidir, unga mos keladigan simmetriya elementi-tekislikning oynadagi aksidir- σ . Suv molekulasi ikkita oynadagi aksiga ega, ya'ni burulish o'qiga yonma-yon, ular indekslar bilan belgilanadi σ_v va $-\sigma_v'$.

Benzol molekulasi C_6H_6 tekislikda simmetriyaga ega σ_{h1} u molekulaning tekisligida yotadi. Agar tekislik gorizontol holatda joylashgan bo'lsa h indeksi qo'uiladi, molekulaning eng asosiy burulish o'qiunga perpendikulyar bo'ladi. Bu molekulaning ikki xil oynada uch turdagi tekisligida aks etadigan aksi bor, u 6 tartibli oq bilan kesishadi (4.4 rasm).




7.14-rasm. Suv molekulasidagi ilkkita vertikal tekislikda oyna aksi σ_v va σ_v' va unga mos keladigan simmetriya operatsiyalari. Ikkala tekislik ham C_2 o'qidan o'tadi.

7.15-rasm. Benzol halqasining ba'zi br simmetriya elementlari. Bu erda bitta gorizontalk tekislik simmetriyasi mavjud σ_h va ikkita oynali vertikal tekislikdagi aksiga ega (σ_v va σ_v'); Har bir toplamdan bittadan misol keltirilgan.

Benzol halqasidagi C atomlari turgan tekislik(va ularga mos simmetriya operatsiyalari) σ_v deb belgilanadi, C₂– σ_d atomlari orasidagi tekislik bissektressalari o'tadi. Indeks d-«dihedral» va bu tekislik ikki o'q C_2 (C-H bog'lar oqi) orasidagi burchakni teng ikkiga bolinishini ko'rsatadi. Inversiya operatsiyasi bu nuqtani aks etishidir. Agar har bir atom va shu nuqta orqali to'g'ri chiziq otqazilsa, unda aks ettirilgan atomlar dastlabki atomlar turgan o'sha chiziqlarda va o'sha masofalarda yotadi, faqat markaziy atomning boshqa tomonida joylashgan bo'ladi (7.15-rasm).

CO₂ molekulasida bu nuqta C_2 atomda joylashgan, inversiya operatsiyasida o'z joyini ikkita kilorod atomlari o'zgartiradi.



7.16- rasm. SF₆ molekulasida uchun inversiya operatsiyasi va inversiya markazi.

7.17- rasm. Inversiya operatsiyasi (a) va ikkinchi tartibli o'q atrofida aylanishi (b) bir-biridan ajratish kerak, ba'zan bu ikki operatsiya bir xil natijaga olib kelishi mumkin.

Oktaedrik molekula (masalan, SF₆), bu nuqta molekulaning o'rtasida yotadi (S atomlarida), inversiya bo'lganida qarama-qarshi turgan fluor atomlari o'z joylarini o'zgartiradi.

Simmetriya elementi nuqta u orqali to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi, ana su bo'lsa inversiya markazi (yoki simmetriya markazi) deyiladi.

CO_2 molekulasida uchun inversiya markazi uglerod atomida yotadi, SF_6 bo'lsa S atomida joylashgan. Lekin simmetriya markazi bir atomda joylanishi shart emas, u N_2 ikkala atomning o'rtasida joylashgan. H_2O molekulasida simmetriya markaziga ega emas. Tetraedrik molekula AB_4 , masalan $\text{Ni}(\text{CO})_4$, inversiya markaziga ega emas.

Ba'zan inversiya va 180° ga burilish ikkinchi tartibli o'q asosidagi simmetriya bir xil natjaga olib kelsa ham (4.6 rasm) bu ikki operatsiya bir-biridan farq qilishi kerak.

Aks etish bilan burilish – bu murakkab operatsiya (molekulaning identifikatsiya qiladigan qiyin usullardan biridir). Bu jarayon molekulaning ma'lum bir burchakka burilishi va aks etishi

sodir bo'lib u o'qqa perpendikulyar bo'ladi (4.7).

Har qanday aylanish real fazoda amalga oshadi; oynali aylanish operatsiyasi (yoki aks etish bilan aylanish) real fazoda amalga oshirish mumkin emas, bunda «chap» ob'ekt (masalan o'ng qo'l) «chap» ob'ekt (o'ng qo'lga aylanadi). 4.7 rasmda 4 –darajali oynali o'qda aylanishda tetraedrik metan molekulasining holati ko'rsatilgan. 4.2 jadvalda eng ko'p tarqalgan simmetriya guruhlarini nuqtasi keltirilgan. 7.8-jadvalda suv, ammiak, tetraedrik, oktaedrik va to'g'ri iksoedrning ko'rinishlari ko'rsatilgan. Asosiy simmetriya o'qlaridagi o'zgarishlar 7.18-7.21 rasmlarda keltirilgan.


7.8- jadval. Eng ko'p tarqalgan simmetriya guruhlarini nuqtasi


Nuqtali guruhlar	Simmetriya elementlari	Geometrik shakli	Misollar
------------------	------------------------	------------------	----------

Table 6.2 The composition of some common groups


Point group	Symmetry elements	Shape	Examples
C_1	E		SiHClBrF
C_2	E, C_2		H_2O_2
C_s	E, σ		NHF_2
C_{2v}	$E, C_2, \sigma_v, \sigma_v'$		$\text{SO}_2\text{Cl}_2, \text{H}_2\text{O}$
C_{3v}	$E, 2C_3, 3\sigma_v$		$\text{NH}_3, \text{PCl}_3, \text{POCl}_3$
$C_{\infty v}$	$E, C_2, 2C_4, \infty\sigma_v$		$\text{OCS}, \text{CO}, \text{HCl}$
D_{2h}	$E, 3C_2, i, 3\sigma$		$\text{N}_2\text{O}_4, \text{B}_2\text{H}_6$
D_{3h}	$E, 2C_3, 3C_2, \sigma_h, 2S_6, 3\sigma_v$		$\text{BF}_3, \text{PCl}_5$
D_{4h}	$E, 2C_4, C_2, 2C_2', 2C_2'', i, 2S_4, \sigma_h, 2\sigma_v, 2\sigma_d$		$\text{XeF}_4, \text{trans}[\text{MA}_4\text{B}_2]$
$D_{\infty h}$	$E, \infty C_2, 2C_4, i, \infty\sigma_v, 2S_{\infty}$		$\text{CO}_2, \text{H}_2, \text{C}_2\text{H}_2$
T_d	$E, 8C_3, 3C_2, 6S_6, 6\sigma_d$		$\text{CH}_4, \text{SiCl}_4$
O_h	$E, 8C_3, 6C_2, 6C_4, 3C_2, i, 6S_4, 8S_6, 3\sigma_h, 6\sigma_d$		SF_6

7.18-rasm. 4-darajali oyna burama simmetriyasi S_n ning metan molekulasidagi holati.






7-19-rasm. Suv(a) va ammiak(b) molekulasining simmetriya elementlari O'ng rtarafda chap tarafdagi sxemaning uyqoridan ko'inishi ko'rsatilgan.



7.20- rasm. Tetraedrik simmetriyaga tegishli T_d va oktaedrning simmetriya figuralari. Ikkala guruh ham kub simmetriyaning hoslisidir.

7.21- To'ri iksoaedr I_h nuqtalar guruhi simmetriysi va uni kubga nisbati.

Har bir simmetriya operatsiyasiga simmetriya elementi mos keladi; simmetriya elementlari aylanish o'qlari, teislikda oynali aks etish, inversiya markazi va oynali –aylanish o'qlariga ega bo'ladi (5-11,12,13).



KIMYOVIY BOG'LANISHNING TABIATI VA KIMYOVIY BIRIKMALARNING TUZILISHI¹⁷

Kimyoviy bog'lanish haqidagi ta'limot hozirgi zamon kimyosining asosidir. Bu ta'limotsiz kimyoviy birikmalarning xossalarini va ularning reaksiyaga kirishish qobiliyatlarini tushunish mumkin emas.

Kimyoviy bog'lanishning uchta asosiy tipi ma'lum: kovalent, ion va metall bog'lanish.


Kovalent bog'lanish. O'zaro ta'sir etuvchi atomlar elektron bulutlarining umumlashuvi hisobiga vujudga keladigan bog'lanish kovalent bog'lanish deyiladi. Kovalent boglanishni tushuntirishning 2 ta usuli bor. Ular: valent bog'lanish usuli (VBU), molekulyar orbitallar usuli (MOU).

Bu boglanish VBUIDa quyidagicha tushuntiriladi:

1) kimyoviy birikma ikkita atomdagi qarama-qarshi spinli elektronlarning o'zaro juftlashuvi hisobiga vujudga keladi:




2) kimyoviy birikmada elektron bulutlar bir-birini qanchalik ko'p qoplasa, bog' shunchalik mustahkam bo'ladi.




Kimyoviy birikma 2 xil bo'ladi: 1) qutbli va 2) qutbsiz.

Qutbsiz kovalent bog'lanish bir xil atomlar orasida vujudga keladi. H_2 , O_2 , Cl_2 , N_2 , F_2 , Br_2 , I_2 va hokazolar kabi birikmalarda qutbsiz kovalent bog'lanish bo'ladi.




Qutbli kovalent bog'lanish. Bunda umumlashgan elektron jufti hechqaysi atom tomon siljimagan bo'ladi, chunki har ikkala atomning o'ziga elektronni tortish qobiliyati, ya'ni elektromanfiyligi bir xil



Qutbli kovalent bog'lanishda elektron jufti (elektron buluti) elektromanfiyligi katta atom tomon siljigan bo'ladi. Boglovchi elektron juftining siljishi polyarizatsiya (qutblanish) deyiladi. HCl molekulasida bir

¹⁷ H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.194-222 b.

taraf lama qutblanish bo'lgani uchun xlor yadrosi yaqinidagi elektron bulut zichligi katta. (+) va (-) elektrik markazlari molekulada bitta nuqtaga tushmaydi. Ular bir-biridan qan-daydir 1 masofada bo'ladi. Molekula kichik elektrik dipolga aylanadi. Natijada molekulaning bir qismi (+) musbat, ikkinchi qismi (-) zaryadlangan bo'ladi. Molekuladagi bunday bog'lanishlar polyar yoki geteropolyar bog'lanishlar deyiladi. H 42 0O, H 42 0S, HCl, NH 43 0, HF va boshqalarda qutbli kovalent bog'lanish kuzatiladi. Suv molekulasida elektron juftlar kislorod atomiga, vodorod ftorid molekulasida ftor atomiga yaqinroq joylashgan. Ular nosimmetrik molekulalardir.




Molekulaning qutblanish darajasi dipol momenti (m*l) bilan o'lchanadi.

Dipol momenti debaylarda o'lchanadi (golland fizigi Debay sharafiga).


$1D = 10^{-18}$ elektrostatik zaryad birligiga yoki $1D = 3,33 \cdot 10^{-30}$ kulon . metr ga teng

KOVALENT BOG'LANISH HOSIL QILISH USLUBI


Kovalent bog'lanish juftlashmagan elektronlar hisobiga hosil bo'ladi. Qo'zg'alman azot atomida 3 ta toq elektron bor.




Demak, atomdagi juftlashmagan elektronlar hisobiga 3ta kovalent bog' hosil bo'ladi. N₂ va NH₃ molekulalarida azotning kovalentligi 3 ga teng.



Qo'zg'alman uglerod atomida 2ta juftlashmagan elektron bo'lganligi uchun 2ta kovalent bog' hosil qiladi.




CO₂ va CH₄ larda uglerod atomi qo'zg'olgan holatga o'tganligi uchun 4ta kovalent bog' hosil qiladi. Bunda bog' hosil bo'lish jarayoni ko'p energiya ajralib chiqishi bilan boradi.






Kislorod va ftor atomlari bo'sh orbitallarga ega emas. Bunda juftlashmagan elektronlar sonini oshirish uchun elektronlar 3s orbitalga o'tish kerak, lekin bunda juda ko'p energiya sarflanishi kerak, u yangi bog' hosil bo'lishini qoplamaydi va shuning uchun yangi bog' hosil bo'lmaydi. Shuning uchun kislorod atomida faqat 2ta, ftor atomida bitta juftlashmagan elektron bor. Bu elementlar uchun doimiy valentlik xarakterli bo'lib, kislorod 2 va ftor 1 valentli.

III va boshqa davr elementlari d pog'onachadagi elektronlarni qo'zg'olgan holatda keyingi pog'onaning s va p pog'onachalariga o'tkazishi mumkin. Bunda juftlashmagan elektronlar soni ortadi. Masalan: Cl ning qo'zg'olmagan holatda 1 ta juftlashmagan elektroni bor.




Xlorning 3ta qo'zg'olgan holati ma'lum.



Shuning uchun ftor atomidan farq qilib, xlor 1, 3, 5, 7 valentli bo'lishi mumkin. Oltingugurt atomida 3d pogonacha ham bor va u 4, 6 valentliklarni ham namoyon qiladi - SO_2 , SCl_4 , SF_6 .


Ko'pchilik holatlarda kovalent boglanishlar elektronlarning juftlashishlari tufayli sodir bo'ladi.



Bu yerda nuqtalar bilan avval azotga tegishli, * bilan avval vodorodga tegishli bo'lgan elektronlar ko'rsatilgan. 8 ta elektron dan 6 tasi 3 ta kovalent bog' hosil qilishda ishtirok etadi. Lekin 2ta elektron faqat azotga tegishli va bo'linmagan elektronlar juftini hosil qiladi. Bu elektronlar jufti bo'sh orbitali bor bo'lgan boshqa atom bilan kovalent bog'lanish hosil qiladi. Bo'sh 1s orbital vodorod ionida bor.




Masalan: ammiakning vodorod ionini bilan ta'sirlashuvi natijasida kovalent bog' hosil bo'ladi. Azotning bo'linmagan elektron jufti ikkala atom uchun umumiy bo'lib qoladi va NH_4^+ ionini hosil bo'ladi:



Bunda kovalent bog'lanish oldin azot (donor)ga tegishli elektronlar hisobiga vodorod atomi (akseptor)dan orbital berilishi hisobiga hosil bo'ladi. Shuning uchun bunday bog'lanish donor-akseptor bog'lanish deyiladi.

Tajribalar natijasida to'rttala N-H bog'lari ham bir xilligi topilgan. Bundan donor-akseptor bog'lanish tufayli hosil bo'lgan boglar juftlashgan elektronlar hisobiga hosil bo'lgan boglardan farq qilmaydi degan xulosa kelib chiqadi. Donor-akseptor bog'ga yana bir misol- N_2O . Uning struktura tuzilishi $\text{O}=\text{N}=\text{O}$. Bundan markaziy azot atomi boshqa atomlar bilan 5 orbital, ya'ni 10 ta umumiy elektron soniga ega fikr chiqadi. Shuning uchun bu formula noto'g'ri hisoblanadi. Azot (I) oksidni struktura formulasini ko'rib, har bir atomga tegishli elektronlarni 5 . 0 va * bilan belgilaymiz:



Markaziy azot atomida juftlashmagan elektron hisobiga, 2 chisi kovalent bog'lanish hosil qiladi.

Shunday qilib, kislorod atomidagi elektron qavatlar to'ldirilgan, ularda 8 ta elektron barqaror qavat hosil qilgan. Lekin eng chetdagi azot atomida 6 ta elektron bor, demak oxirgi azot elektronlar aktseptori bo'lishi mumkin. Uning yonidagi markaziy atom bo'lsa bo'linmagan elektron juftiga ega, va u donor bo'lishi mumkin. Bu azot atomlari orasida donor aktseptor bog'lanish hosil bo'lishiga olib kelib, yana bitta kovalent bog' hosil qiladi.

Demak, N_2O ni tarkibidagi har bir atom 8 ta dan elektroni bor barqaror qavatni hosil qiladi. Agar donor-aktseptor bog'lanish tufayli hosil bo'lgan bog'ni struktura formulasi:



Markazdagi azot atomining kovalentligi 4ga chetdagi azotning kovalentligi 1ga teng. Yuqorida keltirilgan misollar atomlar kovalent bog'lanishni har xil holatlarda hosil qilishini ko'rsatadi. Kovalent bog'lar:

- 1) qo'zg'olmagan atomdagi juftlashmagan elektronlar;
- 2) qo'zg'olgan atomdagi elektronlar juftining yakkalanishi va
- 3) donor-aktseptor usulida hosil bo'lishi mumkin.

Lekin ayni atomning kovalent bog'lari soni chegaralangan. U valent orbitallar soni bilan aniqlanadi, bu orbitallar soni kovalent bog' hosil qilishdagi energetik jihatdan qulay holatlar sonidir. Kvant-mexanik hisoblashlar bunday orbitallarga tashqi s, p va tashqaridan 2d orbitallar kirishini ko'rsatadi. Xlor va oltingugurt misolida d orbitallar ham ishtirok etishini ko'rdik.

2-davr elementlarining eng chetki elektron qavatida 4 ta orbital bor. Demak, ularning valent orbitallariga 8 ta elektron joylashtirish mumkin. Bu davr elementlarining maksimal kovalentliklari 4 ga teng.

3- va keyingi davr elementlarida kovalent bog' hosil qilishda s, p hamda d orbitallar ishtirok etadi. d elementlarning shunday birikmalari borki, bunda kovalent bog hosil qilishda s, p (4ta) va d (5ta) orbitallar ishtirok etadi va maksimal valentligi 9 ga teng bo'ladi. Atomning ma'lum bir kovalent bog'lar hosil qilish qobiliyati kovalent bog'ning to'yinganligi deyiladi.


BOG'NING YO'NALUVCHANLIGI

Elektron bulutlarning shakli har xil bo'lgani uchun ularning bir-birini qoplashi ham har xil usullarda bo'ladi. Elektron bulutlarning qoplanishi va simmetriyasiga qarab bog'lar - sigma (s-s), pi (-p) va delta (d-d) bog'larga bo'linadi.

s - s bog'lanish o'zaro birikuvchi atomlar orasida birgina valent chiziq bilan tasvirlanadigan yakka bog'lanish hosil bo'lganda s elektron bulutlarning o'zaro qoplanish fazosi atom markazlarini tutashtiruvchi chiziqda yotsa hosil bo'ladi.

p - p bog'lanishda elektron bulutlarning qoplanish fazosi atom markazlarini tutashtiruvchi chiziqni ikki tarafidan yotadi .

d - d bog'lanishda to'rttala elektron bulutlarning qoplanishidan hosil bo'ladi. s -orbitallarning elektronlari sigma bog'lanishda ishtirok etadi.



Sigma bog'lanishda p- elektronlar ham ishtirok etadi. HF molekulasida vodorodning bitta s elektroni va fluorning p-elektroni bitta sigma bog' hosil qiladi. F₂ molekulasida 2ta p-elektron sigma bog' hosil qilib 2 ta atomni bog'laydi.

d-elektronlar sigma va pi bog'lar hosil qilishda qatnashadi.

Azot molekulasining hosil bo'lishini ko'rib chiqamiz. Har bir azot atomi 3tadan p-elektronlarga ega. Elektron bulutlar o'zaro perpendikulyar 3 xil yo'nalishda bir-birini qoplagan. Bu boglar bir xil emas: bittasi sigma ikkitasi pi bog. D- elektronlar sigma, pi va delta bog' hosil qilishda qatnashadi.

GIBRIDLANISH NAZARIYASI

Atomlar orasidagi boglanish odatda har xil energetik holatlarda bo'lgan elektronlar orasida boradi. Atom orbitallarning gibridlanishi quyidagi xulosaga asoslanadi, bunda atomdagi s, p, d elektron bulutlar bir xilda molekula hosil qilganda siljiydi, shuning uchun bu atomlar elektron buluti bir-birini yaxshi qoplaydi. Valent elektronlar buluti bir-birini yaxshi qoplashi kimyoviy bog'ning mustahkam bo'lishiga va atomda qo'shimcha energiya zahirasi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Masalan , BeF₂ molekulasini olsak. Har bir fluor atomi bittadan juftlashmagan elektronlarga ega. Bu elektron kovalent bog' hosil qilishda ishtirok etadi. Berilliy atomi qo'zg'almagan holatda juftlashmagan elektronlarga ega emas. Berilliy atomi qo'zg'algan holatga o'tganda 2s holatda 1 elektronga va 2p holatda 1 elektronga ega bo'lib bu elektron bulutlarning qo'shilishidan sp gibridlanish yuzaga keladi. Shunday qilib, berilliy xlorid molekulasida chiziqli tuzilishga ega. Valent bog'lar orasidagi burchak 180° .

Bor fluorid molekulasida esa 1s va 2p orbitaldan uchta yangi sp² gibrid orbitallar hosil bo'ladi. Bu erda bog'lar orasida hosil bo'ladigan burchak 120° bo'ladi. Agar gibridlanish 1s va 3p orbitallar orasida hosil bo'lsa, bunday gibridlanish sp³ gibridlanish deyiladi.

Metan va uglerod(IV) xlorid molekullari ana shunday tuzilishga ega.

MARKAZIY ATOMDAGI BOG'LANMAGAN ELEKTRONLAR JUFTNING MOLEKULA TUZILISHIGA TA'SIRI

Metan, suv, va ammiak molekullari valent burchaklar qiymati metanda 109,28° , ammiakda 107,5° va suvda 104,5° . Valent bog'lanishlar nazariyasiga

ko'ra buning sababi, markaziy atomdagi bo'linmagan elektron juftlarning ta'siridir. Metan, ammiak va suv qatorida bo'linmagan elektronlar jufti 2 tadan to 4 gacha ortadi. Ana shu tufayli valent burchaklarda qisqarish kuzatiladi.

MOLEKULYAR ORBITALLAR USULI

Valent bog'lanishlar usuli, elektron orbitallarning gibridlanish usuli bilan uyg'unlashgan holda turli tuman moddalarning tuzilishi, molekuladagi valent bog'larning yo'nalishi, molekulalarning geometriyasini juda ko'p moddalar uchun to'g'ri tushuntiradi.

Ba'zi moddalarda elektron juftlar yordamisiz boglanish yuzaga kelib chiqadi. Masalan, XIX asrning oxirida Tomson molekulyar vodorod ionini vodorod (H_2^+) molekulasini elektronlar bilan bombardimon qilib oldi.

Bunga asoslanib 2 yadro bir-biri bilan birgina elektron yordamida boglana oladi degan xulosa kelib chiqadi.

Tarkibida toq elektronlar bo'lgan moddalargina magnitga tortiladi. Kislorodni valent bog'lanishlar usuliga asoslanib unda toq elektronlar borligini ko'rsata olmaymiz. Lekin kislorod qattiq holda magnitga tortiladi. Buni valent bog'lanishlar usuli tushuntirib bera olmaydi.

Erkin radikallar tarkibida ham juftlanmagan elektronlar bo'ladi.

Benzolga o'xshash aromatik uglevodorodlarning tuzilishini valent bog'lanishlar tushuntirib bera olmaydi. Molekula hosil bo'lishida toq elektronlarning rolini ko'rsatadigan nazariya 1932 yilda Xund va Malliken tomonidan yaratilgan bo'lib, bu nazariya molekulyar orbitallar nazariyasi nomini oldi.

Molekulyar orbitallar nazariyasini yaratishda atom orbitallarning tuzilishi haqidagi kvant-mexanik tasavvurlarni molekula tuzilishi uchun qo'llash mumkin deb hisoblandi.

Farqi shundaki, atom bir markazli (bir yadroli) sistema bo'lsa, molekula ko'p markazli sistemadir. Bu nazariyaga ko'ra, har qaysi elektron molekuladagi barcha yadro va ko'p markazli orbitallar ta'sirida bo'lishi e'tiborga olinadi.

Molekulyar orbitallar (MO) usulining bir necha variantlari bor. Atom orbitallarining chiziqli kombinatsiya usuli (LKAO yoki AOCHK) eng ko'p qo'llaniladigan variant. Bu usulda elektronning molekulyar to'lqin funktsiyasi, o'sha molekulani tashkil etgan barcha atomlardagi elektronlarning to'lqin funktsiyalaridan kelib chiqadigan chiziqli kombinatsiya, ya'ni molekulyar orbitallarni tasvirlovchi funktsiyalarni molekulani tashkil etgan atomning funktsiyalarini bir-biriga qo'shish va bir-biridan ayirish natijasida topiladi.

Agar biz tarkibida 1ta elektron va 2 yadro bo'lgan molekulani nazarda tutsak, ayni sistemada elektron harakatini 2 ta funktsiya bilan izohlash mumkin.

Birinchisi $\psi_1 = C_1 \varphi_1 + C_2 \varphi_2$

Ikkinchisi $\omega_2 = C_1 \varphi_1 - C_2 \varphi_2$


C_1, C_2 - koeffitsientlar

$\omega_1 \varphi_1$ - ayni elektronning I va II yadrogga oid funksiyalari

φ_1 - simmetrik funksiya

φ_2 - antisimmetrik funksiya

Agar elektron bog'lanayotgan atomlar yadrolaridan tashqarida joylashgan bo'lsa,, elektron bulut yadrolar orasida zichlana olmaydi, binobarin yadrolar bir-biridan uzoqlashadi. Elektronning bunday holatiga bo'shashtiruvchi orbital mos keladi. Bunday molekulyar orbitalda 2 ta yadro oralig'ida elektronlarning zichligi juda kichik bo'ladi. Bunday orbital molekulaning turgunligini kamaytiradi.



Agar elektronning harakati simmetrik funksiya bilan ifodalansa, elektron buluti yadrolar orasida juda zich holatni egallaydi, buning natijasida yadrolar bir-biriga tortiladi va ular o'zaro birikadi. Bu orbital bog'lovchi orbital deb atalib, bir xil zaryadga ega bo'lgan zarrachalar - yadrolarni bir-biridan itarilishini kuchsizlantirib, kimyoviy bog'lanishni kuchaytiradi.

Molekulaning barqaror yoki barqaror emasligi uning tarkibidagi bog'lovchi va bo'shashtiruvchi elektron orbitallarning nisbiy miqdoriga bog'liq bo'ladi. Agar sistemada 1 ta bo'shashtiruvchi orbital hosil bo'lsa, u 1 ta bog'lovchi orbitalning ta'sirini yo'q qiladi.

Molekulyar orbitallar usulida molekula tarkibidagi elektronlarning o'zaro ta'siri e'tiborga olinmaydi. Atomda har qaysi elektron orbital **s**, **p**, **d**, **f** harflar bilan ifodalangani kabi, molekulyar orbitallar ham σ , π , λ va σ harflari bilan belgilanadi.

Atom orbitaldagi elektronning energiyasi bosh va orbital kvant sonlarga bog'liq bo'lib, magnit kvant songa bog'liq emas. Molekulyar orbitaldagi elektronning energiyasi ayni orbitalning yo'nalishiga, ya'ni magnit kvant songa ham bog'liq, chunki molekulada yadrolarni bir-biriga bog'lab turgan yo'nalish boshqa yo'nalishlardan farq qiladi.



Molekulada elektronning harakat momenti proektsiyasini atom yadrolarini bo'shashtiruvchi o'qqa nisbatan kattaligini xarakterlash uchun magnit kvant soni

m ga o'xshash molekulyar kvant son - λ kiritilgan.



$\lambda = 0$, bunday holat σ holat deyiladi, bu holatni qabul qiladigan lektronlarning maksimal soni 2ga teng.

$\lambda = \pm 1$ bo'lsa, π holat deyiladi. Bu holatda eng ko'pi bilan 4ta elektron bo'lishi mumkin.

Molekulyar orbitallarning elektronlar bilan to'lib borishi ham xuddi atom orbitallardagi kabi Pauli printsipiga va Xund qoidasiga bo'ysunadi. MO usulida bog'lovchi orbitallardagi elektronlar soni bo'shashtiruvchi orbitallardagi elektronlar sonidan ko'p bo'lsa, kimyoviy bog' hosil bo'ladi. Kimyoviy bog'lar sonini quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.




$$b.t. = \frac{2-0}{2} = 1,0$$





$$b.t. = \frac{1-0}{2} = 0,5$$







$$b.t. = \frac{2-1}{2} = 0,5$$



$$b.t. = \frac{6-0}{2} = 3$$





Molekular orbitallarning afzalliklari. Valent bog'lanishlar usulidan molekular orbitallar usuli bir qancha afzalliklarga ega:

-bu usul har qanday yadrolar sistemasi va elektronlar barqarorligini tushuntira oladi;

-molekular orbitallar usuli molekularlarning va kompleks birikmalarning magnit va optik xossalarini to'g'ri tushunturadi;

-molekuladagi har bir elektronning holatini baholash imkoniyatini beradi.

MOLEKULARARO TA'SIRLAR

Molekulalar orasida orientatsion, induksion va dispersion ta'sirlar mavjud. Ular 3 ga bo'linadi: orientatsion, induksion va orientatsion.

Dispersion- molekular orasida bir lahzada yuzaga keladigan mikrodipollar hosil bo'lishiga asoslangan. Molekulalar yaqinlashganda mikrodipollar paydo bo'ladi, bunda molekular tortiladi. Agar ikki molekulada mikrodipollar baravariga paydo bo'lmasa ular bir-biridan uzoqlashadi.

D_2O rangsiz, siropsimon suyuqlik, zichligi $d = 1,10421 \text{ g/sm}^3$, suyuqlanish harorati $T_{\text{suyur}} = 3,8^\circ\text{C}$, qaynash harorati $T_{\text{rayn}} = + 101,4^\circ\text{C}$. D_2O yadro texnikasida katta ahamiyatga ega. U yadro reaktorida neytronlarni sekinlashtiruvchi modda sifatida, deyteriy olish uchun xom ashyo sifatida va termoyadro reaksiyalarida ishlatiladi.

VODOROD PEROKSID (H_2O_2)



H_2O_2 rangsiz, siropga o'xshagan suyuqlik. Zichligi $d = 1,4633 \text{ g/sm}^3$, Syuqlanish harorati $T_{\text{suyq}} = 0,43^\circ\text{C}$, 26 mm simob ustuni bosimda qaynash harorati $T_{\text{qayn}} = 68^\circ\text{C}$, 65 mm sim. ustunida 85°C , atmosfera bosimida $T_{\text{qayn}} = 150,2^\circ\text{C}$.



Vodorod peroksid beqaror birikma. Oson parchalanadi.



151°C da vodorod peroksid portlaydi. Suvli eritmalarida vodorod peroksid kuchsiz kislota va 2 bosrichda dissotsiatsiyalanadi.







H_2O_2 nordon va asosli tuzlar hosil qiladi. NaHO_2 , Na_2O_2 , $\text{Ba}[\text{O}_2]$

H_2O_2 oksidlovchilik va qaytaruvchilik xossalarini namoyon qiladi. H_2O_2 kisloroddan kuchliroq oksidlovchi.




H_2O_2 oksidlovchi bo'lganda:

1. Kislotali muhitda H_2O_2 H^+ ionlari bilan birikib suv molekulasini hosil qiladi.






2. Neytral va ishqoriy muhitda oksidlovchi H_2O_2 2ta elektron biriktirib OH^- ionlarini hosil qiladi.





Oksidlovchilar KMnO_4 , Ag_2O , CrO_3 va b. ishtirokida vodorod peroksid qaytaruvchilik xossasini namoyon qiladi.


1. Kislotali muhitda vodorod peroksid 2ta elektron berib, vodorod ionlari va kislorod molekulasini hosil qiladi.





Misol: $5\text{H}_2\text{O}_2 + 2\text{KMnO}_4 + 3\text{H}_2\text{SO}_4 = 5\text{O}_2 + 2\text{MnSO}_4 + \text{K}_2\text{SO}_4 + 8\text{H}_2\text{O}$





2. Neytral va ishqoriy muhitda OH^- ionlarini biriktirib suv va kislorod hosil qiladi.









Olinishi. Vodorod peroksid natriy yoki bariy peroksidlarga kislota ta'sir ettirib olinadi.




Dunyoda ishlab chiqariladigan vodorod peroksidlarning 30%i 50%li sulfat kislotani elektroliz qilish orqali olinadi.



3% li vodorod peroksid eritmasi (pergidrol) va 73-90%li eritmaları sotiladi. Vodorod peroksid ko'p bo'yoqlarni oqartiradi. Shu xossasi tufayli ipak, soch, par va boshqalarni oqartirish uchun ishlatiladi. U harbiy va raketa texnikasida, 3% li eritmasi tibbiyotda dezinfektsiyalovchi modda sifatida qo'llaniladi.

I GURUH S ELEMENTLARI

Bu guruh elementlariga litiy, natriy, kaliy, rubidiy, seziiy va fransiy kiradi. Barcha guruh a'zolarinig tashqi elektron qavatida 1 tadan s elekteronlar bor. ularning elektron formulalari quyidagicha:



Element tartib nomeri ortishi bilan atom va ionlarning radiusi ortadi. Shu metallarning suyuqlanish harorati kamayadi.

Bu matallarning barchasidan litiy farq qiladi. Uni tashqaridan ikkinchi qavatida ikkita elektroni bor.

ISHQORIY METALLARNING OLINISHI

Ishqoriy metallar kimyoviy faolligi yuqoriligi sababli faqat birikmalar holida uchraydi.

Liyiyning birikmalari nihoyatda ko'p. Uni 150 dan ortiq minerallari bor. Texnik ahamiyatga spodumen $\text{LiAl}(\text{SO}_4)_2$ va litiy smolasi $\text{Li}_2\text{Al}_2(\text{SiO}_3)_3(\text{F};\text{OH})_2$.

Natriy birikmalari keng tarqalgan. Osh tuzi NaCl; Glauber tuzi $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$. Hind selitrasi KNO_3 , Natriy selitrasi, kriolit $\text{Na}_3[\text{AlF}_6]$; bura $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$.

Kaliy birikmalaridan silvinit $\text{KCl} \cdot \text{NaCl}$; karnallit $\text{KCl} \cdot \text{MCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$; yer sharining asosiy po'slog'i- ortoklaz $\text{K}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 6\text{SiO}_2$

Rubidiy va seziy natriy va kaliy bilan birga lekin kamroq uchraydi.


Fransiy barcha ishqoriy metallardan eng faoli va og'iri hisoblanadi. Radioaktiv .uni yarim yemirilish davri 22 minut.

Natriy, litiy va kaliy asosan elektroliz usuli yordamida olinadi. Elektrolizga tuzlar yoki gidroksidlar uchratiladi. Rubidiy va seziy uning xloridlaridan kalsiy metali bilan qaytarish orqali olinadi.

ISHQORIY METALLARNING XOSSALARI

Ishqoriy metallar kub krislall panjaraga ega. Yangi kesilgan metallar ko'rinishi odatdagi metallarga o'xshaydi. Metallik yaltiroqlikka ega. Barcha ishqoriy metallar kerosin ostida yoki inert gaz muhitida saqlanadi. Ishqoriy metallar engil metallar hisoblanib, pichoq bilan oson kesiladi. Ularni ichida qattig'i kaliy u yuqori issiq va elektr o'tkazuvchanlikka ega.

Ishqoriy metallar oson +1 zaryadli ionlar hosil qiladi. Litiy kislorod ta'sirida oksid hosil qiladi. Qolgan ishqoriy metallar bo'lsa peroksidlar hosil qiladi.




Peroksidlardan oksidlar olish mumkin.




Peroksidlarni suv bilan ta'siridan bodorod peroksidi yoki kislorod hosil bo'ladi.




Ishqoriy metallar galogenlar bilan shiddadli va issiqlik chiqishi bilan ta'sirlashadi:



Juda oson ishqoriy metallarning sulfidlari hosil bo'ladi:




Me_2S larni oltingugurt bilan qo'shib suyuqlantirilsa persulfidlar hosil bo'ladi.




Ishqoriy metallar vodorod bilan oson ta'sirlashadi. Bunda metall gidridlari hosil bo'ladi. Ularning bog'lanishi ion tabiatli.

Odatdagi sharoitda faqat litiy nitrid hosil qiladi.



Boshqa metallarning nitridlari boshqacha usullar bilan olinadi.

Suyuq ammiak bilan ishqoriy metallarning reaksiyasida amidlar, imidlar va nitridlar hosil bo'ladi.



Natriy birikmalari organizmda asosan hujayra atrofida shuqlliklarda mavjud(qonda,limfa va ovqat hazm qilish shiralarida).NaCl hisobiga organizmdagi qon bosimi boshqarilib turadi.

NaOH 320° C da shuqlanadigan oq ,suv tortadigan kristall modda.NaOH va KOH elektroliz usulida olinadi.

Kaliy ioni organizmda hujayra ichidagi ion hisoblanadi.U kopgina boikimyoviy va fiziologik jarayonlarda, masalan nerv impulclarining harakatida ishtirok etadi.Kaliy ioninng qonda mo'tadil miqdorda bo'lishi yurakni normal ishlashi uchun kerak.1 cutkada K 2-3 g kerak bo'ladi.

Tseziy va rubidiy fotoelementlar tayyorlashda ishlatiladi.Nur ta'sirida Rb va Cs ning valent elektronlarini oson ajralishi yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantitish imkoniyatini beradi.

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Shriver and Atkins, Inorganic Chemisrty, Fifth Edition, 2010/
P.W.Atkins,T.L.Owerton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина,М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. N. A. Parpiyev, H. Rahimov, A. G. Muftaxov. Anorganik kimyoning nazariy asoslari. T.,”Ozbekiston”, 2002.
5. N.A.Parpiyev, A.G.Muftaxov, H.R.Rahimov, Anorganik kimyo. ”O'zbekiston”, 2003.
6. Д.А.Князев. Неорганическая химия:учеб.для ВУЗов /Д.А.Князев, С.Н.Смарыгин.-3-изд.испр.-М.:Дрофа, 2005.- С.591.
7. Общая химия. Биофизическая химия. Химия биогенных элементов: Учебник для ВУЗов/ Ю.А.Ершов, В.А.Попков, А.С.Берлянд и др.; под ред. Ю.А.Ершова- 4 изд.,-М.: Высш.шк.,2003.- 560 с. ил.
8. Е.Я.Левитин, А.Н.Бризицкая, Р.И.Клюева Общая и неорганическая химия: Учебник для студентов фармац. ВУЗов и фармац. Фак. медВУЗов.Х.:Изд-во НФАУ: Золотые страницы, 2002.- С. 536 .
9. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo (“Farmasiya “-5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.”Nohsir”,2011.520 b.
10. H.R. To'xtaev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
11. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instuti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtaev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

Jonlantirish uchun savollar

1. Vodorod.Tabiatdauchrashivaolinishi, fizikaviyvakimyoviyxossalari.
2. Suv va uning fizikaviy va kimyoviy xossalari.Og'ir suv.
3. Vodorod peroksidi, olinishi, xossalari va ishlatilishi.
4. Vodorod peroksidi -oksidlovchi va qaytaruvchi.
5. 1s guruh ishqoriy metallari.
6. II s guruh ishqoriy er metallari. Ularning farmatsiya va tibbiyotdagi ahamiyati.
7. S-blok elementlari va vodorod peroksidi asosida farmakopeyaga kiritilgan dorivor moddalar to'g'risida qisqacha ma'lumot.

10-ma'ruza

3.10. Davriy jadvalning d-blok metallari. Xrom va marganets birikmalari

Ma'ruzaning maqsadi – xrom va marganets birikmalarini xossalari bilan talabalarni tanishtirish. Oksidlanish qaytarilish reaksiyalarini boshqarishni o'rganish.

Ajratilgan vaqt - 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. Xrom va marganets birikmalarini tabiatda uchrashi.
2. Xrom birikmalari. Xrom(II),(III),(VI) birikmalari. Ularning oksidlovchi va qaytaruvchi xossalari.
3. Marganets birikmalarini olinishi. Marganets (II) birikmalari qaytaruvchi xossalari.
4. Marganets (IV),(VI) birikmalarining oksidlovchi va qaytaruvchi xossalari.
5. Marganets (VII) birikmalarining oksidlovchi xossalari.
6. Xrom va marganets birikmalarining ishlatilishi.

Tayanch so'zlar: xrom, oksidi, gidroksidi, xrom(III) birikmalarining qaytaruvchanlik xossalari, xrom(VI) birikmalarining oksidlovchilik xossalari, marganets, oksidi, gidroksidi, marganets birikmalarining oksidlovchilik va qaytaruvchilik xossalari



4	5	6	7
Ti	V +4, +5	Cr +6	Mn
Zr	Nb +5	Mo +6	Tc
Hf	Ta +5	W +6	Re

Xrom birikmalari

Muhim d-elementlarning olinishi va mineral zahirasi³⁴


d-elementlarning eng asosiy olinish sxemalari 10.1 jadvalda berilgan. Ularning suyqlanish haroratlari va zichliklariga ko'ra (10.1-10.2 rasmlar) eng yuqori suyqlanish harorati vilframda kuzatiladi. Bu elementlar zichliklari qiymati (10.2-rasm) irridiyda yuqori. Frost diagrammasi bo'yicha xrom birikmalarida barqarorlik [romatlar va dixromatlarda kuzatiladi(10.3-rasm).

Xrom temirli xromtosh holida uchraydi: Cr_2FeO_4 yoki $Fe(CrO_2)_2$. Qo'rg'oshinli qizil ruda $PbCrO_4$. Xromli oxra Cr_2O_3 . Xrom – oq yaltiroq metall, qattiq, mo'rt. U qaytaruvchi, 2 tadan 6 tagacha elektron beradi. Shuning uchun kimyoviy reaksiyalarda sharoitiga qarab +2, +3 va +6 oksidlanish darajasiga ega bo'ladi.

10.1-jadval. D-blok ekementlarining umumiy olinish sxemalari


Metal	Principal minerals	Method of recovery	Note
Titanium	Ilmenite, $FeTiO_3$ Rutile, TiO_2	$TiO_2 + 2C + 2Cl_2 \rightarrow TiCl_4 + 2CO$ followed by reduction of $TiCl_4$ with Na or Mg	
Chromium	Chromite, $FeCr_2O_4$	$FeCr_2O_4 + 4C \rightarrow Fe + 2Cr + 4CO$	(a)
Molybdenum	Molybdenite, MoS_2	$2MoS_2 + 7O_2 \rightarrow 2MoO_3 + 4SO_2$ followed by either $MoO_3 + 2Fe \rightarrow Mo + Fe_2O_3$ or $MoO_3 + 3H_2 \rightarrow Mo + 3H_2O$	
Tungsten	Scheelite, $CaWO_4$ Wolframite, $FeMn(WO_4)_2$	$CaWO_4 + 2HCl \rightarrow WO_3 + CaCl_2 + H_2O$ followed by $WO_3 + 3H_2 \rightarrow W + 3H_2O$	
Manganese	Pyrolusite, MnO_2	$MnO_2 + 2C \rightarrow Mn + 2CO$	(b)
Iron	Haematite, Fe_2O_3 Magnetite, Fe_3O_4 Limonite, $FeO(OH)$	$Fe_2O_3 + 3CO \rightarrow 2Fe + 3CO_2$	
Cobalt	CoAsS Smaltite, $CoAs_2$ Linnaeite, Co_3S_4	Byproduct of copper and nickel production	
Nickel	Pentlandite, $(Fe,Ni)_9S_8$	$NiS + O_2 \rightarrow Ni + SO_2$	(c)
Copper	Chalcopyrite, $CuFeS_2$ Chalcite, Cu_2S	$2CuFeS_2 + 2SiO_2 + 5O_2 \rightarrow 2Cu + 2FeSiO_3 + 4SO_2$	

(a) The Iron–chromium alloy is used directly for stainless steel.
 (b) The reaction is carried out in a blast furnace with Fe_2O_3 to produce alloys.
 (c) NiS is formed by smelting the ore and is then separated by physical processes. NiO is used in a blast furnace with iron oxides to produce steel. Nickel is purified by electrolysis or the Mond process via $Ni(CO)_4$. Box 22.1.




10.1 rasm. 1-15 guruh metallarining syuqlanish haroratlari

³⁴ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 449-502.




1.2 rasm. 1-15 guruh metallarining zichliklari





10.3-rasm. D- elementlarning Frost digrammasi bo'yicha ko'rinishi.

Xrom birikmalari³⁵

Xrom kislorod bilan xona temperaturasida oksidlanmaydi. Ftor bilan oson reaksiyaga kirishadi. Temperatura ta'sirida oltingugurt, kremniy va brom bilan ta'sirlashadi. Maydalangan holda suvni parchalaydi.





Suyultirilgan HCl da erib va H_2SO_4 da erib, xrom +3 tuzlariga aylanadi:





HNO_3 , zar suvida (1:3 HNO_3 va HCl) oddiy temperaturada zar suvini passivlashtiradi. Lekin HCl da uzoq vaqt qaynatilsa vodorod ajraladi. Keyin bu reaksiya sovuqda ham davom etadi. Passivlangan xrom o'zini nodir metallga o'xshab tutadi,

³⁵ H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya "–5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.

Xromning olinishi. Sof metallni alyuminlotermiya usuli bilan olish mumkin.



Laboratoriyada xrom olish uchun temir xromitdan dastlab xrom (III)- oksid olinadi. Buning uchun xromli temirtosh kislorod va soda bilan suyuqlantiriladi. Keyin natriy xromatdan uglerod yordamida xrom (III)-oksidi olinadi.



Texnikada ishlatilishi. Po'lat ishlab chiqarish sanoati xrom ishlatiladigan 1-2% Cr tutgan po'latlarqattiq va mustahkam bo'ladi. Po'latda 12% xrom bo'lganda zanglamaydigan po'lat hosil bo'ladi. Xrom metal buyumlarni qoplashda ishlatiladi. Masalan, el –tiral, nixrom, xromal.

Terichilik sanoatida xrom tuzlaridan pishiq xromli terilar olishda ishlatiladi. Cr^{3+} birikmalari barqaror.

Ishqoriy muhitda $Cr^{3+} \rightarrow Cr^{6+}$

Cr^{3+} – yashil va ko'k binafsha

Cr^{6+} – sariq (xromatlar)

Cr^{6+} – jigarrang (bixromat)

CrO – qora kukun


$Cr(OH)_2$ – sariq rangli

$CrCl_2$ – rangsiz kristall suvda eriydi.


Cr_2O_3 – xromli oxra, yashil rangli kukun $t=1900^\circ C$

1. Tajriba. $(NH_4)_2Cr_2O_7 = Cr_2O_3 + 4H_2O + N_2$


2. Uglerod bilan qaytarish:



3. S qaytarish:






4. Temperatura ta'sirida parchalanish:





5. $(NH_4)_2Cr_2O_7 = N_2 + 4H_2O + Cr_2O_3$

Xrom (III) – oksidini soda yoki ishqorlar bilan suyuqlantirish natijasida meta- va ortoxromatlar hosil bo'ladi.





$HCrO_2$ – metoxromitlar

H_3CrO_3 – ortoxromitlar





Xrom (III) gidroksidi kuchli oksidlovchilar ta'sirida ishqoriy muhitda Cr^{+6} birikmalariga o'tadi.






$\text{Na}_3[\text{Cr}(\text{OH})_6]$ o'rniga $\text{Cr}(\text{OH})_3$ ni olish mumkin

Xrom birikmalaridan Cr^{+3} kationi ko'k rangli xrom (III) sulfat, xrom (III) nitrat, xrom (III) xlorid, xrom (III) anion holda bo'lsa, yashil rangli bo'ladi. Masalan, natriy xromit, kaliy xromit.


Tajriba: Kaliy xromli achchiqtosh yoki kvaosga oz miqdorda ishqor qo'shamiz.




III valentli xrom tuzlari gidrolizga uchraydi.





Cr_2S_3 – qora kristall modda, suvda erimaydi.




Bu tuz kuchli gidrolizga uchraydi va to'la gidroliz sodir bo'ladi.



Xrom (III) birikmalarining koordinatsion soni 6 ga teng komplekslar hosil qiladi(5).





Xrom (VI) oksidi, xromat kislotasining angidridi – to'q qizil rangli ignasimon kristallga ega. Suvda oson eriydi. Bunda xromat kislotasi hosil bo'ladi. Xromat angidridga xromat kislota va dixromat kislota to'g'ri keladi.




Suyultirish ortishi bilan muvozanat H_2CrO_4 tarafiga qarab suriladi.



Xrom (VI) oksidi zaharli. Natriyli yoki kaliyli xromat texnikada xromli temirtoshni soda, potash yoki ohak bilan kuydirib olinadi.




Tajriba. Agar xrom (III) oksidiga ishqor va oksidlovchi qo'shilsa, xromatlarga o'tadi:




Agar natriy xromatga kislota qo'shilsa, muvozanat chapgs suriladi. Agar ishqor qo'shilsa, muvozanat o'ngga suriladi.




Xromat kislota tuzlari juda kuchli oksidlovchilar.




Xromatlar xromning (III) valentli tuzlarini ishqoriy sharoitda oksidlab oson olinadi:





Bixromatlar olish uchun xrom (III) valentli tuzlarini kislotali muhitda kuchli oksidlovchilar KClO_3 , KMnO_4 , NaBiO_3 .



Xromning periks tipidagi birikmalari ma'lum. Ular nad kislotalar deyiladi.



Xromning birikmalaridan CrO_2Cl_2 qizil qo'ng'ir rangli suyuqlik.




10.4-rasm. Xrom guruhi elementlari uchun Frost diagrammasi.

Rasmga ko'ra MoO_3 va WO_3 potentsiallari qiymatlari $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ qiymatidan ancha pastda, bu ularning barqarorligi uyqori, lekin oksidlovchilik qiymati ozligini ko'rsatadi(10.4-rasm).

Qo'llanilishi. Kaliy dixromat terichilik, tekstil, lak bo'yoq va farmatsevtika sanoatida ishlatiladi. Qo'rg'oshin xromat sariq bo'yoq tayyorlashda ishlatiladi. Kaliy

dixromat va konsentrlangan sulfat kislota tehg miqdorda aralashtirilsa, xrompik deyiladi. Bu aralashma bilan kimyoviy idishlarni yuviladi.






10.5- rasm. Volfram va molibdenning geteropolioksianion turdagi birikmalari ntuzilishi($\text{Mo}_{12}\text{O}_{40}^{8-}$).

Mo va W geteropoloksianionlar (10.5-rasm) ko'p uchraydi. Bu komplekslar o'ziga xos ko'k rangga bo'yalgan bo'ladi.

Marganes birikmalari

(Mn) marganes, (Te) texnetsiy, (Re) reniy

Mn, Te, Re atomlari VII V grupp d-elementlarini tashkil etadi.




Hamma atomlar eng chetki kvant qavatda 2 tadan s-elektronlarga ega. Chetdan 2-chi kvant qavatda 5ta d-elektronlar bor. Shuning uchun ham Mn, Te, Re ni maksimal valentligi +7.

Mn gruppachasidagi elementlar ichida eng katta ahamiyatga bo'lgani Mn ning o'zidir.

Re-1925 yil ochilgan nodir element, uning mavjudligini 1871 yil D. I.

Mendeleyev oldindan aytgan. Te-1937 yil sun'iy yo'l bilan olingan, Mo ni deytronlar bilan bombardimon qilish natijasida olingan.



Marganes. 1808 yil ingliz olimi Djon tomonidan toza holda olingan. U yer sharini 0,1% tashkil etadi. Bu mineral holida: piroluzit - MnO_2 , braunit- Mn_2O_3 , gausmanit Mn_3O_4 , manganit- $\text{Mn}_2\text{O}_3 \cdot \text{N}_2\text{O}$, MnSO_3 , gauerit- MnS_2 , mangan yaltirog'I – MnS

Marganes qattiq, mo'rt kumushsimon, oq, yaltiroq metall. $d=7,44$, $t_{\text{pl}}=1245^\circ\text{C}$

Marganes 4 ta allotropik modifikatsiyada uchraydi.




α -Mn, 727°C gacha barqaror.

β -Mn 1101°C (bu 2-la modifikatsiyalar ham alyuminotermiya usuli bilan olinadi. U mo'rtligi va qattiqligi bilan xarakterlanadi).




γ -Mn 1101 - 1137°C temperaturada mavjud.

τ -Mn 1137°C <temperaturada hosil bo'ladi.


Kimyoviy xossalari: Odatdagi temperaturada barqaror. Maydalangan holda u oson oksidlanadi. Al, Sb, Cu bilan ferromagnitli qotishmalar hosil qiladi. Qizdirilganda galogenlar, S, N,P,C,Si bilan birikadi.




Qizdirilganda suvni parchalaydi. Konsentrik H_2SO_4 , HNO_3 bilan xona temperaturasida ta'sirlashmaydi.




Ko'p metallarning tuzlari va oksidlaridan Mn ularni qaytaradi.



Olinish usullari: 1) Marganes oksidini uglerod bilan qaytarish orqali:



1) Alyuminotermiya metodi: $3\text{MnO}_2 + 4\text{Al} = 2\text{Al}_2\text{O}_3 + 3\text{Mn} + 391$





3) Mn tuzlari suvli eritmalarini elektrolizi orqali:




Qo'llanishi: Tarkibida Mn saqlaydigan po'latlar temir yo'l strelkalari, o'q o'tmaydigan tank korpuslari qurishda ishlatiladi. Uni asosida elektr o'tkazuvchanligi kam manganat qotishmasi olinadi. (12% Mn, 84% Su, 4% Ni).

Oz miqdorda Mn Al qotishmalariga qo'shiladi. U oz miqdorda tuproqda bo'ladi. Mineral suvlarda, o'simlik va tirik organizmlarda bo'ladi.


Marganes birikmalari: Kislorod bilan quydagi birikmalari ma'lum: MnO (II) asosli, Mn_2O_3 asosli, MnO_2 (IV) amfoter, MnO_3 (VI) kislotali, Mn_2O_7 kislotali,



Marganes (II) oksidi MnO- yashil poroshok, suvda erimaydi. Yuqori oksidlarini vodorod bilan qaytarish orqali olinadi.





tuzlarni qizdirish orqali:









Marganes (II) tuzlari pushti rangli, lekin eritmalari rangsiz.







Oq cho'kma oksidlanib qorayib qoladi.





Yuqorida keltirilgan reaksiyalar $\text{Mn}(\text{OH})_2$ ni beqarorligini ko'rsatadi.

Kuchli oksidlovchilar ta'sirida Mn^{2+} birikmalari qaytaruvchilik xossasini namoyon qiladi.




MnCl_2 - gazlamalarni jigar rangga bo'yash uchun ishlatiladi.





MnS





MnSO_4 oson qo'sh tuzlar hosil qiladi.



$\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 \cdot \text{MnSO}_4 \cdot 24\text{H}_2\text{O}$ gazmollarni bo'yashga ishlatiladi.





Mn_2O_3 -qora rangli



$\text{Mn}_2\text{O}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ -manganit



(IV)-marganes birikmalari.



$\text{Mn}(\text{OH})_4$ -amfoter modda, ular birikmalari 2-ga bo'linadi.

I-gruppa Mn^{4+} birikmalari. Ular 3 valentli marganes birikmalaridan beqarorroq. Eng barqarori $\text{Mn}(\text{H}_2\text{AsO}_4)_4$ va disulfid MnS_2 -gausrit.

Marganesning kompleks birikmalari ancha barqaror.




MnO_2 -qora rangli, amfoter oksid. Suvda erimaydi, qizitilmasa ko'p kislotalar ta'siriga chidamli.






2-gruppga orto va metamarganes kislotalarining H_2MnO_4 , H_2MnO_3 tuzlari kiradi. Bu kislotalar erkin holda ajratilmagan.





Oksidlanish reaksiyalari:




Qaytarilish reaksiyalari:




Mn^{+5} birikmalari. Bu oksidga hech qanaqa kislota to'g'ri kelmaydi. H_3MnO_4 beqaror va mavjud emas, shu paytgacha olinmagan. Bu kislotaning tuzlari Na_3MnO_4 va KMnO_4 olingan. Mn^{+6} birikmalari. MnO_3 va N_2MnO_4 erkin holda olinmagan, ular beqaror. Manganatlar metall holidagi, yoki marganes oksidlari, tuzlarini kislorod bilan ishqor ishtirokida suyuqlantirib olinadi.



Neytral va kislotali muhitda disproportsiylanish reaksiyasi ketadi.




Mn^{+7} birikmalari. Marganes angidridi yoki marganes (VII) oksidi permanganat kislota tuzlariga konsentrlangan sulfat kislota ta'sir ettirib olinadi.



Agar kristallik kaliy permanganatga 2-4 tomchi kons. sulfat kislota qo'shib, shisha tayoqcha bilan aralashtirilsa va bu tayoqcha efir yoki spirt bilan



ho'llangan paxtaga tegizilsa u darhol o'z-o'zidan alanga berib yonib ketadi. Marganes (VII) oksidi qo'ng'ir yashil rangli moysimon suyuqlik. Juda kuchli oksidlovchi. Ko'p yonadigan moddalar qog'oz, spirt, efir bu oksidga tegishi bilan o'z-o'zidan yonib ketadi.

Texnikada kaliy permanganatning olinishi. Marganes (IV) oksidiga KOH bilan kislorod qo'shib olinadi.



Texnikada KMnO_4 organik moddalarni oksidlovchi agent sifatida ishlatiladi. Shuningdek jun, kiyimlarni oqlashda ham ishlatiladi. Permanganat bilan oksidlash sharoitga qarab har xil ketadi.

permanganatning oksidlovchilik xossalari:



Bu yerda natriy sulfit o'rniga kaliy yodid, natriy tiosulfat yoki istalgan boshqa qaytaruvchi olish mumkin.

Texnetsiy va reniy to'g'risida qisqacha ma'lumot



Reniy 1925 yilda ochilgan. SiPeS_4 minerali holida uchraydi. Texnetsiy 1937 yilda radioaktiv holda olingan. Reniyni oksidi ma'lum. Reniy (III) oksidi qora rangli. ReO_2 qora rangli. ReO_3 qizil rangli. R_2O_7 sariq rangli. Eng barqaror oksidi reniy (VII) oksidi va perrenat kislotasi. Texnetsiy ko'p xossalari bilan reniyga o'xshash.

Meditsina va tibbiyotdagi ahamiyati

Kaliy permanganat to'q qizil rangli eritma hosil qiladigan kristall qattiq modda. Davlat farmakopeyasiga kiritilgan. Odatda tashqaridan surish uchun ishlatiladi. Dezinfektsiya qiluvchi va kuchli oksidlovchi modda.


Polioksometalatlar³⁶

Poliosometallatlar – bu oksoanionlar, tarkibida bittadan ortiq metallat tutadi. pH kichik bo'lganda oksoligandlar protonlashganda suv molekulasini hosil bo'ladi, u markaziy atomdan ajralibmonoyadroli okso metallar hosil bo'lishiga olib keladi. Keng ma'lum bo'lgan misol, bu sariq xromatning zarg'aldoq dixromatga aylanishi misol bo'ladi.




³⁶ Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.

Kuchli kislotali muhitda uzun zanjirlar hosil bo'ladi xrom(VI) birikmalari kislorod ko'priklari orqali ulanadi. Cr(VI) kislorodli tetraedrlar faqat cho'qqilar orqali birlashishi : qirralar va chetlar markaiiy atomlarning bir-biriga yaqinlanishiga sabab bo'lishi mumkin(7). 4-d va 5-d elementlar 5 va 6 koordinasion birikmalar hosil qilishi mumkin, ular qirralar va chetlari bilan bog'lanishlar hosil qiladi.



10.6-rasm. Dixromat, poliwolframmat va polimolibdat ionlarining tuzilishi



Polioksometallarni poliedrlar holatida ko'rsatish ancha qulay, bunda metall atomlari markazda yotadi, kislorod bo'lsa qirralarda joylashgan. Masalan, $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ioni tradision (8) va poliedrlar holatida (9-10) ko'rsatish mumkin. Xuddi shunga o'xshash M_6O_{19} quyidagi ionlarga $[\text{Nb}_6\text{O}_{19}]^{8-}$, ioni $[\text{Ta}_6\text{O}_{19}]^{8-}$, $[\text{Mo}_6\text{O}_{19}]^{8-}$, $[\text{W}_6\text{O}_{19}]^{8-}$ ionlarining strukurasi berilgan. Bu ionlarning oxirida O atomi turadi, ular har bir atomdan tashqariga yo'nalgan. va ikki xil kislorodni ko'priqli birikmalari M-O-M va I ta «geperkoordinasiyalshgan» kislorod atomi, struktura markazida va oltita metall atomlariga tegishli bo'ladi. Boshqacha usulda belgilshda bu struktura 6 ta okaedr MO_6 dan iborat, ularning har biri to'rtta qo'shni bilan chegaraga ega. Simmetriya jihatidan M_6O_{19} O_h nuqtalar guruhiga tegishli bo'ladi(10.6-rasm).



10.6 rasm. $[\text{Mo}_6\text{O}_{19}]^{8-}$ ioning tuzilishi: a) tradision tuzilish; b) poliedrlar tipdagi tuzulish (6 ta oktaedr, qirralarda qoshilib qolgan).

Polioksometallning boshqa turi $[\text{W}_{12}\text{O}_{40}(\text{OH})_2]^{10-}$ (14) hisoblanib u protonlashgan. Polioksometallarga protonlar ko'chishi xarakterli ular bir paytni ozida ham kondensasiyalanishi va ham dissotsilanishi mumkin.

Polioksoanionlar juda e'tibor bilan eritma konsentrasiyasi va pHni tanlash orqali olinadi. Polioksivolframmatlar polioksimolibdatlar oddiy molibdat va volframatlarni kislotalash bilan olinishi mumkin.



Poloksomolibdat va polioksovolframatlardan tashqari katta sinf birikmalari geteropoliokso metall birikmalar ham bor, ular molibden va volframdan tashqari fosfor, mishyak va boshqa atomlar tutadi. Misol uchun. $[\text{PMo}_{12}\text{O}_{40}]^{3-}$, tarkibida teraedr PO_4^{3-} ioni saqlaydi, kislorod atomi MoO_6 (15) ni oktaedrik o'rab turadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya" -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.
5. H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
6. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

Jonlantirish uchun savollar

1. Xromning tabiatda uchrashi;
2. Xromning olinishi;
3. Xromning oksidlari;
4. Xromning 2,3,6 valentli birikmalari.
5. 3 valentli xromning qaytaruvchanlik xossalari;
6. 6 valentli xromning oksidlovchilik xossalari;
7. Xrom va uning birikmalarini ishlatilishi.

11- MA'RUZA

3.11. 8-10 guruh elementlari. Temir, kobalt va nikel guruhlari

Ma'ruzaning maqsadi: 8-10 guruh elementlari misolida va ularning birikmalari asosida bu guruh elementlari bilan talabalarni tanishtirish. 8-10 guruh elementlarining tibbiyotdagi o'rnini ko'rsatish.

Ajratilgan vaqt - 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. 8-10 guruh elementlarining umumiy tasnifi.
2. Temir, kobalt va nikelning atom tuzilishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari.
3. Qotishmalari. Cho'yan va po'lat ishlab-chiqarish (mustaqil o'qish uchun).
4. Temirni kislotalarga ta'siri.
5. Temirning II va III valentli birikmalari. Temir(II) qaytaruvchi va temir (III) oksidlovchi.

6. Temirning VI va VIII valentli birikmalari.
7. Temir, kobalt va nikelning tibbiyotdagi ahamiyati.
8. Temirning kompleks birikmalari.

Tayanch so'zlar: temir, kobalt, nikel, oksidlari va gidroksidlari, temir olinishi, temirning kompleks birikmalari.

8-10 guruh elementlari*. Temir, kobalt va nikel, ularning birikmalari

8-10 guruh elementlari o'z ichiga uch triada elementlarini oladi. 1 triada temir, kobalt va nikel kirib, 2 triadaga ruteniy, rodii va palladii kiradi. 3 triada elementlari bo'lsa o'z ichiga osmiy iridii va platinani oladi.

Bu guruh elementlarining tashqi qavatida 2 tadan elektron bor. Tashqaridan ikkinchi qavatda 6 tadan elektron bo'lib ularning tashqi qavatida 8 tadan elektron eng ko'pi bilan almasha oladi. Bunda 3d qavat ham ishtirok etadi.

8-10 guruh elementlari ichida temir, kobalt va nikelning xossalari o'xshashlik kuzatiladi.



Temir. Tabiatda uchrashi

Temir eng ko'p tarqalgan kimyoviy elementlardan biri hisoblanadi. Uning yer qobig'idagi miqdori 5% (massa) ga boradi. U tuproq, har xil minerallar, gemoglobin, xlorofil tarkibida bo'ladi. Temirni kometalarda, saturn xalqasida va quyoshda borligi aniqlangan. Temir erkin holda meteoritlar tarkibida uchraydi.

Temirning eng muhim rudalari

Magnitli temirtosh yoki magnetit Fe_3O_4 , bunda temirning miqdori 73 % ga boradi.

Qizil temirtosh - Fe_2O_3 (60%) va qo'ng'ir temirtosh - $\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot n\text{H}_2\text{O}$ (60%). Temir shpatlari ham ma'lum.

Fizik xossalari. Kimyoviy toza temir oq kumushsimon metall. U alyuminiydan bir oz qattiqroq. Oltin va kumushga nisbatan yumshoq. Agar motorni yakori toza temirdan yasalsa uning quvvati kremniyli temirga qaraganda 2 marta ortishi aniqlangan.

Temirni to'rtta allotropik shakl o'zgarishlari ma'lum. Bularga alfa, betta va gamma temirlar kiradi. Alfa temir 769°C gacha, betta temir esa 910°C gacha, gamma temir 1400°C va sigma (4 shakl o'zgarish) 1510°C gacha mavjud. Agar temir tarkibida C, Si? Mn bo'lsa ular aralash holda bo'ladi.

Toza temir suyuqlanish temperaturasi 1539°C lekin 600°C da yumshoq bo'lib qoladi. 1000°C da sim qilib cho'zilishi va bir-biriga ulanishi mumkin. Fe birikmalari uchun frost diagrammasi Fe^{+3} oksidlovchilik xossasi yuqoriligini ko'rsatmoqda (11.1-rasm). 11.2-rasmda piritning struktura tuzilishi ko'rsatilgan.






Figure 19.15 The structure of pyrite, FeS₂.

11.1-rasm. Temir birikmalari uchun Frost diagrammasi.


11.2-rasm. Piritning struktura tuzilish³⁷.

Olinish usullari. 1. Laboratoriya sharoitida temir uning tuzlarini eritmalarini elektroliz qilib olinishi mumkin. Buning uchun temir(II) yoki temir (III) xlorid eritmasi elektroliz qilinadi. Agar elektroliz oddiy sharoitda o'trazilsa, olingan temir tarkibida ko'p vodorod eriydi. Jarayonni yuqori temperaturada olib borib katodda temirni toza qavatini hosil qilish mumkin. Bunda ularni tarkibida vodorod bo'lmaydi.

2. Temir oksididan vodorod bilan qaytarib:






3. Havosiz joyda pentakarbonil temirni qizdirish orqali:









Texnikada Fe rudalarini suyuqlantirish orqali olinishi mumkin. Bunda cho'yan hosil bo'ladi. Uning suyuqlanish temperaturasi 1100°C.

Cho'yan tarkibida 95% temir, 3% kremniy va 2,5 % marganes bo'ladi. Domna jarayoni po'lat va cho'yan olish mustaqil o'qish uchun beriladi.

Domna jarayonida ruda(piritni) yonishi sodir bo'ladi.





Kimyoviy xossalari. Namlangan havoda temir tez qorayib qoladi. Buning sababi temirning bo'sh joylari ko'p. Lekin temirning sirti uni qorayishdan saqlaydi. Suvda quyidagi reaksiya sodir bo'ladi;



100 %li konsentrlangan sulfat kislota temirni passivlashtiradi. Yuqori konsentrasiyalı nitrat kislota ham temirni passivlashtiradi.

³⁷ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 449-502.





Azot va fosfor fosidlar, nitridlar hosil qiladi: Fe_2N , Fe_3S , Fe_3R , Fe_2P .


Temir vodorod bilan gidridlar hosil qiladi. Bular quyidagilar FeN , FeN_2 , FeN_3 va FeN_6 gidridlar hosil bo'ladi.

II valentli temir birikmalari


Bu birikmalarni olish uchun:



Temir (II) gidroksidini olish uchun:





Fe(OH)_2 kislotalar va sirka kislotada eriydi. Temir (II) gidroksid tez qorayadi va oxiri qo'ng'ir rangli temir (III) gidroksidga aylanadi. Temir (II) tuzlari oson gidrolizga uchraydi.



Temir kuporosi $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$


Temir sulfatni suvli eritmaları qaytaruvchi sifatida ishlatiladi.



Laboriyada Mor tuzi ko'p qo'llaniladi: $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4 \cdot \text{FeSO}_4$

FeSO_4 zaharli gazlarni ushlab qolish uchun ishlatiladi. Temirning (II) valentli ko'p tuzlari ma'lum.

Temirning (III) valentli birikmalari. Temir (III) oksidi temirli surik, mumiya, oxra bo'yoq sifatida ishlatishi ma'lum. Termitli aralashma bu alyuminiy va temir (III) oksidining aralashmasi, bu aralashmadan relslarni payvand qilishda, aviabombalar tayyorlashda ishlatiladi. Bu aralashma portlashidan ko'p energiya chiqadi:




Fe(OH)_3 amfoter xossaga ega, lekin ishqorlarda kam eriydi. Temir (III) ko'p tuzlar hosil qiladi.



$\text{K}_2\text{SO}_4 \cdot \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 \cdot 24\text{H}_2\text{O}$ achchiqtosh deyiladi.

Temir (III) ga H_3FeO_3 va HFeO_2 ma'lum.

FeSO_4 tuzlari oson gidrolizga uchraydi. Soda ishtirokida to'la gidroliz sodir bo'ladi:



Fe^{3+} kislotalarda erib oksidlovchi xossasini namoyon etadi: $\text{FeCl}_3 + 6\text{KI} = 2\text{FeI}_2 + \text{I}_2 + 6\text{KCl}$



Tibbiyotda FeCl_3 qon to'xtatuvchi modda sifatida ishlatilishi ma'lum. Bu tuz ishqoriy metallar xloridlari bilan qo'sh tuzlar hosil qiladi. Na/FeCl_4 , $\text{Na}_3/\text{FeCl}_6$

Muhim birikmalardan FeS_2 pirit hisoblanadi.

Pirit ham oksidlovchi va ham qaytaruvchi.

$\text{FeS}_2 + \text{FeS}_2 = 2\text{FeS} + 2\text{S}$ bu reaksiyadan oltingugurt olishda ishlatiladi.




Pirit disproporsialanish reaksiyasiga kirishadi:





906⁰C da temir karbidlar hosil qiladi. Fe₃C.

Temir SO bilan pentakarbonil turdagi kompleks hosil qiladi / Fe(SO)₅/.

Temirning oksidlanish darajasi +6 va +8 bo'lgan birikmlari. H₂FeO₄ kislotaning tuzlari ma'lum. Bularga BaFeO₄ kiradi, bu oksidlovchi.





Nad temir kislotasi ham ma'lum N₂FeO₅:



Temirning juda ko'p kompleks birikmalari ma'lum. Temirning polisulfidlari strukturasi(13) ko'rsatilgan.




Bularga kaliy gesasianoferrat K₄/Fe(SN)₆/, yoki kaliy gekasianoferrat(III) K₃/Fe(SN)/, /Fe(NH₃)₆/ Cl₃ geksaamminferrum (III) xlorid.



KOBALT VA UNING BIRIKMALARI³⁸

Tabiatda kobalt yaltirog'i - CoAs₂S₂ smolatit minerali holida yoki kobalt yaltirog'i holatida uchraydi. Bundan tashqari NiAsS holida ham uchraydi.

Tashqi ko'rinishi jihatidan temirga o'xshash, yaltiroq, kul rang metall. Kobalt yaxshi cho'ziladi va bug'lalanadi. Vodorodni o'ziga oson yutadi. CoN₂ hosil qiladi. Qizdirilganda oson oksidlanib 1000⁰ C da kobalt II va III oksidini hosil qiladi.



Nam bo'lmaganda S, Cl, Vg bilan reaksiyaga kirishmaydi.




Yuqori temperaturada R, As(CoAs₂) va Si bilan (Co₂Si dan CoSi gacha) S bilan (CoS₃) karbidlar hosil qiladi.

³⁸ H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.


Kobalt mineral kislotalarda yomon eriydi. Konsentrlangan nitrat kislota bilan passivlashadi.




Kobalt asosan issiqqa chidamli va pishiq materiallar olishda ishlatiladi. Co (II) tuzlari beqaror u oson (III) valentli birikmalarga o'tadi.




ko'k pushti rangli





Co(OH)₂ havoda qiyinchilik bilan oksidlanadi. NaClO oksidlanishni tezlashtiradi.




Kobalt(II)ning etilendiaminli cis-va trans komplekslarini fazoviy tuzilishi(8-9):



Co(OH)₃ ga kislorod saqlovchi kislotalar qo'shilganda kobalt (III) tuzlari hosil bo'lmaydi, balki kobaltning (II) valentli tuzlari hosil bo'ladi.



Kobaltning bunandiamin bilan komplekslari tuzilishi(5,6).





NIKEL VA UNING BIRIKMALARI

Nikel tabiatda kupfernikel NiAs va mishyak nikel yaltirog'i holatida uchraydi NiAsS.

Metallik nikel juda yaltiroq oq kumushsimon metall, juda qattiq, magnitga tortiladi. U juda korroziyaga chidamli. Atmosferada, suvda, kislotalarda va ishqorlarda barqaror.

Nikel qotishmalari juda ko'p ishlatiladi. Nixrom 70% Ni va 20% Cu. Nikel konstantin termoparalarda ishlatiladi.







Oqish yashil cho'kma

Ni(OH)_2 va Co(OH)_2 temir birikmalaridan farq qilib havo kislorodi bilan o'z-o'zidan oksidlanmaydi,




TEMIR GURUHI ELEMENTLARINING KOMPLEKS BIRIKMALARI

Temir juda ko'p kompleks birikmalar hosil qiladi.



Bu birikmalarda kobalt va nikel hamda temirning koordinasion soni 6 ga teng.

Kompleks birikmalar asosida Fisher reaktivi ma'lum:




TEMIR, KOBALT VA NIKELNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Temir gemoglobinning tarkibiga kiradi. Gemoglobinda temir miqdori 14,5 % ga boradi. Gemoglobin organizmda 2 ta funksiyani bajaradi. Kislorod tashish va organizmda e tashish.

Organizmga temir yetishmasa anemiya kasalligi boshlanadi. Bunda organizmga qaytarilgan temir beriladi. Masalan feramid. Feramid bu temir hamda nikotin kislotasining kompleks birikmasi bo'lib bu modda bizni institutimizda prof. M.A.Azizov rahbarligida ishlab chirilgan va tibbiyotga joriy etilgan.

Bundan tashqari tibbiyotda FeCl_3 qon to'xtatuvchi modda sifatida ishlatiladi. $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ va temir laktati va temir gliseratining ham ishlatilishi ma'lum.



11.3-rasm. FeS_2 piritning strukturasi

Sulfidli komplekslar


Klaster komplekslarni orgnish Fe-S juda ko'p organilgan, ular fermentlar tarkibida, elektronlar ko'chishi va azot fiksasiyasida muhim rol o'ynaydi. 13 da rasmda $[\text{Fe}_4\text{S}_4(\text{SR})_4]$ strukturasi berilgan.

Reaksiya har xil organik moddalar ishtirokida borganligi Fe_4S_4 karkas strukturaning barqarorligi yaxshiligi hamda reaksiyaning unumidan ko'rinib turibdi. Bu reaksiyada HS^- ioni sulfid ligandlarini etkazib berubchi modda hisoblanadi. HS^- ham ligand va ham qaytaruvchi rolini o'ynaydi. CH_3COO^- asos ornida keladi. Kubik klaster qarama-qarshi qirralarda keladi.

S uchta Fe atomi uchun ko'prik hisoblanadi. Har bir RS⁻temir atomida eng oxirgi holatni egallaydi. Klaster bir elektroli qaytarishda ozgarmaydi. Shunga o'xshash klaster ferredoksin oqsilini oksidlanish –qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi.

Binar disulfidlarda d-blok metallari qavatli strukturaga ega, ayni paytda Fe^{2+} va boshqa metallar

d-blok disulfidlari diskret ionlar saqlaydi. 4-d va 5 d- metallarni komplekslari xelat polisulfidlarni hosil qiladi. Oltingugurt metallar bilan uyqori bo'lmagan oksidlanish darajasiga ega birikmalar hosil qiladi..



Asosiy adabiyotlar:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya" -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.
5. H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
6. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

12- ma'ruza

3.12. 11-12 guruh elementlari. Mis va rux guruhlari. Tabiatda tarqalishi va oddiy moddalarining olinishi

Ma'ruzaning maqsadi: 11 va 12 guruh elementlari, ularning birikmalari va kimyoviy xossalari bilan talabalarni tanishtirish. Bu guruh elementlarning sanoat, farmatsiya va sanoatdagi o'rnini yoritish.

Ajratilgan vaqt - 2 soat.

Reja:




1. Mis, kumush va oltinning atom tuzilishi va umumiy tasnifi.
2. Mis fizik va kimyoviy xossalari va olinish. Birikmalarining xossalari.
3. Mis kompleks birikmalari va ishlatilishi.
4. Oltin. Tabiatda uchrashi, olinishi va birikmalari.
5. Kumush, olinishi, birikmalari va xossalari.

6. IV guruh elementlarining tabiatdagi o'rni.

Tayanch so'zlar: Mis, Kumush, oltin. Xalkopirit, mis yaltirog'I, mis(I) va Mis(II) oksidi, gidroksidi, birikmalari. Rumush oksidi, nuzlari. Oltin birikmalari. Rux, kadmiy, simob. Oksidlari birikmalari. Kalomel va sulema.

11 guruh elementlari, ularning birikmalari va xossalari³⁹

Mis, kumush, oltin 11 guruh elementlariga kiradi. Ularning tashqi qavatida 1 ta dan elektron bor. Bu elementlar qiyin oksidlanuvchi elementlar hisoblanadi. Bu metallar vodorod ionlari kislorod bilan oksidlanmaydi. Ular shuning yarim nodir yoki nodir metallar qatoriga kiradi. Mis va kumush konsentrlangan nitrat va sulfat kislota bilan 160° dan yuqori oksidlanadi.



Oltin bu kislotalar bilan oksidlanmaydi. Unga zar suvi ta'sir etadi.



Mis va uning birikmalari

Tabiatda oz miqdorda tug'ma mis uchraydi. Birikma holdagi Cu_2O kuprit, Cu_2S mis yaltirog'i, CuFeS_2 mis kolchedani yoki kuprit, shuningdek malaxit ma'lum.


Fizik xossalari: pushti qizil rangli, yumshoq, yuqori issiqlik va elektr o'tkazuvchanlikka ega.

7	8	9	10	11	12	Al
Mn	Fe	Co	Ni	Cu	Zn	Ga
Tc	Ru	Rh	Pd	Ag	Cd	In
Re	Os	Ir	Pt	Au	Hg	Tl
Platinum metals				Coinage metals		



Kimyoviy xossalari: Mis havoning miqdoriga qarab Cu_2O va CuO hosil qiladi.



Mis galogenlar bilan oksidlanadi.



Yuqori temperaturada NO misni Cu_2O ga NO_2 bo'lsa CuO hosil qiladi.




³⁹ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 449-502.


Azot va uglerod mis bilan ta'sir etmaydi.



Sianit ionlari ishtirokida mis oson oksidlanib sianidli komplekslar hosil qiladi.




Yuqori temperatura mis gaz holdagi HCl bilan ta'sirlanadi.




Odatdagi sharoitda reaksiya chapga surilgan yuqori temperaturada o'ngga suriladi. Mis va uning birikmalari kuchli zahar hisoblanadi.

Olinish usullari: Mis sulfid rudalardan olinadi:


1. Dastlab rudalarni yoqib oksidlar olinadi.




2. Rudalarni suyuqlantirish pechlarda olib borilib unga koks qo'shiladi



3. Kuydirish:



4. Qaytarish.





Toza mis olish uchun mis sulfati mis elektrodi ishtirokida elektroliz qilinadi.

Texnikada ishlatilishi: mis asosida ko'pdan ko'p pribor va uskunalar tayyorlanadi.


List xoldagi mis bilan kemalar o'raladi. Misdan ko'p qotishmalar tayyorlaniladi.

M-n bronza – mis 90%, qalay – 10% Latun – misga 38-45 % rux qo'shiladi.

Misning birikmalari. Misning oksidlanish darajasidan bo'lgan birikmalari. Mis (1) oksidi – qizil kristall modda. Amfoter oksid, lekin natriy gidroksidda qiyin eriydi. Galogenovodorodlarda ham qiyin eriydi. Galogenovodorodlarda eritilsa erimaydigan tuzlar hosil bo'ladi. Agar ko'proq kislota qo'shilsa komplekslar hosil bo'ladi.




Mis (1) oksidi ammiakda ham oson eriydi. Bunda ammiakli komplekslar hosil bo'ladi.



Mis (1) gidroksid beqaror



Galogenlar bilan CuCl CuF hosil qiladi







Kompleks birikmalarga $\text{/Cu(NH}_3)_3\text{/}$; $\text{Cu}_2(\text{NH}_3)_2\text{/Cl}_2$ va boshqa komplekslar ma'lum.

Mis (1) yodidni olinishi.





Cu₂S ni mis olishda ishlatiladi. Misning +2 birikmalari. Mis (II) oksid, qora rangli amorf modda. Gazlarni adsorbsiya qila oladi.

Mis oksidi misning kislorod bilan ta'siridan olinadi.



Mis (II) oksidini olish uchun:



Agar yangi olingan mis (II) gidroksidiga konsentrlangan natriy gidroksidi qo'shilsa:




Natriy tetragidroksi kuprat hosil bo'ladi.




Bu reaksiyada ko'k rangli tetraaminomis(II) gidroksid olish mumkin.

Mis (II) gidroksidi mis sulfatga ishqorlar ta'sir ettirib olinadi.



Misning (II) valentligi birikmalari ko'pdan ko'p kompleks birikmalar hosil qiladi



Misning komplekslari katalitik sistemalar sifatida qo'llanilishi ma'lum. Gistidin va sistein bilan hosil qilgan komplekslari tirik organizmlarning pigmentasiya jarayonlarida faol ishtirok etadi (12.1-12.2 rasmlar). Plasosianinning oksidlangan va qaytarilgan formallari (29 a va 29 b). Ular sitoxromga ta'sir etuvchi katalitik faollikka ega.






Figure 27.20 Rapid equilibrium between $\mu\text{-}\eta^2\text{-}\eta^2$ peroxo-dicopper(II) and bis ($\mu\text{-oxo}$) copper(III) in a model complex for the active site of haemocyanin.




12.1 rasm. Gemosianin bilan misning hosil qilgan komplekslarining tuzilishi.

12.2-rasm. Misning katalitik komplekslari.




29a Oxidized plastocyanin



29b Reduced plastocyanin

Misning oksidlanish darajasi +3 bo'lgan birikmalari.

Faqatgina bitta birikma ma'lum. Bu mis (III) oksidi Cu_2O_3




Kumush va uning birikmalari.


Tabiatda kumush juda kam holda tug'ma holda uchraydi. Ko'p birikmalar mishyak yoki surma bilan birga uchraydi. Masalan: kumush tiosurmanit Ag_3SbS_3 , Ag_3AsS_3 - kumush tioarsenit.

Kumush yaltirog'i Ag_2S va AgCl , AgBr , AgI lar ham tabiatda uchraydi.


Kumush oq yaltiroq metal. Yuqori qovushqoqlikka ega. Undan ingichka sim tayyorlasa bo'ladi. Yuqori issiq va elektr o'tkazuvchanlikka ega. Simob bilan amalgamlar hosil qiladi.




Kimyoviy xossalari. Kumush kislorod, vodorod va kislotalar bilan oksidlanmaydi. Ozon bilan oksidlanadi. Nitrat va konsentrlangan sulfat kislota bilan yuqori temperaturada oksidlanadi.





Gaz holatidagi HCl bilan yuqori temperaturada reaksiyaga kirishadi.






Kumush galogenlar bilan qiyin oksidlanadi. Nam havoda kumush vodorod sulfid ishtirokida havo kislorodi bilan oson oksidlanadi. Kumushdan yasalgan taqinchoqlarni qorayib qolishini sababi ana shundadir.




Kaliy sionid ishtirokida kislorod va vodorod peroksidi ham kumushni oson oksidlaydi.



Kumushning olinish usullari: 1. Sianid usuli:



Amalgammalarni parchalab olinadi:






Kumush idishlar, priborlar, taqinchoqlar, xirurgik instrumentlar tayyorlashda ishlatiladi. Taqinchoqlar tayyorlashda tamg'a (proba) ishlatiladi. Kumush tamg'asi 800-875 orasida bo'ladi. Bu 1000 tarkibiy qismdan 800-875 qism kumush, qolganlari qo'shimchalar ekanligini ko'rsatadi. Ko'p miqdorda kumush fotografiya maqsadlari va fotografiya uchun ketadi.


Kumush birikmalari⁴⁰

Kumushning oksidlanish darajasi +1 bo'lgan birikmalari ko'p uchraydi. Lekin +2 va +3 birikmalari ham bor. Kumush II va III valentligi birikmalari juda beqarordirlar, faqat kompleks birikmalar holida mavjud.


Ag_2O qora qo'ng'ir rangli kristall modda




Bu reaksiyalarda kumush oksidi oksidlovchi.




kompleks hosil bo'ladi.




Kumushning galidlari kumush ftoriddan boshqasi yomon eriydi.





kompleks birikmalarga kiradi.




AgCl ammiak bilan oson komplekslar hosil qiladi.




Ag^+ ioni kuchsiz kislotali muhitda kuchli oksidlovchi.



Kumush xlorid fotoqojozlarda ishlatiladi.




Kumush bromid fotoplenkada ishlatiladi



⁴⁰ H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya" -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.

AgJ birikmasi kompleks hosil qilmaydi.



Ag₂S kumushning eng yomon eriydigan tuzi. U quyidagicha olinadi:



Kumush nitrat suvda yaxshi eriydi va gidrolizga uchramaydi.



Fotoqog'oz fotoplenkalar tayyorlashda, midisinada dezinfeksiya qiluvchi modda sifatida ishlatiladi. Ag⁺ ionlari tibbiyotda bakteriyalar o'sishini to'xtatish uchun qo'llaniladi. AgO va AgF₂ ma'lum.



Oksidlanish darajasi +3 bo'lgan faqat birgina birikma ma'lum, u ham bo'lsa K/AgF₄/ olingan.


Oltin va uning birikmalari

Nodir metall tabiatda quyma holda uchraydi. Tellur bilan birikmasI bor. AuAgTe₄ bu birikma silvanit deyiladi. Klaverit tarkibi quyidagicha Au₂Te.

Fizik xossalari: qizil, sariq rangli yaltiroq metall.


Cho'zish yordamida 1 g metallardan 0,0002 mm li list qilib 3 km ga cho'zish mumkin.

Oltin suv, kislotalar, kislorod, nitrat kislota, sulfat kislota ta'sirida oksidlanmaydi. Oltin galogenlar bilan odatdagi sharoitda juda oz ta'sirlashadi, lekin fluor bilan 300-400°C ta'sirlashadi. Xlorning suvdagi eritmasi uni oson oksidlaydi:




Bu reaksiya xlor ioni ishtirokida tezlashadi. Bunda suvda eruvchan H/AuCl₄/ kompleksi hosil bo'ladi.

Oltin sianid ionlari ishtirokida tez oksidlanadi:




Oltin zar suvida eriydi.



Olinishi. Oltin tog' rudalarini yuvish orqali olinadi. Yoki uning simob bilan amalgamasini parchalash orqali olinishi mumkin.




Hozirgi kunda oltin olishning sianidli usuli bor. Bu usulga ko'ra ruda kaliy sianid yoki natriy sianid bilan yuviladi.




Ishlatilishi. Dunyoda ishlab chiqaziladigan oltinning ko'p miqdori davlat omborlarida valyuta zahirasi sifatida saqlanadi. Oltin asosan taqinchoqlar tayyorlash uchun ketadi. Bu yerda tamg'a bor. 583 tamg'a ko'rsatilgani oltin qolgani qo'shimchalar.

Oltinning birikmalari.


Oltinning hamma birikmalari termik beqaror. Au_2O , Au_2S eriydi. Au^{+3} birikmalari ancha beqaror.




Bu kumush (1) oksidining disproporsiyalanish reaksiyasidir.




AuCl sariq rangli kukun modda



289°



AuBr , AuJ , Au_2S - qora modda. AuCN – jigar rang modda. Oltinning (III) valentli birikmalaridan Au_2O_3



$\text{Au}(\text{OH})_3$ yoki HAuO_2 metaoltin kislotasi ma'lum.

11 guruh elementlarining tibbiyotdagi o'rni

Fermentlar, garmonlar, vitaminlar bilan bog'langan bo'lgani uchun mis hayotiy muhim jarayonlarga anchagina ta'sir etadi: bu jarayonlar ko'payish, qonning quyulishi, pigmentatsiya, organizmning o'sishi va rivojlanishi, oksidlash-qaytarilishi jarayonlari va almashishidir. Mis yetishmaganda gemogloblin hosil bo'lishi kamayib, anemiya kuzatiladi. Mis tutgan fermentlar metallofermentlarning asosiy qismini tashkil etadi. Tibbiyot amaliyotida $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ishlashitilishi ma'lum. Bu modda antiseptik xossaga ega. Kumushning kollargol (70% gacha kumush bor) va protargol (8,3% gacha kumush) degan dorivor turlari ma'lum. Kumush nitrat juda zaharli bo'lib tashqaridan eroziya, yara, traxoma va boshqa teri kasalliklarida buyuriladi. Oltinning kompleks birikmasi AuNaS_2O_3 natriy va kumush tiosulfati volchanka kasalligida ishlatiladi. Oltinning krizolgan, triftal degan organik birikmalari ham shu maqsadda ishlatiladi.


12 guruh elementlari. RUX, KADMIY, SIMOB BIRIKMALARI⁴¹

Bunday elementlarning tashqi qavatida ikkitadan elektron bor, tashqaridan ikki qavatda o'ntadan elektron bor. Qaytaruvchanlik xossasi ruxdan simobga qarab kamayadi.


Olinish usullari.

⁴¹ Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.


1. Rux karbonati asosida shaxtalarda amalga oshiriladi:




2. Rux sulfidini yoqish orqali:




1. Hosil bo'lgan rux oksidiga uglerod qo'shiladi.



koks bilan qaytarish





3. Elektroliz usuli yordamida:



Ishlatilishi. - Ruxlangan temir olishda. Galvanik elementlar tayyorlashda ishlatiladi. Laboratoriyada vodorod olish uchun kerak bo'ladi. Rangli metallurgiyada oltin va kumush ajratib olish uchun rux juda ko'p sarf bo'ladi.

Ruxning birikmalari. ZnO amfoter xossaga ega oksid. Rux oksidi ham kislotalarda, ham asoslarda eriydi.



ZnS ma'lum sharoitda fosforesensiya xossasini namoyon etadi. Bu xossa unga og'ir metallarning sulfidlari aralashib qolganligidan kelib chiqadi.

ZnCl₂ suvsiz holatda olish juda qiyin bo'lgan modda. U uch molekula suv bilan birgalikda kristallanadi. Suvda yaxshi eriydi:

2KCl-ZnCl₂ beqaror kompleks deb qarash mumkin. Rux xlorid yogochni chirishdan saqlash maqsadida, metallar sirtini tozalashda va kimyoviy reaksiyalarda suv tortuvchi modda sifatida ishlatiladi

Zn(NO₃)₂ ruxni nitrat kislota eritish yo'li bilan olinadi. U olti molekula suv bilan kristallanadi.

Ruxning biologik sistemalardagi roli benihoya. Shu tufayli tarkibida rux bo'lgan fermentlar turli biologic jarayonlarda faol ishtirok etadi(12.1-12.3 – rasmlar).






Figure 27.28 The active site of carbonic anhydrase.



31

12.1-rasm. Ruxning karbonangidraza faolligini oshirishda ishtirok etishi.




12.2-rasm. Peptidlar ingibitorini hosil qoladigan karbonpeptidaza fermentini shakllanish sxemasi.

12.3-rasm. Fosfatlar va oqsil fragmentlarining rux va mg ishtirokidagi bog'lanishi.

Ruxni suyultirilgan sulfat kislotada eritib rux sulfati olinadi. Uning tarkibida 7 molekula suv bo'ladi. Bu tuz eritmasi metallarni elektrolitik usulda rux bilan qoplashda, medicina, to'qimachilik sanoatida va boshqa maqsadlarda ishlatiladi. Kadmiyni 1817 yilda F.Shtromeyer rux karbonati tarkibidan olgan. Kadmiy hamma vaqt rux rudalari tarkibida kadmiy karbonat holida uchraydi.

Kadmiy yumshoq, yaltiroq, oq, metall. Yuqori temperaturada juda aktiv metall, Galogenlar bilan birikib gallogenidlarga aylanadi. Toza kadmiy oksid jigar rang, bo'lib havoda sekin asta oqaradi. Bunda u kadmiy karbonatga aylanadi.




Tuzlari rux tuzlariga o'xshash. Metall kadmiy past temperaturada suyuqlanadigan qotishmalar tayyorlashda, Veston normal elementi hosil qilishda ishlatiladi. Temirning sirti kadmiy bilan qoplansa temir zanglamaydi.

SIMOB VA UNING BIRIKMALARI


Suyuq holdagi simob juda kam uchraydi. Tabiatda kinovar HgS -kinovar, Hg_2Cl_2 kalomel holida uchraydi. Simob xlorid sulema deyiladi (HgCl_2). Simob bug'lari juda zaharli. Simob metallarni o'zida eritib amalgamalar hosil qiladi. Bunda K, Na, Ag(45%), Al (16,7), Zn, Cd, Sn, Pb amalgamalar hosil qiladi.

Fe, Ni, Mn va So bilan amalgamalar hosil bo'lmaydi


Olinishi. Texnikada asosan pirometallurgiya usuli bilan HgS dan olinadi. Buning uchun simob rudasi 700-800 °C havo ishtirokida qizdiriladi.





Bug' holida hosil qilingan simob maxsus idishlarga yig'iladi






Laboratoriyada simob oksididan olinadi:




Kimyoviy xossalari. Simob konsentrlangan va suyultirilgan nitrat kislotada eriydi:



Odatdagi sharoitda simob kislorod bilan oksidlanmaydi. Lekin qizdirilganda oson oksidlanadi:





Hg²⁺ ioni juda kuchli oksidlovchi.



Ishlatilishi: Toza simob barometrlar tayyorlashda ishlatiladi. Simob kvarsli lampalar, amalgamalar va oltin va kumush ajratib olishda ko'p miqdor simob sarflanadi.

Simobni birikmalari. Simob oksidi sariq, qizil rangli modda. 400°C parchalanadi.



HgO ishqorlarda erimaydi. Kislotalarda erib tuzlar hosil qiladi.




Bunda HgO oksidlovchi bo'ladi.




HgO ning olinishi





HgCl₂ zaharli modda, sulema deb ataladi. Sulemaning suyultirilgan eritmasi dezinfeksiya maqsadlarida ishlatiladi. Sulema qo'shaloq komplekslar hosil qiladi:



Hg₂ preparativ kimyoda Nesler reaktivi deb yuritiladi:



Simob (1) oksidi Hg₂O – simob (1) nitratga ishqor ta'sir ettiriladi:



Hg_2Cl_2 kalomel deyiladi. Suvda erimaydi. Lekin efirda, benzol va piridinda yaxshi eriydi. Issiq nitrat kislota va sulfat kislota va xlorid kislota eriydi.


12 guruh elementlarining tibbiyotdagi ahamiyati. Rux eng asosiy mikroelementlardan biri. 1 sutka zarur miqdor 10-15 mg ni tashkil etadi. Tarkibida Zn^{2+} bo'lgan metallofermentlar soni 20 dan ortiq.

Bularni ichidan ikkitasi batafsil o'rganilgan. Ulardan karbangidraza va karboksipeptidaza. Karbangidraza qizil qon tanachalari tarkibiga kirib SO_2 ning gidratasiya va degidratasiya jarayonlarini tezlashtiradi. Karboksipeptidaza oshqozon osti bezining fermenti bo'lib, peptid bog'larning gidrolizida muhim rol o'ynaydi. Rux tutgan preparatlarga sink – insulin kiradi, va u qandli diabetni davolashda ishlatiladi.

Sulema odatda 1:1000 yoki 1:2000 nisbatda dezinfeksiyalovchi eritma sifatida ishlatiladi. Boshqa eritmalardan farqlash uchun odatda uni qizil yoki ko'k rangga bo'yab qo'yiladi. Simob birikmalari turli mazlar va surtmalar tayyorlashda ishlatiladi.

Nodir metallar


d- blokning chap tomonida joylasgan elementlar oksidlanishga barqaror bo'ladi. Bu ayniqsa kumush, oltin, 4-d va 5- guruh, hamda 10 guruh elementlariga tegishli (9.22 rasm). Oxirgi elementlar platina guruhi elementlari deyiladi, ular platina minerallarida uchraydi. Mis, kumush va oltin yana tangalar metallari ham deb uyritiladi. Tabiatda Au tug'ma holda uchraydi. Kumush, oltin va platina metallari misning elektrolitik rafinasiya qilishda olinadi. Individual (toza) platina metallarining narxi keng chegarada o'zgaradi, ularni birgalikda olishadi, lekin ishlatilishi ularning tarqalishiga to'g'ri kelmaydi. Rodiy bu metallar ichida eng qimmatlisi, u katalizator sifatida, avtomobil konverterlarida ishlatiladi. Rodiy palladiyda ko'ra 40 marta qimmat uyradi, tarqalishi bir xil bo'lsa ham.




9.22 rasm. Platina va tanga metallarinigdavriy sistemadagi o'rni.

9.23 rasm. s-, p- va d- 2 – orbitallarning gibridlanishi, rasmda ko'rsatilgan orbitallar bitta to'g'ri orbital to'g'ri chiziqda joylashgan bo'ladi. (σ-bog'lar).



Kumush. Mis va oltin standart sharoitda vodorod ioni bilan oksidlanmaydi, bunday xossa ularni platina bilan birgalikda nodir metallar sifatida ishlatishga imkon beradi. « Podsho arag'i » konsentrlangan xlorid va sulfat kislotada 3:1 nisbatda Au va Pt ni oksidlash uchun eski va samarali usul hisoblanadi. NO_3^- oksidlovchi, Cl^- kompleks hosil qiluvchi iondir. Tenglamasi:



Cl_2 va NOCl aktiv zarrachalar ular reaksiyada hosil bo'ladi:




11 guruh elementlari har xil oksidlanish darajasiga ega. Mis uchun +1 va +2, kumushda +1 va oltinga +1 va +3 xarakterli. Suvdagi eritmada oddiy akvaionlar $\text{Cu}^+(\text{aq})$ va $\text{Ag}^+(\text{aq})$ hosil bo'lib ular disproporsiyalanishga uchraydi:



Cu(I) , Ag(I) va Au(I) odatda chiziqli holatda bo'ladi. $[\text{NH}_3\text{AgNH}_3]^+$ odatda chiziqli, suvdagi eritmada hosil bo'ladi. Kristallarda $[\text{XAgX}]^-$ mavjudligi rentgenografiya yordamida aniqlangan. Chiziqli komplekslarning hosil bo'lishi tashqi ns-, np- va (n-1)d-orbitallarning energiyalari yaqinligi bilan tushuntiriladi (9.23- rasm).

Cu^+ , Ag^+ va Au^+ ionlarining uymshoq xarakteri bu ionlarning chagara chegara orbitallari energiyasi farqi kamligi natijasi bo'lib, oqibatda galogenidlarda bog'ning barqarorligi kamayadi:



Kompleks hosil qilish orqali, $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_2]^+$ va $[\text{AuI}_2]^-$ hosil qilinib, bu metallarning +1 oksidlanish darajasiga ega birikmalarning eritmada saqlash mumkin bo'lgan usullardan biridir.


Cu(I) , Ag(I) va Au(I) uchun juda ko'p tetraedrik komplekslar ma'lum. Au(III) uchun tekis kvadratli komplekslar olingan.

Metall sulfidlari va sulfidli komplekslar

Oltingugurt kislorodga nisbatan elektromanfiyligi kam bo'lgan anchagina uymshoq element unga keng chegarada oksidlanish darajasi xarakterli va u «uymshoq» d- blok metallariga kuchli moyillik ko'rsatadi. Masalan, rux sulfide Zn^{2+} tutgan eritmalaridan agar undan H_2S yoki NH_3 o'tkazilsa juda oson kristallanadi.

Bundan tashqari oltingugurt polisulfid ionlarini hosil qilishi mumkin. Natijada S^{2-} d-metallarga nisbatan juda ko'p birikmalar polisulfid ionlari yoki xelatlar hosil qiladi.

Bularni ichida CdI_2 qavatli tuzulishga ega (9.24 rasm).



9.24 rasm. CdI_2 ning strukturasi bu disulfidlar strukturasi o'xshash.

12 guruh elementlari


Metallarning «nodirlik xossalari» ancha o'zgaradi, d-elementlarda ortib borib, 12 guruhda kamayib ketadi. Metallarning oksidlanishi va d-orbitallar energiyasi keskin kamayishi orasida bog'lanish bor.

Elementlarning tarqalishi va oddiy moddalarining olinishi

12 guruhda rux eng keng tarqalgan element. U yer po'stida elementlarning tarqalishi jihatidan 23 o'rinda turadi. Kadmiy va simob tarqalishi kamroq element, ular hatto lantanidlardan ham kam tarqalgan.


Bu elementlarning eng muhim rudasi sulfidlar, kadmiy va rux asosan birgalikda uchraydi.

Rux sulfidi havoda kuydirilib oksidi olinadi:



Olingan rux oksidi shaxta pechlarda qaytariladi. Qaytarilish CO ishtirokida boradi. Agar Cd va Zn birga uchrasa, sulfat kislotada eritilib, so'ngra qaytarildi. Ajratish Cd^{2+} Zn^{2+} ga nisbatan oson qaytarilishiga asoslangan.

Simob tabiatda yorqin qizil mineral kinovar holatida tarqalgan (HgS), bu mineral o'z paytida yorqin qizil rang sifatida ishlatilgan. Zaharliligi tufayli hozirgi paytda bo'yoq qilib ishlatilmaydi. Matall holdagi Hg sulfidini kuydirib olinadi:



Rux va simob sulfidli minerallarni avval oksidlab, so'ngra qaytarib olinadi.

Oksidlanish –qaytarilish reaksiyalari

Rux va kadmiy o'zining qo'shnilari mis va kumushga nisbatan oson oksidlanadi. Bu

Farq standart elektrod potensiallarini solishtirganda ham ko'rinadi.


Zn^{2+} (—0,76 v) va Cd^{2+} (—0,40 v) ancha kichik Cu^{2+} (+0,34 v); Ag^+ (+0,80 v).

Bu guruh metallarida o'ziga xos tarafi engil metal ruxdan, uni qo'shnilari kadmiy va simobga o'tilsa kimyoviy xossalarda keskin o'zgarishlar ro'y beradi.


Masalan, simob, ancha elektromusbat element (kadmiy va ruxga nisbatan) va ularni ichida +1 oksidlanish darajasiga ega birdan bir element (ion Hg_2^{2+}) u suvdagi eitmada mavjud. Shu tufayli ham Hg_2^{2+} , Zn^{2+} va Cd^{2+} nisbatan ancha muhim zarracha hisoblanadi.

Kimyoviy, spektroskopik va rentgenostrukturaviy tekshirishlar korsatdiki, Hg(I) ikki yadroli kation Hg_2^{2+} sifatida mavjud, u birinchi metal-metal bog'ga ega zarracha edi. Keyinchalik Cd_2^{2+} ionini $\text{Cd}_2[\text{AlCl}_4]_2$ ajratib olindi. Zn^{2+} ionining suyqlantirilgan ZnCl_2 va rux bilan reaksiyasida hosil bo'lishini isbot etuvchi ma'lumotlar bor.


Cd_2^{2+} ionini tutadigan $\text{Cd}_2(\text{AlCl}_4)_2$ —birikmasi ancha yaxshi o'rganilgan. U mavjud bo'lish shartlaridan biri katta anion u katta kationni barqarorlaydi. Bu birikmalar suyqlantirilgan tuzlarda amalga oshiriladi (hech qanday suv bo'lmashligi kerak).



Kadmiy juda tez suvli muhitda disproporsiyalanishga uchraydi.




Bu reaksiya amalga oshishiga Cd^{2+} ionining gidratasiya qiymari uyqoriligi sabab bo'ladi. Simob(I) uchun bu qiymat ko'p farq qilmaydi, Cd^{2+} va Hg^{2+} bunday qiymatlar deyarli bir xil:



Bu muvozanat Hg^{2+} bilan kompleks va cho'kmalar hosil qiladigan moddalar uchun o'nga surilgan. Masalan, CN^- ionini qo'shilishi Hg(II) ning barqaror kompleksini hosil qilib:



OH^- ioning qo'shilishi simob oksid hosil bo'lishiga sabab bo'ladi:





12 guruh kationlari qaytarilish xossasi Hg^{2+} dadan Zn^{2+} gacha kamayadi.

Koordinatsion kimyo


Simob (II) qator ikki koordinatsion birikmalar hosil qiladi, masalan, $[\text{Hg}(\text{CN})_2]^-$, $[\text{Hg}(\text{CH}_3)_2]$ va $[\text{O}-\text{Hg}-\text{O}]$ qattiq simob (II) osidida mavjud. Rux va kadmiy uyqori koordinasion songa ega 4 dan oltigacha. ZnO da ruxning koordinasiyasi tetraedrik, CdO da kadmiyning koordinasion soni 6 ga teng, struktura osh tuziga o'xshash bo'ladi. Chiziqli komplekslar hosil bolish qobiiyati Zn^{2+} dan o'tganda Cd^{2+} o'tganda Cu^+ va Ag^+ ga nisbatan kamayishi, bu holat to'ldirilgan d-orbitallarning, bo'sh s-va p-orbitallar тимеующем

Координация цинка в ZnO — тетраэдрическая, а кадмия в CdO , to'ldirilgan d-orbitallarning, bo'sh s-va p-orbitallar farqining kattaligi bilan tushuntiriladi. 4-davr elementlari chapdan o'ngga qarab amfoterlik xossasi ortadi. Zn^{2+} amfoterlik xossasini namoyon qiladi:



Kadmiy gidroksidi faqat konsentrlangan ishqorlar eritmasida eriydi, simob gidroksidi amfoter zossasiga ega emas. 12-guruh elementlari Zn^{2+} , Cd^{2+} va Hg^{2+} katonlari to'la d-orbitallarga ega. Bu tuzlar eritmalari, rangsiz. Og'ir galogenidlar va xalkogenidlar rangga bo'yalgan. Masalan, $ZnCl_2$ va ZnI_2 ikkalasi ham rangsiz, kadmiy va simobda xloridlar rangga ega emas, kadmiy iodid sariq, HgI_2 ikk ixil shakl o'zgarishi sariq va qizil rangda boladi.

Rux va kadmiy (II) birikmalari tetraedrik komplekslar hosil qiladi; Hg(II) chiziqli komplekslar hosil qiladi (ligandlar CN- va galogenidlar). Bunday komplekslar bioorganic kimyoda juda kata amaliy ahamiyatga ega. Ular metallofermenrlarning asosini tashkil qiladi.




12.1-rasm.ruxning proteinlar tarkibida bo'lishini ko'rsatuvchi sxema.

12.2-rasm. Zn^{2+} juftining nuklein kislotalari tarkibidagi strukturasi.


12.3-rasm.Gistidin fragmentlarining ikkita Zn atoini ushlab turishi.

d-elementlarning tabiatiga ko'ra akva komplekslarning Frost diagrammasi qiymatlari ularning turli reaksiyalarda barqarorligi va oksidlanish qaytarilish reaksiyalaridagi ishtiroki to'g'risida ma'lumotlar beradi (12.3-rasm).



12.3-rasm.d-elementlar akva komplekslarining frost diagrammasi bo'yicha taqsimlanishi.

Figure 21.1 Characteristic lifetimes for exchange of water molecules in aqua complexes.



Platinaning turli metilpiridin bilan hosil qilgan komplekslarini beqarorlik konstantalari (2) kompleksning eritmada barqarorligini (3)ga nisbatan ko'rsatadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya" -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.
5. H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
6. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

13 –ma'ruza

3.13. 13-guruh elementlari. Bor guruhi

Ma'ruzaning maqsadi- 13 guruh elementlari, ularning birikmalarini kimyo fani, sanoat va farmasiyadagi o'rnini ko'rsatish.

Ajratilgan vaqt- 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. 13 guruh elementlariga umumiy tavsif.
2. Bor, uning birikmalari.
3. Borning kimyoviy xossalari. Birikmalari.
4. Borning gidridlari.
5. Alyuminiy, uning xossalari va birikmalari.

6. Alyuminiy oksidi va gidroksidi, ularning amfoterligi va ko'p tarqalgan birikmalari.

Tayanch so'zlar: Alyuminiy ,galliy,indiy va talliy. Korund, kriolit, alyuminiy oksidi, gidroksidi va tuzlari. Bor, bura, boranlar,borazol.

Tayanch so'zlar: bor,alyuminiy. Ularning oksidlari va birikmalari.



13 GURUH ELEMENTLARI⁴²

13 guruh elementlarining kimyoviy xossalari, oksidlanish darajasi va amfoter tabiati p-blok elementlarida ham takrorlanadi. Bu bo'limda 13 guruh elementlarining har bir a'zosi hosil bo'lishi va elementning kimyoviy xossalari, oddiy birikmalarida, koordinatsion birikmalarda va metal organik metallar va uglerod ishtirokida ko'pdan ko'p klaster birikmalari hosil qiladi birikmalarda oziga xoslikni ko'ramiz. Ayniqsa bor birikmalari klasterlarining chegarasi katta. 13 guruh elementlari bor alyuminiy, galliy, indiy va talliy turli kimyoviy va fizik xossalarga ega. Guruhning birinchi a'zosida matallmaslik xossasi metal xossasidan ancha ustun turadi. Bor vodorod, metal va uglerod ishtirokida ko'pdan ko'p klaster birikmalari hosil qiladi. Galliy va indiy qotishmalar va birikmalarda muhim elektron va optik xossalarga ega.

Bu bo'limda 13 guruh elementlarining kimyoviy o'ziga xosligini ko'ramiz.

Tayanch iboralar: Bor guruhdagi metallamaslarning birdan bir vakili. Alyuminiy 13 guruh elementlaridan eng ko'p tarqalgani.

13 guruh elementlari atmosfera, okeanlar va yer po'stlog'ida eng ko'p tarqalgani hisoblanadi. Alyuminiy etarli, lekin borning kamligi litiy va berilliyga o'xshash nukleosintezda kamayib ketganligigga bog'lanadi. Bu guruhning og'irroq elementlari temirdan keyin keladigan elementlarning yadroviy beqarorligi kamligi bilan tushuntiriladi. Bor tabiatda bura $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10 \text{H}_2\text{O}$ va kernit $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_5(\text{OH})_4 \cdot 2 \text{H}_2\text{O}$. Bulardan toza element olish qiyin. Alyuminiy ko'pdan ko'ptuproplar va alyumosilikatlar tarkibida bo'lib, ulardan eng muhimi boksitlar hisoblanadi. Alyuminiy ishlab chiqariladigan oksid alyuminiy va gidratlangan alyuminiy gidroksidi boksitlar tarkibida qo'shimcha mahsulot hisoblanadi. Ko'odan ko'o tog' jinslari tarkibida indiy va talliy izlari mavjud.

⁴² *Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 325-347.


B metallmas, Al metallik xossalarga ega, lekin unda metalloidlik xossasi mavjud, Ga, In va Tl metallardir, shuning uchun elementlarda kovalent birikmalardan ion birikmalarga o'tib boorish anana'si kuzatiladi. Guruhda pastga qarab ion radiusi ortadi, ionlanish energiyasining qiymati kamayadi. Guruhning 1 elementi B xossalari jihatidan keskin farq qiladi va uning kimyoviy xossalari boshqa elementlardan farqlanadi. B elementida 14 guruh elementi Si ga diagonal o'xshashlik kuzatiladi.

1. B va kremniy kislotali oksidlar SiO_2 va B_2O_3 hosil qiladi, Al_2O_3 amfoter xossaga ega.
2. Bor va kremniyning birikmalari oksidlari polimer strukturaga ega va shishasimon holatda.
3. Bor va kremniyning gazsimon giridlari mavjud va ular yonuvchan. Alyuminiy gidridi qattiq modda shaklida.

13 guruh elementlarining elektron konfiguratsiyalari $n\text{s}^2\text{np}^1$. Bu konfiguratsiyada elementlarning oksidlanish darajasi +3. Lekin guruh elementlarining pastga guruharab borishi bilan +1 oksidlanish darajasiga ega birikmalari bor va ularning barqarorligi ortib boradi. Tl eng tarqalgan oksidlanish darajasi +1. Bu tendensiya ayniqsa talliy galogenidlarida yaqqol ifodalanib inert juftlar yuzaga kelgan. Tl dagi bu xossa 13 guruh elementlari ichida Tl(I) birikmalarini juda zaharli bo'lishiga olib kelgan. Tining ion radiusi natriy va kaliyga o'xshash bo'lgani uchun u to'qimalarga oson kiradi va kaliy va natriyning transport funksiyasini buzadi.

Bor bir qancha allotropik shakl o'zgarishlar holatida uchraydi. Amorf bor jigar rangli qattiq modda, o'tga chidamli kristall bor yaltiroq qora rangda. Kristall strukturani uchta qattiq fazasi iksoedr hosil qilgan va 12 bor qurilish materiali sifatida ishlatilgan.

(rasm 13.1)




Rasm 13.1. (a) B_{12} ko'rinishli borning modifikatsion α -rombik perpendikulyar holati (b) billur o'qi kristalli. Iksoedrik o'zaro aloqa ($3s - 2e$) aloqalari.

Bor klaster polemer oksidlari

Bor yeida xar hil ko'rinishli tuzilishlari bor. Misol uchun, (bor o'zi bir necha qattiq, yuqori erish polimorf modifikatsiya) Borning 3 ta qattiq fazalari aniq strukturalarini o'z ichiga olgan.


Rasm 13.1 (a) B_{12} ko'rinishli borning modifikatsion α -rombik perpendikulyar holati (b) billur o'qi kristalli. Iksoedrik o'zaro aloqa ($3s - 2e$) aloqalari. Turli Al va bor birikmalarining tuzilishi ko'rsatilgan (2,3,11-15,17-19). Borazanlarning

strukturalari turli tumanligi ular asosida juda ko'p birikmalar hosil bo'lishini ko'rsatadi (21-25).



13.2-rasm. Bor nitridning geksagonal kristal strukturasi.


13.3-rasm. Bor nitride kub Kristal panjarasi.



Bor klasterlar⁴³.

⁴³ Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.

Oldingi bobda tasvirlangan tetraxlorid dibor B_4Cl_4 , klaster hosil qilishni birinchi misol ko'rinishi hosil bo'ladi. Metall boridi hosil bo'lishining eng oddiy usuli borning metallar bilan yoqori haroratda reaksiyaga kirishishidan hosil bo'ladi. Misol, tariqasida borni kalsiy va boshqa yoqori elektromusbat metallar bilan reaksiyasini ko'rsatish mumkin. Bunda MeB_6 fazasi keltirilgan(13.5-rasm).




Aytib o'tish kerakki yoqorida ko'rsatilgan anioni klozo- $[B_6H_6]^{2-}$ bilan oktaedr shaklida bog'langan.


b) Yoqori borlar va borgidritlar bog'lari va ularning tuzilishi

8-bobda borning oddiy gidridi bo'lgan- diboran B_2H_6 keltirilgan va aktiv boridlar borligi aytib o'tilgan. Bu bobda poliedrik boridlar va gidrobordlar keltirigan. Shton qatorlari va formulalari B_nH_{n+4} va ochiq ionli $[B_nH_n]^{2-}$ yopiq poliedirlar ko'rinishida keltirilgan.


Aytib o'tish kerakki yoqorida ko'rsatilgan anioni klozo- $[B_6H_6]^{2-}$ bilan oktaedr shaklida bog'langan.



Klasterlarni borning delokalizlangan orbitalari hosil qiladi.




13.4. Rasm. AlB_2 - tuzilishi. Geksogonal tuzilishi yaqqol ko'rinishi uchun qo'shimcha B, elementlar kataklari ko'rsatilgan.



13.5. Rasm. CaB_6 -tuzilishi. B_6 oktaedr bog' ko'rinishida keltirilgan. Kristall $CsCl$, moddaning anoligi hisoblanib, sakkizta Ca atomi o'rtasidagi B_6 oktaedrini o'rab olgan



b) Yoqori borlar va borgidritlar bog'lari va ularning tuzilishi

8-bobda borning oddiy gidridi bo'lgan- diboran B_2H_6 keltirilgan va aktiv boridlar borligi aytib o'tilgan. Bu bobda poliedrik boridlar va gidroboridlar keltirigan. Shton qatorlari va formulalari B_nH_{n+4} va ochiq ionli $[B_nH_n]^{2-}$ yopiq poliedirlar ko'rinishida keltirilgan.




Klasterlarni borning delokalizlangan orbitali shaklini formulalarda ko'rish mumkin. (15) ko'rsatilgan bog'larni uch bog' tarzida alohida ko'rish mumkin (3c-2e) – murakkab bor birikmalarida uch markazli (3c-2e)-bog'lar B-H-B ko'priklari tarzida keltirilgan. Bunda uch atom B to'g'ri burchakli uchburchak chetida sp^3 – gibril bog'lar esa o'rtada birlashadi.(16)

10.4. Jadval. Ba'zi bir bor molekulari va anionlarining tuzilishi.



13.4-rasm $[B_6H_6]$ molekula orbitallari skeletidan bor tuzilishi energetik diagramma darajalari. Orbital bog'lar tuzilishi 10.9. rasmda keltirilgan.

13.5- Rasm. Oktaedr klozo- B_6 va nido- B_6 larning o'aro aloqasi va kapalak shaklidagi araxno- B_4 tuzilishi




Klozo- tuzilishidan nido va araxno tuzilishli BH chiqib oʻrniga H yoki elektronlar qoʻshilishidan hosil boʻladi.

10.12. Rasm. Klozo-, nido- va araxno- boranlar tuzilishidagi geteroatomlar aloqasi. Diagonal chiziqlar skeletidagi elementlar bir xil boʻlgan qismlarni koʻrsatadi. BH elementida aloqasi yoq vodorod atomlari koʻsatilmagan. Uzoqdagi atomlar birinchi yoʻqotiladi, yaqindagilari esa ikkinchi boʻlib yoʻqotiladi. [Rudolph R.W., Acc. Chem. Rev., 9, 446 (1976)].


a) Boranlarga va borangidridlariga tegishli reaksiyalar.

Bor klasterlariga tegishli reaksiyalar, Lyus asosi bilan birga BH_n fragmentini ajratib olish, klasterlarni deprotonlash klaster oʻlchamini kattalashishi va shu bilan bir qatorda undan ortiq protonlarini almashinishi.


1. 8.9 boʻlimda diborandan Lyus asosida ajralish reaksiyasi. Boshqa misol tariqasida.



Katta molekula B_4H_{10} dagi B-H-B bogʻlarining baʼzi birlari uzilishidan klasterning buzilishi.




Moddalarining kislotaligi har xilligini (14) dekoboranni kuchsiz asos ta'sirida deprotonlanishi, trimetilamin protoni uzilishida B_5H_9 ga esa kuchli asos- metillitdiy yordam beradi.



4. H^+ ning elektrofil almashinishi.


Alkillovchi va galogenlovchi qismlar bilan o'tkaziladi. H^+ ning elektrofil almashinishi va Fridel- Kraft reaksiyasida katalizator sifatida Lyus kislotasi ishlatiladi. Masalan alyuminiy xlorid protoning klasterdagi yopiq qismidagi bor bilan amalga oshiriladi.




13.6. Rasm. Klozo- $[B_{11}H_{11} AlCH_3]^{2-}$ tuzilishi.

10.6. Karboranlar

Karboranlar - poliedrik boranlar va borgidridlarga juda o'xshash. Bor va uglerod atomi tutgan birikmalarning katta oilasi hisoblanadi.




Bu karboran havoda turg'un va qizdirganda parchalanmaydi. 500°C inert atmosfera havoda izomerlanadi va 1,7 - B₁₀C₂H₂₂ (25) ni beradi. Bu o'z navbatida 700°C da 1,12- izomeriga (26) aylanadi.



Klozo-B₁₀C₂H₂₂ dagi uglerod vodorod atomi bilan juda kuchsiz kislota xususiyatiga ega bo'lganni uchun uni ishlab chiqarishda qo'llash mumkin. Butillitij reaksiyasi oqibatida:






Dilitiykarboranlar yaxshi nuklofil bo'lib ko'p reaksiyalarga kirishadi. (15,7 bo'lim). Shu tarzda karboranlarnig katta spekteri ishlab chiqariladi. Masalan CO₂ bilan reaksiyasi natijasida ikki asosli kislota hosil bo'ladi.





Shu tariqa J₂ bilan reaksiyaga kirishib diyodkarboran hosil qiladi. NOCl –bilan B₁₀C₂H₁₀(NO)₂ hosil bo'ladi.

1,2 - B₁₀C₂H₁₂ juda turg'unligiga qaramay qisman parchalanib NaH bilan deprotonlanadi va nido-[B₉C₂H₁₁]²⁻ hosil bo'ladi.






Bu reaksiyalar ahamiyati nido-[B₉C₂H₁₁]²⁻ juda yaxshi ligandligidadir. Bu holatda u siklopentadienilni takrorlaydi. (C₅H₅ - 10.15,b) va metall organik kimyoda ishlatiladi.



13. 7.Rasm. [B₉C₂H₁₁]²⁻ (a) va C₅H₅ (b) o`rtasidagi izolobal bog`liqligi. H atomi ko`satilmagan.




Sintezga e`tibor bermaganda metallarni karboranlar bilan kompleks birikmalari oson olinadi. Karboranlarni ligandlardan olinishidagi farqi ko`p qavatli sendvich suziluvchaliqidadir. Masalan (27) va (28) yoqori manfiy tipdagi [B₃C₂H₅]⁴⁻ ko`pinvha shunday birikmalar hosil qiladi. Bunday donor kuchsiz hisoblanadi.

BOR, UNING XOSSALARI

1808 yilda Gey-Lyussak tomonidan ochilgan. Tabiatda birikmalar holida uchraydi. Bu birikmalardan H₃BO₃ -borat kislota, Na₂B₄O₇·10H₂O -bura, datolit - SaNVSiO₅ umuman borni 87 ta minerali bor.



Bor 2 xil: amorf va kristall allotropik shakl o`zgarish holatida uchraydi. Amorf bor hidsiz yuqori suyuqlanish va qaynash temperaturasiga ega, qo`ng`ir modda. U issiq va elektrni yomon o`tkazadi.

Kristall bor qizil anor rangli kristall panjarasi tetragonal tuzilishga ega. Borning tabiatda kam tarqalganligi uning yadrosini neytronlar bilan oson ta`sirlanishi orqali tushuntiriladi.



Bor birikmalari neytronlarni ushlab qolishi yadro texnikasida katta ahamiyatga ega. Ulardan yadro jarayonlarini sekinlashtiruvchi modda sifatida qo'llaniladi.

Olinishi:




Toza bor bor ftoridni elektroliz qilib olinadi. Bunda vodorod ham hosil bo'ladi. Reaksiyada borni tozaligi 99,5 % tashkil etadi.


Eng toza bor bor bromidni termik parchalab olinadi. Bunda reaksiya vodorod ishtirokida boradi:

$2\text{BBr}_3 + 3\text{N}_2 = 2\text{B} + 6\text{HBr}$ reaksiya 1000-2000⁰C tantal simi katalizatorligida boradi.


Bor olish uchun borning vodorodli birikmalarini parchalash ham mumkin:





Kimyoviy xossalari. Odatdagi temperaturada bor havo kislorodi ta'siriga chidamli, lekin 700 ⁰C yonadi.





Odatdagi sharoitda faqat ftor bilan oksidlanadi:





Temperatura ta'sirida xlor, brom va oltingugurt bilan ta'sirlashadi: 400




Kuchli qizdirilganda bor aktivligi barqaror oksidlar ($\text{SiO}_2, \text{P}_2\text{O}_5$) nisbatan qaytaruvchi xossalarini namoyon etadi.



Borga konsentrlangan va issiq HNO_3 , H_2SO_4 va zar suvi ta'sir qiladi bunda ortoborat kislota hosil bo'ladi.




Bor metallar bilan boridlar hosil qiladi:




D-elementlar boridlari juda qattiq va issiqqa chidamli moddalar (2000-3000⁰) va kimyoviy barqaror (Sg_4V , SgV , SgV_2); xrom sirkoniy, titan, niobiy va tantal bilan borning rotishmalari reaktiv dvigatellari tayyorlashda ishlatiladi, ulardan gaz trubinalari tayyorlanadi.

Borning galoidli birikmalari.

BF_3 -gaz, BSl_3 , va BBr_3 suyurlik va BI_3 qattiq modda.



BF_3 va BCl_3 organik kimyoda katalizator sifatida ishlatiladi. Borning galloidli birikmalari gidrolizga uchraydi:







Bor angidridi ikki xil allotropik shakl o'zgarish holatida uchraydi. Ulardan biri kristall bor angidridi.

Borning nitridlari BN. Or grafit geksagonal modifikasiya. Olti halqali siklda bor azot ketma-ket keladi.



Qora rangli kristall modifikasiya, borazon yoki elbor deyiladi. Borazon tetragonal modifikasiyaga ega. Borazon juda qattiq va qattiqligi olmosdan qolishmaydi. havoda qizdirilganda borazon 2000°C da oksidlanadi. Olmos bo'lsa 900°C da yonib ketadi. Borazon dielektrik.

BORNING GIDRIDLARI

Olinishi va xossalriga ko'ra silanlarga o'xshaydi:




B_2H_6 ikki yadroli birikma




Borovodorodlar kimyoviy aktiv havoda o'z-o'zidan oksidlanadi va ko'p issiqlik chiqazadi (masalan, B_2N_6 -2025 kJ/mol). Misol uchun S_2N_6 -1425 kJ/mol.


Borning gidridlari suv ta'sirida parchalanib vodorod hosil qiladi:




Ko'p borovodorodlar qo'lansa hidga ega va juda zaharli.





Ortoborat kislota oq kristall modda. Ortoborat kislota suvda kam eriydi, temperatura ortishi bilan eruvchanligi ortib boradi. Juda kuchsiz kislota hisoblanadi. Odatdagi kislotalardan farqli ravishda, undan proton ajralishi OH^- ionlarini birikishi hisobiga bo'ladi:





17 $[B_3O_3(OH)_4]^-$



Qizdirilganda H_3BO_3 suv ajratib HBO_2 ga aylanadi:




Agar issiq buraga sulfat kislota qo'shilsa ortoborat kislota hosil bo'ladi.





H_3BO_3 ni mol miqdorda ishqor bilan neytrallanishda -B-O-B- bog'lari hosil bo'ladi:




Metall oksidlarini eritish xossasidan foydalanib buradan metallarni payvand qilish uchun ishlatiladi.



Burani gidrolizi;



Ortoborat kislota spirtlar bilan murakkab efirlar beradi:





Agar ingichka uzun nay orqali yopiq idishdan bor etilefiri qizdirib chiqarilsa u juda yaxshi yonadi.

Oxirgi paytlarda bororganik birikmalar katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

B-O-B, -B-N-B-, B-R-B, B-S-B. Masalan $B_3N_3H_6$ -borazol, juda qizirarli, rangsiz suyuqlik. Tarkibi va strukturasi benzolga o'xshaydi. Shuning uni noorganik benzol deb yuritiladi. Xuddi shunaqa birikmalar difenil va naftalinga o'xshash bo'ladi. Bu moddalar raketa yorilg'isi sifatida ishlatiladi.

Borning azot bilan birikmalari uglevodorodlarga o'xshaydi:



B-N dagi to'rtinchi bog' sp^3 gibridlanish tufayli yuzaga kelgan. Bunda N ning bog'lanmagan elektronlar jufti va V da sp^3 gibrid orbital hosil qilishda ishtirok etadi.

ALYUMINIY VA UNING BIRIKMALARI

Alyuminiy yer sharida eng ko'p tarqalgan metallardan biridir. U tuproqni, dala shpati, slyuda va juda ko'p minerallarni tarkibiga kiradi.

Kaolin - $Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$ kriolit Na_3AlF_6 /alunit


Fizikaviy xossalari. Oq kumush rang metall, ingichka sim tayyorlasa bo'ladi. Yupqa list va kukunga o'tkazilishi mumkin.

Kimyoviy xossalari. Havo kislorodi bilan oksidlanadi va uni sirtida $0,101 \cdot 10^{-4}$ sm yupqa oksid parda qoplagan bo'ladi, bu uni keyingi oksidlanishdan saqlaydi.


Alyuminiy suyultirilgan xlorid kislota bilan ta'sirlashib:



Konsentrlangan nitrat kislota odatda alyuminiy passivlashtiradi. Sulfat kislota bilan alyuminiy asosli tuzlar hosil qiladi:



Alyuminiyning kislorod bilan ta'sirlanishi juda tez boradi:






Bunda temperatura $3000-3500^\circ\text{C}$ gacha ko'tariladi va UB nurlar tarqaladi.



1859 y. N.N.Beketov alyuminiy metallarni ularni oksidlaridan qaytarish uchun ishlatdi. Bu usul alyuminotermya deyiladi. Agar 1g-atom kislorodga to'g'ri keladigan kislorod mirdori $551,2 \text{ kJ/mol}$ dan kam bo'lgandagina oksidlardan metallarni qaytarish mumkin.

Alyuminiy bilan CaO, BaO va MgO ni qaytarib bo'lmaydi, chunki 1g atom kislorodga to'g'ri keladigan energiya miqdori $636,5$, $608,9$ va $599,7 \text{ kJ/mol}$. Amalda termitli payvandlash katta ahamiyatga ega. Fe_2O_3 yoki Fe_3O_4 bilan alyuminiy metali aralashmasi yondirilsa temir qaytariladi va bunda juda katta energiya chiqadi.


Alyuminiy galogenlar bilan oksidlanishi ko'p mirdorda energiya chiqishi bilan boradi.



Yuqori temperaturada alyuminiy:




Alyuminiy karbid gidrolizlanganda metan ajraladi:





OLINISH USULLARI

Alyuminiy 1887 yilda Vyoller tomonidan olingan



Texnikada olinishi. 950°C da $\text{Al}_2\text{O}_3(8\%)$ suyuqlanmasini elektroliz qilishga asoslangan. Bunda erituvchi sifatida Na_3AlF_6 -kriolit ishlatiladi. Hamma komponentlar ichida alyuminiy oksidi eng kichik parchalanish kuchlanishiga ega, shuning uchun u parchalanadi:



Elektroliz paytida anchagina miqdor uglerod sarf bo'ladi.

Agar boksitlar yuqori temperaturada temir (III) oksidi bilan aralashtirilganda ham :



Temir oksidi va boshqa aralashmalar cho'kmada qoladi, eritmadan karbonat angidrid o'tkazib parchalanadi:




Olingan gidroksid kuritilib suvdan ajratiladi:




Tozalangan oksid vannaga solinadi.

Quruq usul :




Ishlatilishi. Alyuminiy texnikada ko'p ishlatiladi. Toza alyuminiydan o'tkazgichlar tayyorlanadi. Undan qotishmalar olinadi. Qotishmalarga dyuralyuminiy, dyuralni olish mumkin. Alyuminiy asosida bo'yoqlar olinadi.


Alyuminiyning birikmalari. Alyuminiy oksidi tabiatda uchraydi. U qizil-qubin rangli. Bu oksid amfoter oksidlar qatoriga kiradi. Suvda erimaydi.




Suyuqlantirilgan ishqorlarda alyuminiy oksidi eriydi:



Alyuminiy oksidni asosli xossasi kislotali xossasidan kuchli:




Alyuminiy gidroksidi amfoter gidroksid, u asoslar bilan ham, kislotalar bilan ham ta'sirlashadi:




Alyuminiy tuzlari oson gidrolizga uchraydi.


ALYUMINIYNING GALOGENLI BIRIKMALARI








Suvsiz alyuminiy xlorid havoda tutaydi, chunki gidrolizga uchraydi:



Alyuminiyning tuzlaridan yana qo'sh tuzlarni olish mumkin. $\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$ kaliy alyuminli achchiqtosh. Bular terini oqlashda, bo'yoqlar tayyorlashda, medisinada ishlatiladi.



Alyuminiy va azot asosida juda qiziq birikmalar majud.



Shuningdek, ammiakka o'xshash allin ma'lum (AlH_3)

Tibbiyotda ishlatilishi. Alyuminiy birikmalari tibbiyotda ishlatiladi. Alyuminiy gidroksidi adsorbsiya qiluvchi va o'rovchi material. Uni surtmalar tayyorlashda, yaralarni davolashda, shuningdek oshqozonni kislotaligi ortib ketganda ishlatiladi. U almagel preparati tarkibiga kiradi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W. Atkins, T.L. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 825.
2. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 1/ Перевод с англ. М.Г.Розовой, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-679 с.
3. Д.Шрайвер, П.Эткинс. Неорганическая химия. В 2-х т. Т 2/ Перевод с англ. А.И.Жирова, Д.О.Чаркина, С.Я. Истомина, М.Е.Тамм-Мир, 2004.-486 с.
4. H.R. To'xtayev, R.Aristanbekov, K.A. Cho'lponov, S.N. Aminov. Anorganik kimyo ("Farmasiya" -5720500- bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik/ O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T."Nohsir",2011.520 b.
5. H.R. To'xtayev, « Anorganik kimyo » ma'ruzalar matni, 2015, 219 b.
6. Umumiy va anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar: farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (Mualliflar S.N.Aminov, R.Aristanbekov, H.R. To'xtayev va boshq.; S.N.Aminov tahriri ostida). T.,2016.-512 b.

Jonlantirish uchun savollar:

1. III A guruh elementlariga umumiy tasnif.
2. Bor, uning birikmalari.
3. Borning kimyoviy xossalari. Birikmalari.
4. Borning gidridlari.
5. Alyuminiy, uning xossalari va birikmalari.
6. Alyuminiy oksidi va gidroksidi, ularning amfoterligi va ko'p tarqalgan birikmalari. 1. III A guruh elementlariga umumiy tasnif.

14- ma'ruza

14-guruh elementlari. Uglerod guruhi. Davriy jadvalning p-guruhi metallari

Ma'ruzaning marsadi- Talabalarni uglerod, kremniy va p-elementlar kimyosi bilan tanishtirish. Bu birikmalarni tibbiyotdagi o'rnini yoritish.

Ajratilgan vart - 2 soat.

Ma'ruzaning rejasi:

1. 1V A guruh elementlarining umumiy tasnifi.
2. Uglerod uni tabiatda uchrashi.
3. Uglerodning metallaslar bilan ta'siri. Uglerodning oksidlari. Ularning olinishi.
4. Kislotalari. Uning sanoatda olinishi.
5. Uglerodning bora birikmalari.
6. Kremniy, uning tabiatda uchrashi. Kremniy oksidlari.
7. Kremniyning vodorodli birikmalari. Silisidlar.

8.Kremniyning kislotalari. Kremniy organik birikmalari. Uglerod va kremniyning tibbiyotdagi ahamiyati.

Tayanch so'zlar:allotropiya, uglerod, kremniy va ularning birikmalari.Qalay, qo'rg'oshin, germaniy.

14 The Group 14 elements

3.14. 14-guruh elementlari. Uglerod guruhi. Davriy jadvalning p-guruhi metallari⁴⁴

14- guruh elementlari , ularni ichida eng muhimi uglerod yerda hayotni asosi bo'lib xizmat qiladi . kremniy bo'lsa yer posti tarkibidagi minerallarning eng asosiy elementidir.Bu guruh elementlarining xossalari hammaga ma'lum metallar qalay va qo'rg'oshinga o'tiladi. Bu elemental barcha boshqa metallmaslar bilan binary birikmalar hosil qiladi. Bundan tashqari kremniyning juda xilma-xil qattiq moddalari ma'lum.urli tuman.


14 guruh elementlarining organik moddalari juda muhim savdo materiallari. Bu guruh elementlarining xossalari keng chegarada o'zgaradi.Uglerod organik kimyoda ishalatiladigan asosiy element va organik birikmalarning asosini tashkil etadi. Bu bo'limda biz uglerodning noorganik birikmalariga e'tibor beramiz.Kremniy tabiatda keng tarqalgan va qalay sanoat miqyosida ishlatiladi.

Tayanch iboralar: Guruhning eng engil elementlari metallmaslardir. Qalay va qo'rg'oshin metallar.Qo'rg'oshindan boshqa barcha elementlar bir nechtdan allotropic shakl o'zgarishlarga ega.

Guruhning engil a'zolari uglerod va kremniy metallmaslar, germaniy metalloid,qalay va qo'rg'oshin metallar.Metallik xossalar guruhda yuqoridan pastga qarab atom radiusining ortishi va ionlanish energiyasining kamayishi bilan metallic xossalar ortib boradi.Nisbatan og'ir metallarning ionlanish energiyasi kichikligi, pastga qarab borilgan sarikatin hosil qilishi brogan sari osonlashadi. Bu holatda ns^2np^2 elektron struktura uchun $=4$ oksidlanish darajasi imtiyozga ega. Asosiy chetlanish qo'rg'oshinda, chunki unda $+2$ oksidlanish darajas ibarqaror.

Uglerod va kremniyning elektromanfiyligibir-biridan farq qiladi, shu tufayliular vodorod bilan ko'plab vodorodli birikmalar hosil qiladi.Uglerod va kremniy [lor va ftorga nisbatan moyilligi yuqori elementlardir, ular ftor va xlor bilan qattqq anionlar O^{2-} va F^- anionlar hosil qilish qoboliyati yuqori.ularning oksofil tabiati karbonatlar va silikatlar holatida namoyon bo'ladi.Buni teskarisi Pb^{2+} yumshoq anionlar bilan barqaror birikmalar hosil qiladi.shuning uchun ular kimyoviy yumshoq hisoblanadi.


⁴⁴ Shriver and Atkins, Inorganic Chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W.Atkins,T.L.Owerton, J.P. Rourke, M.T. Weller and F.A. Armstrong, W.H. Freeman and Company, New York. 2010. P. 350-368.



Uglerodning deyyarli ikkita shakl o'zgarishi qotib qolgan. Bunda toza shakllar ko'p, masalan koks ko'mrning pirrolizida yoiki yonish jarayonida qurum hosil bo'ladi. Kremniy yer po'stini 26 % ni tashkil etib anchagina keng tarqalgan kimyoviy element. Bularga qum, kvarts, ametist, agat, opal, shuningdek asbest, dala shpati, tuproq va slyuda kiradi. Germaniy kam tarqalgan, tabiatda germanit minerali holatida $Cu_{13}Fe_2Ge_2S_{16}$. ruxli rudalar va ko'mir konlarida uchraydi. Qalay kaseterit mineralidan kelib chiqqanva qo'rg'oshin asosan galenit holatida PbS uchraydi.

Olmos va grafit uglerodning allotropic shakl o'zgarishlaribir-biridan keskin farq qiladi. Olmos dielektrik, grafit elektr o'tkazgich. Olmos tabiiy moddalar ichida eng qattig'I va qayrov material sifatida ishlatilsa, grafit surkov material sifatida tavsiya etiladi.

Guruhning barcha elementlari qo'rg'oshindan boshqa hech bo'lmasa bitta olmosga oxshash shakl o'zgarish ega.




14.1 rasm.

Olmosning kubsimon strukturas

14.2. Grafitning strukturas. Grafitning qavatli tuzilishi.

Organik dunyoda uglerod eng asosiy element hisoblanadi. Uning miqdori hamma kimyoviy elementlar miqdoridan 1va marta ko'p. Bu oqsil, vitaminlar, yog' neft, ko'mir asosida qazilma boyliklar, antrasen qo'ng'ir ko'mir slanes va boshqalar.



Fizik xossalari. Uglerod tabiatda grafit va olmos holida uchraydi. Sintetik usulda olingan karbin va polikumulen allotropic shakl o'zgarishlar ham ma'lum.


Olmos. Qattiq rangsiz kristall modda. sp^3 gibridlanish tufayli har bir uglerod atomi boshqa uglerod atomi bilan sigma bog' yordamida bog'langan. Olmos va boshqa nodir metallar og'irligi karatlarda belgilanadi (1 karat 0,2 g). Hozirgacha topilgan olmoslar ichida eng kattasi Janubiy Afrtkada topilgan "Kulinom" olmosi. Uning og'irligi 3020 karat yoki 604 g. Olmos rangli, rangsiz va qora olmoslarga

bo'linadi. Olmosdan metallarni teshishda, burg'ilashda, aniq instrumentlar tayyorlashda ishlatiladi.


Grafit – geksagonal strukturaga ega bo'lgan qora qo'ng'ir modda, u qavatli tuzilishga ega. Bunda uglerod atomlari sp^2 tuzilishga ega. Bunda har bir atom 3 ta kovalent bog' hosil qiladi. 4 ta elektrondan 2 tasi bog' hosil qilishda ishtirok etmaydi. Grafit elektrodlar tayyorlashda, yog'lash materiallari tayyorlashda va yadro reaktorlarida neytronlarni sekinlashtiruvchi modda sifatida ishlatiladi.

Grafitda 100000 atm bosimda 3000 – 3500°C da sun'iy olmos olinadi. 1000°C qizdirilsa olmos grafitga aylanadi. 1750°C bu jarayon tezlashadi.

Fullerenlar tarkibida 60 tagacha C atomlari tutadi. Rentgenografiya usullari yordamida fullerene tuzlari strukturasi o'rganilgan. Fullerene tuzlari C_{60}^n formulaga ega bo'lib, $n=2-12$ orasida ekan. Fullerene gaz fazasida mavjud, oson kompleks hosil qiladigan moddalardir. K^+ ionlari oktaedr qirralarida joylashgan. Eng asosiysi C_{60}^{3-} ioni mavjudligidir (14.4 -rasm). Rb_2CsC_{60} juda yuqori elektr o'tkazuvchanlikka ega (bu harorat 33 K. Cs_3C_{60} yuqori elektr o'tkazuvchanlik 40 K da kuzatiladi. Shu taqlid moddalar nanonaylar sifatida kata ahamiyatga ega. Ular gidrogenlanish reaksiyalarida katalizatorlar hisoblanadi.



14.3. Fullerene asosida olingan komplekslar.



14.4-rasm. K_3C_{60} formulaga ega bo'lgan birikmalar.

Amorf ko'mir (uglerod yoki saja). Amorf ko'mirning hamma turi sun'iy usulda olinadi.



Saja – qattiq, suyuq va gazsimon ko'mir tutgan moddalarni to'la yonmasligi natijasida hosil bo'ladi. Sajadan bo'yoqlar, tush, kauchukka qo'shiladigan qo'shimcha sifatida ishlatiladi.

Yog'och ko'miri – ko'mirni quruq haydash orqali havosiz joyda olinadi.

Kimyoviy xossalari. Uglerodning hamma allotropik shakl o'zgarishlari kimyoviy jihatdan inert. Masalan, olmos ko'p kimyoviy reaktivlar bilan ta'sirlashmaydi. Unga yuqori temperaturada kuchli oksidlovchilar ta'sir etadi. Masalan, kislorod, zar suvi, nitrat kislota. Bunda u CO_2 gacha oksidlanadi.


Grafit – kimyoviy ta'sirga olmosga qaraganda kuchliroq ta'sir etadi. Amorf ko'mir grafitga qaraganda tezroq reaksiyaga kirishadi.

Kuchli oksidlovchilar ta'sirida uglerodning II yoki IV valentli birikmalari hosil bo'ladi.





Yuqori temperaturada uglerod vodorod bilan reaksiyaga kirishadi. Shuningdek temperature ta'sirida oltingugurt, kremniy va bor bilan ta'sirlashadi.

Karbidlar odatda kristall moddalar. Ularda kimyoviy bog'lanish tabiati har xil. Uglerodning metallar bilan birikmasi **karbidlar** deyiladi. I, II, III guruh elementlarining karbidlari ion bog'lanishga yaqin bog'lanishga ega. Bularga misol qilib alyuminiy karbid va kalsiy karbidni olish mumkin.




14.4 rasm. Kalsiy karbidning tuzilish formulasi.

Alyuminiy gidrolizi paytida:



Kremniy va bor karbidlari atomlari orasidagi bog' kovalent SiC va B_4C_3 .

d – elementlar karbidlari har xil.




Bularning ko'pi metallik xossalarini namoyon etadi. Ularning elektr o'tkazuvchanligi yuqori, metallic yaltiroqligi bor. d – elementlar karbidlari qattiq, issiqqa chidamli, yuqori suyuqlanish temperaturasiga ega.

$TiC - 3140^\circ C$, $Zr_2C - 3530^\circ C$, $HfC - 3890^\circ C$.

MeC – karbidlar juda ussiqqa va temperaturaga chidamli, masalan: TiC, VC, NbC, Mo₂C, W₂C.


Uglerod qo'sh oksid. Ko'p miqdorda CO₂ vulqonli yoruqlardan chiqadi. Undan mineral suvlar tayyorlanadi.





Sanostda kalsiy karbonatdan olinadi:



Karbonat anhidrid havodan 1,5 marta og'ir gaz. U g'orlarning tagida, shaxtalarda yig'iladi. CO₂ sovutilganda muz hosil bo'ladi. U suvda erib karbonat kislota hosil qiladi.




